



**14** НОЯБРЯ  
2025 АНДИЖАН

# МАТЕРИАЛЫ

МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ  
КОНФЕРЕНЦИИ

«СИМУЛЯЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ:  
ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»  
(ТОМ -2)





**14 НОЯБРЬ,  
2025 АНДИЖАН**

**“СИМУЛЯЦИОННОЕ  
ОБУЧЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ:  
ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ,  
ПЕРСПЕКТИВЫ”**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**НАУЧНЫЙ РЕДАКТОР**

**МАДАЗИМОВ М.М.**

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

**САЛАХИДДИНОВ К.З.**

**ЖОХОНГИРОВ Ж.А.**

**УСМОНОВ У.Д.**

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

**ГОРШКОВ М.Д.**

**МАМАСОЛИЕВ З.Н.**

**САЛАХИДДИНОВ С.З.**

**БУСТАНОВ Ш.Я.**

**РЕДАКТОРЫ ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКЕ**

**АБДУЛХОДИМОВ Ф.А.**

**РАШИДОВ А.Ф.**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ**



SUNIY INTELLEKT TIZIMLARINI JORIY QILISH TARAQQIYOT ASOSIDIR  
ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА – ОСНОВА РАЗВИТИЯ  
IMPLEMENTATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS IS THE BASIS OF  
DEVELOPMENT

Mo'minova G.M  
ADTI, Biologik fizika, informatika,  
tibbiy texnologiyalar kafedrası  
katta o'qituvchi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot oqimlarini qayta ishashni yangi usullaridan biri bo'lgan suniy intellekt texnologiyalarini tashkil etish to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan. Jaxon miqyosidagi IT sohasi mutaxassislarining va olimlarni taklif va muloxazalarini o'rganib chiqildi. O'rganish natijalari asosida bizni tadqiqotimizni xulosalari bayon qilingan.

**Аннотация:** В данной статье описаны идеи по организации технологий искусственного интеллекта, которые являются одним из новых методов переосмысления современных информационных потоков. Изучены предложения и комментарии ИТ-специалистов и ученых мирового масштаба. По результатам исследования представлены выводы нашего исследования.

**Annotation:** This article describes ideas on the organization of artificial intelligence technologies, which are one of the new methods of re-thinking modern information flows. The proposals and comments of IT specialists and scientists of the world scale were studied. Based on the results of the study, the conclusions of our research are presented.

**Kalit so'zlar:** GPS/Glonass trekerlari, veb-platforma, tajriba loyihalari, ma'lumot taxtasi, regulyator, dispetcherlik xizmati, xarita, elektron to'lov, jo'natma.

**Ключевые слова:** GPS/Glonass трекеры, Web-платформа, пилотные проекты, информационное табло, регулятор, диспетчерская служба, карта, электронный платеж, путевый лист.

**Key words:** GPS/Glonass trackers, web platform, pilot projects, information board, regulator, dispatch service, map, electronic payment, shipment..

**KIRISH.** Intellektual so'zi lotincha intellectus va grekcha so'zlaridan kelib chiqib, lug'aviy ma'nosi bilish, tushunish, aql degan ma'nolarni anglatadi.

Tizim esa- bu aniq maqsadga ega bo'lgan, ma'lum elementlardan iborat bo'lib, bu elementlar orasidagi munosabat o'rnatilib, biror davr (vaqt=t) faoliyat ko'rsatadigan yaxlitlikdir.

Intellektual tizimni sodda qilib aytganda bu aqliy tizimdir. Xozirgi kunda olimlar va mutaxassislar o'rtasida intellektual tizim to'g'risida yagona fikr yo'q. Shu sababli biz tadqiqotimiz natijasi sifatida intellektual tizimga quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik: Intellektual tizim –bu ilmiy asoslangan maqsadga ega bo'lib, ma'lum elementlardan iborat bo'lib, bu elementlar orasida munosabat o'rnatilib biror davr faoliyat ko'rsatadigan aqliy tizimdir.

Intellektual tizimni algoritmi quyidagicha bo'ladi:

$$F_a = \{IM; \text{Э}; N; S; t\} (1)$$

Bu yerda:  $F_a$ -intellektual tizim, IM-intellektual maqsad, Э-intellektual maqsadni elementlari, N-intellektual maqsad elementlar orasidagi munosabat, S-intellektual tizimni strukturasi, t-vaqt

Intellektual axborot texnologiyasi- bu turli soha ma'lumotlarini tizimli, mantiqiy va obyektiv qonuniyatlar asosida qayta ishlab, aqliy yechimlarni taqdim qiluvchi texnologiyadir.

**Adabiyotlar Tahlili.** “Suniy intellekt” termini fanga XX asrni 60-yillarida kirib keldi. 1969 yili Washingtonda shaxrida Suniy intellekt bo'yicha xalqaro konfrensiya o'tkazilib, unda elektron xisoblash mashinalari (EXM)da insonni ijodiy faoliyatini modellashtirish masalalari muxokama qilindi. Bu anjumanda suniy intellektga quyidagicha: Suniy intellekt-bu inson faoliyatidagi murakkab masalalarni imitatsiya qiluvchi suniy tizimdir-deb ta'rif berildi. Xozirgi kunda olimlar va mutaxassislar o'rtasida suniy intellekt bo'yicha yagona fikr yo'q. Xususan, 1979 yilda akademik V.M.Glushkov suniy intellektga- quyidagicha ta'rif bergan: Suniy intellekt-bu elektron xisoblash



mashinalari yordamida odamni aqliy masalalarini kontsepsiyasi xaqidagi fandır. Shuningdek, 1995 yilda O.V.German xam suniy intellekt-bu inson tafakkurini kompyuterda imitatsiya qiluvchi dasturlash tizimidirdeb ta'rif bergan. Tadqiqotimiz natijasi sifatida suniy intellektga quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik. Suniy intellekt- bu inson faoliyatidagi masalalarni elektron apparatlar yordamida imitatsiya (taqlid qilish, o'xshatma) qiladigan aqlli tizimdir. Suniy intellekt tizimlarini joriy qilish va ularni muammolarini bartaraf etish bo'yicha hozirgi kunda IT mutaxassislari va olimlari ko'plab tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Xususan, suniy intellekt orqali yuzni tanib olish, ovozni tanish va berilgan topshiriqni suniy intellekt texnologiyalaridan foydalangan xolda amalga oshirish masalalarini real vaqtda xayotga tadbiiq etishmoqdalar.

**Muhokama va natijalar.** Hozirgi sharoitda yangi O'zbekistonni samaradorli, barqaror va makroiqtisodiy rivojlanishini mutanosibligini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biridir. Bu dolzarb masalani muvofaqiyatli amalga oshirishda suniy intellekt tizimlarining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996 sonli qarorida ta'kidlagandek: Sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish asosiy maqsadimizdir [1].

Rivojlangan mamlakatlarda transport monitoringi tizimlari hozirda tobora ommalashib bormoqda. Bunday tizimdan foydalanish samaradorligi aniq. Transport monitoringi tizimi, masalan, sun'iy yo'ldosh transport monitoringi, har qanday transport kompaniyasiga tashilgan yuklarning xavfsizligi kafolatlarini berishi mumkin. Transport monitoringi tizimi bir vaqtning o'zida bir nechta foydali funksiyalarni bajaradi: u avtomobil qayerdaligini, qayerda to'xtaganini, qanday tezlikda harakatlanayotganini ko'rsatadi, marshrutning o'zgarishi haqida xabar beradi va dastlabki manzildan yakuniy manzilgacha bo'lgan yo'lni qisqartirishga imkon beradi. Katta metropolda GPS monitoringi ish uchun ham, hayot uchun ham juda muhim vazifadir. Doimiy tirbandliklar nafaqat jamoat transporti jadvaliga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ular yuk va yo'lovchi tashish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar ishini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bunday kompaniyalar uchun sun'iy yo'ldosh transporti monitoringi tizimi ushbu muammoning ajoyib yechimi bo'lishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi qarori doirasida hamda O'zbekiston transport sohasini yanada takomillashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlariga transport xizmatlari ko'rsatish turlarini ko'paytirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish, amaldagi UzGPS loyahasini takomillashtirish ([www.uzgps.uz](http://www.uzgps.uz)) orqali xizmat qilishi mumkin

UzGPS to'rt yildan buyon mahalliy dasturiy ta'minot kompaniyalari: “BePro Programmers Center” ([www.bepro.uz](http://www.bepro.uz)) va “Net Extensions” ([www.netex.uz](http://www.netex.uz)) bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan avtotransport vositalari monitoringi uchun mutlaqo mahalliy va yetarlicha universal yechimdir. ))).





1-rasm. Andijon shahrida yo‘lovchi tashish monitoringi bo‘yicha tajriba loyihasining UzGPS platformasi bazasi

Dasturiy ta‘minot ishlab chiqishda boshlangan paytdan boshlab, ya‘ni. So‘nggi to‘rt yil ichida loyiha yaxshi istiqbolga ega startapdan yaxshi abonent bazasiga va keyingi o‘shish uchun juda aniq istiqbolga ega to‘laqonli, universal geoaxborot platformasiga aylandi. Shu bilan birga, UzGPS tizimining o‘ziga xos jihati – real vaqt rejimida GPS/GLONASS trekerlaridan katta hajmdagi ma‘lumotlar oqimini qayta ishlash imkoniyati, istalgan treker ishlab chiqaruvchilar bilan ishlash imkonini beruvchi ochiq interfeyslar, modulli arxitektura va yetarlicha keng funktsionallikdir.

Yagona bulutli WEB platformasida oddiy avtoparklar uchun ham, ixtisoslashtirilgan xizmatlar, yo‘lovchi tashish uchun ham turli funksiyalarga ega xizmatlar ko‘rsatilishi mumkin. Amalda bunday tizimlardan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:


- avtotransport vositalaridan foydalanishning qat‘iy hisobi va hisobotini joriy etish hisobiga korxonalarining yoqilg‘i va ta‘mirlash uchun operatsion xarajatlarini kamaytirish;
- avtomobil parkini boshqarishning ko‘plab jarayonlarini avtomatlashtirish;
- xizmat ko‘rsatish sifati va yo‘lovchilar xabardorligini oshirish.

Mamlakatimizda UzGPS platformasi asosida joriy yilning may oyidan Guliston va Andijon shaharlarida yo‘lovchi tashish monitoringi bo‘yicha ikkita pilot loyiha ishga tushirildi. Ushbu pilot loyihalar buyurtmachisi O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil va daryo transporti agentligi bo‘ldi ([www.autotrans.uz](http://www.autotrans.uz))

UzGPS tizimi dastlabki joriy etilgandan so‘ng, 2015-yilda “UzGPS Marshrutni boshqarish” yana bir alohida moduli ishlab chiqildi va joriy etildi, uni yaratishda shaharlararo transport, logistika va yo‘lovchi tashishni boshqarish tajribasi hisobga olindi.

Modul O‘zbekistonning har bir viloyatida xaritada yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini yaratish, uni harakat jadvallari bilan bog‘lash, ishlab chiqilgan hisobot tizimi va rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarni baholash funksiyasiga ega bo‘lgan alohida to‘liq dispetcherlik ish joyini joylashtirish imkonini beradi (2-rasm). har bir yo‘nalish uchun alohida va butun mamlakat bo‘ylab yo‘lovchi tashish. Aynan shu modul Andijon (1-rasm) va Gulistondagi pilot loyihalar doirasida foydalanilgan.

Guliston shahridagi 60 ta va Andijon shahridagi 150 ta avtobusga GSM uyali aloqa tarmog‘i orqali avtobuslarning joylashuvi haqidagi ma‘lumotlarni uzatuvchi trekerlar o‘rnatildi. Shu bilan birga, UzGPS tizimiga yo‘nalishlar, bekatlar va avtobuslar jadvali haqidagi ma‘lumotlar kiritildi.



Rasm 2. Andijon shahridagi muntazam avtobuslar ro‘yxati va xaritasi

“UzGPS marshrutni boshqarish” moduli tizimga kiritilgan avtobuslar bo‘yicha yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtirilgan ishlash ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqdi.

Tajriba loyihasi davomida tashuvchi kompaniyalar va litsenziyalovchi organ – Avtomobil va daryo transporti agentligi o‘rtasidagi munosabatlarning ko‘plab nuanslari va xususiyatlari aniqlandi. Hududlarda yo‘lovchi tashishni tashkil etishda tashuvchilarning biznes-jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tizim ishlab chiquvchilari ma‘lumotlarni qayta ishlash va aks ettirishning o‘ziga xos algoritmini yaratib, vazifani muvaffaqiyatli bajardi. Natijada yo‘lovchilarga yo‘nalish bo‘ylab eng yaqin avtobusning yetib kelish vaqti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar



aks ettirilgan ma'lumot taxtasi taqdim etildi. Bular bilan bir qatorda quyidagi afzalliklarni ham alohida ta'kidlash mumkin:

1. Yo'lovchilar uchun: avtobus bekatlarida onlayn displeylar orqali ma'lumotlarni o'z vaqtida olish; vaqtni rejalashtirish qobiliyati; transport xizmatlari sifati va xavfsizligi; real vaqt rejimida avtobus harakati haqida ma'lumot olish va hokazo.
2. Transport korxonalarini uchun: dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish va avtomatlashtirish; marshrutlarni hisobga olish va nazorat qilish; garaj faoliyatini avtomatlashtirish; transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish; yoqilg'i sarfini nazorat qilish;
3. Davlat organlari (tartibga soluvchi organ) uchun: yo'lovchi tashishni ta'minlash bo'yicha kelishuv shartlariga rioya etilishini nazorat qilish; yo'lovchi tashish sifati va xavfsizligini ta'minlash; transport vositalarini kuzatishning yagona tizimi; marshrutlarni hisobga olish va nazorat qilish; avtotransport parklari faoliyatini yagona axborot makonida tahlil qilish va statistikasi.

Umuman olganda, pilot loyihalarning natijalari ijobiy bo'ldi. Ularda yo'lovchi tashish nazoratini tashkil etish va aholini axborot bilan ta'minlash masalalarini hal etishning tashkiliy, texnik usullari va yondashuvlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida yo'lovchi tashish monitoringi va elektron to'lov tizimlarini joriy etish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi. UzGPS tizimini ishlab chiquvchilar va Avtomobil va daryo transporti agentligi vakili bo'lgan Buyurtmachi: "Avtobuslar daqiqagacha harakatlanishi kerak", deb tushunishadi. Bu tizimdan foydalanishning iqtisodiy samarasida ham namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellektda semantik ma'nolar juda keng qo'llanilganligi sababli, olimlar ularni ma'lum darajada tuzilishga imkon beradigan bir qator usullarni ishlab chiqdilar. Shunga qaramay, ishlarning ko'p qismi yaxshi tushunilgan va ixtisoslashgan muammoli sohalarda olib boriladi.

Bunga misol mikroto'lqinli texnikadir. Birinchi bo'lib ishlatilgan dasturlardan biri Terri Vinograd tomonidan ishlab chiqilgan SHRDLU dasturi bo'lib, u odamlarning nutqini tushunadigan tizimlardan biri hisoblanadi. Dasturning imkoniyatlari juda cheklangan va turli xil ranglar va shakllarning bloklarini joylashtirish, shuningdek oddiy harakatlarni rejalashtirish bo'yicha "suhbat" ga tushib ketgan. Dastur "Xoch ustundagi piramida qanday rangda?" Kabi savollarga javob berdi. va "Moviy blokni qizil rangga qo'ying" kabi ko'rsatmalar berishi mumkin. Shunga o'xshash vazifalar ko'pincha sun'iy intellekt tadqiqotchilari tomonidan hal qilindi va keyinchalik "bloklar dunyosi" nomi bilan tanildi.

Bilimlarga asoslangan tizimlarni qo'llash mumkin bo'lgan barcha sohalarni sinflarga bo'lish mumkin: tibbiy diagnostika, rejalashtirish, prognozlash, boshqarish, o'qitish, sharhlash, elektr va mexanik uskunadagi nosozliklarni bartaraf etish. Keling, ushbu sinflarning har birini batafsil ko'rib chiqaylik.

- a) Tibbiy diagnostika tizimlari. Bunday tizimlardan foydalanib, organizm faoliyatidagi turli xil buzilishlar va ularning mumkin bo'lgan sabablari qanday bog'liqligi aniqlanadi. Eng mashhur diagnostika tizimi MYCIN. U meningit va bakterial infeksiyalarni tashxislashda, shuningdek ushbu kasallik topilgan bemorlarning ahvolini kuzatishda ishlatiladi. Tizimning birinchi versiyasi 70-yillarda ishlab chiqilgan. Bugungi kunda uning imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi: tizim tashxisni malakali shifokor darajasida o'tkazadi va uni tibbiyotning turli sohalarida qo'llash mumkin.
- b) Bashorat qiluvchi tizimlar. Tizimlar ob'ektning holatini yoki holatini tavsiflovchi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda voqealar yoki voqealar natijalarini bashorat qilish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, o'z ishida algoritmlarning statistik usullaridan foydalanadigan "Uoll-stritni zabt etish" dasturi bozor sharoitlarini tahlil qilish va kapital qo'yilmalar rejasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Dastur an'anaviy dasturlash algoritmlari va protseduralaridan foydalanadi. Bugungi kunda mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib, yo'lovchilar oqimini, unumdorlik va ob-havoni bashorat qiladigan dasturlar mavjud. Bunday dasturlar juda oddiy va ulardan ba'zilar oddiy shaxsiy kompyuterlarda ishlatilishi mumkin. Biroq, bozor ma'lumotlariga asoslanib, kapitalni qanday oshirishni taklif qiladigan ekspert tizimlari hali mavjud emas.
- c) Rejalashtirish. Rejalashtirish tizimlari aniq natijalarga erishish uchun ko'p sonli o'zgaruvchilar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Tijorat tizimida birinchi marta bunday



tizimlardan Damat kompaniyasi Informat tomonidan foydalanilgan. Kompaniya rahbariyati ofisning foyesiga 13 ta stantsiyani o'rnatishni buyurdi, bu erda kompyuter sotib olishni istagan mijozlarga bepul maslahatlar berilgan.

Sog'liqni saqlash bilan bog'liq AI ilovalarining asosiy maqsadi klinik usullar va bemorning natijalari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishdir. AI dasturlari diagnostika, davolash protokolini ishlab chiqish, dori-darmonlarni ishlab chiqish, shaxsiylashtirilgan tibbiyot va bemorlarni kuzatish va parvarish qilish kabi amaliyotlarda qo'llaniladi. Foydali tushunchalar va bashoratlarni olish uchun mashinani o'rganish modellari katta hajmdagi kirish ma'lumotlaridan foydalangan holda o'qitilishi kerak. AI algoritmlari ikki jihatdan odamlardan farq qiladi:

1) algoritmlar tom ma'noda: maqsad qo'yilgandan so'ng, algoritm faqat kiritilgan ma'lumotlardan o'rganadi va faqat nima qilish uchun dasturlashtirilganligini tushunishi mumkin,

2) ba'zi chuqur o'rganish algoritmlar qora qutilardir; algoritmlar o'ta aniqlik bilan bashorat qilishlari mumkin, ammo ma'lumotlar va ishlatiladigan algoritm turidan tashqari, uning qarorlari ortidagi mantiqqa juda kam yoki hech qanday tushunarli tushuntirish bermaydi.

Bundan tashqari, ma'lumotlar maxfiyligi, ish o'rinlarini avtomatlashtirish va vakillik tarafdorlari kabi amaliyot bilan bog'liq misli ko'rilmagan axloqiy tashvishlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

**Xulosa.** Suniy intellekt tizimlari orqali xisoblash mashinalariga suniy ong tushunchasini o'qitgan xolda xayotimizda keladigan muammolarni xisoblash tizimlari orqali yechish va inson omilini kamaytirish, shuningdek muammoli masalalarni yechishda foydalanish zarur. Xozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda insonlarni qiynab kelayotgan muammolar xususan mamlakatimizni xavfsizligi, ta'lim va tibbiyot tizimlarini va boshqa sohalarni rivojlantirishda suniy intellekt tizimlari istiqbolda juda muhim ro'l o'ynaydi. Rivojlanayotgan fan va texnika yutuqlaridan foydalanib, biz qanchalik suniy intellekt masalalarini xayotga tadbiq etib aqlli va optimal yechimlarni olsak bu natijalarga mutanosib ravishda tadqiqot obyektlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy sohalari uzluksiz rivojlanib boradi. Bu esa Yangi O'zbekistonni tarraqiyyotiga asos bo'ladi.

## TALABALARDA KLINIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VR ASOSIDAGI SIMULYATSION TA'LIMNING O'RNI

**F.A.Abdulxodimov., U.D.Usmonov**  
Andijon davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tibbiyot ta'limida talabalarda klinik fikrlashni shakllantirishda VR (virtual reallik) asosidagi simulyatsion ta'limning o'rni va samaradorligi keng yoritilgan. Virtual reallik texnologiyalari yordamida talabalarga real klinik amaliyotga yaqin sharoitda murakkab diagnostik va davolash vaziyatlarini modellashtirish imkoniyati berildi. Ushbu texnologiya yordamida talabalarda qaror qabul qilish tezligi, vaziyatni tahlil qilish aniqligi va klinik fikrlash darajasi oshdi. Tadqiqot natijalari VR asosidagi ta'lim an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** Klinik fikrlash, simulyatsion ta'lim, virtual reallik, VR ko'zoynak, tibbiyot ta'limi, amaliy ko'nikma, interaktiv texnologiyalar, ta'lim samaradorligi.

## РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИМУЛЯЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ КЛИНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

**Ф.А.Абдулходимов, У.Д.Усмонов**  
Андижанский государственный медицинский институт

**Аннотация:** В статье рассматривается роль и эффективность симуляционного обучения на основе VR (виртуальной реальности) в формировании клинического мышления у



студентов медицинских вузов. Использование технологий виртуальной реальности позволило студентам моделировать сложные клинические ситуации, принимать решения в безопасной среде и развивать практические навыки. Результаты исследования показали, что VR-технологии значительно повышают уровень знаний, практические умения и клиническое мышление студентов по сравнению с традиционными методами обучения.

**Ключевые слова:** Клиническое мышление, симуляционное обучение, виртуальная реальность, VR-очки, медицинское образование, практические навыки, интерактивные технологии.

## THE ROLE OF VR-BASED SIMULATION EDUCATION IN DEVELOPING CLINICAL THINKING IN STUDENTS

F.A.Abdulkhodimov., U.D.Usmonov  
Andijan State Medical Institute

**Annotation:** This article explores the role and effectiveness of VR (virtual reality)-based simulation training in the development of clinical thinking among medical students. Virtual reality technologies allowed students to model complex clinical scenarios, practice decision-making in a safe environment, and enhance practical skills. The study results demonstrated that VR technologies significantly improved students' knowledge, practical competencies, and clinical reasoning abilities compared to traditional teaching methods.

**Keywords:** Clinical reasoning, simulation training, virtual reality, VR headset, medical education, practical skills, interactive technologies.

**Tadqiqot maqsadi:** Talabalarda klinik fikrlashni rivojlantirishda VR texnologiyalaridan foydalanilgan simulyatsion mashg'ulotlarning samaradorligini baholash, an'anaviy o'qitish usullari bilan qiyoslab ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish.

### Tadqiqot maqsadlari

1. Klinik fikrlash tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish va tibbiyot ta'limida uning ahamiyatini aniqlash.
2. Virtual reallik texnologiyalari yordamida klinik vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish.
3. Talabalarning bilim, amaliy ko'nikma va klinik qaror qabul qilish qobiliyatlarini aniqlash.
4. VR asosidagi mashg'ulotlarning samaradorligini an'anaviy o'qitish usullari bilan qiyoslash.
5. Klinik fikrlashni rivojlantirishda VR texnologiyalarining afzalliklari va cheklovlarini belgilash.

**Materiallar va usullar:** Tadqiqot Toshkentdagi tibbiyot oliygo'hida 2023–2024 o'quv yilida olib borildi. Umumiy 100 nafar 3-kurs talabasi ishtirok etdi.

- **Eksperimental guruh (n=50):** VR ko'zoynaklar yordamida mashg'ulotlarda qatnashdi. Ular ichki kasalliklar, reanimatsiya vaziyatlari, jarrohlik aralashuvlari va anatomik tuzilmalarni 3D ko'rinishda modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.
- **Nazorat guruhi (n=50):** an'anaviy mashg'ulotlarda (ma'ruza, seminar, laboratoriya darslari) qatnashdi.
- **Baholash usullari:**
  - Klinik keys-topshiriqlar orqali klinik fikrlash darajasi.
  - Test sinovlari orqali nazariy bilimlar.
  - OSCE (Objective Structured Clinical Examination) orqali amaliy ko'nikmalar.



○ Talabalar so‘rovi orqali motivatsiya va qoniqish darajasi.

• **Davomiylik:** 1 semestr (4 oy).

**Tadqiqot natijalari:** Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhiga qaraganda yuqoriroq bo‘ldi:

• **Klinik keyslarni hal qilish aniqligi:** VR guruhida 88%, nazorat guruhida 65%.

• **Test natijalari:** VR guruhida  $18,7 \pm 1,2$  ball, nazorat guruhida  $15,4 \pm 1,6$  ball.

• **OSCE baholari:** VR guruhida 84% talabalarda “a’lo” yoki “yaxshi” natija, nazorat guruhida 60%.

• **Motivatsiya va qoniqish:** VR guruhida 90% talabalar yuqori baholadi, nazorat guruhida esa 62%.

• **Klinik fikrlashni rivojlantirish:** VR guruhida qaror qabul qilish tezligi va aniqligi an’anaviy guruhdan 25–30% yuqori bo‘ldi.

**Munozara:** Olingan natijalar VR texnologiyalari tibbiyot ta’limida klinik fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanini ko‘rsatdi. Virtual muhit talabalar uchun xavfsiz, ammo real klinik vaziyatlarga yaqin sharoit yaratadi. Talabalar o‘z xatolaridan qo‘rqmasdan qaror qabul qilishni mashq qila oladi, bu esa ularda klinik tafakkurni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

An’anaviy ta’lim usullari ko‘proq nazariy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lsa, VR esa amaliy va nazariy jihatlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Biroq, VR texnologiyalarini keng joriy etishda texnik jihozlarning qimmatligi, doimiy texnik xizmat va o‘qituvchilarning tayyorgarligi kabi qiyinchiliklar mavjud. Shunga qaramay, samaradorlik va talabalar qoniqishi bu texnologiyani keng joriy qilish zarurligini asoslaydi.

**Ilmiy yangilik:** Talabalarda klinik fikrlashni rivojlantirishda VR texnologiyalarining samaradorligi birinchi marta tizimli tarzda o‘rganildi va raqamli natijalar asosida tasdiqlandi. Klinik keyslarni hal qilish aniqligi va OSCE natijalari VR asosidagi ta’lim samaradorligini ilmiy asoslab berdi.

**Amaliy ahamiyati:** VR texnologiyalari yordamida talabalarda klinik fikrlashni rivojlantirish va real klinik vaziyatlarga tayyorlash samarali yo‘lga qo‘yiladi. Amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz sharoitda shakllantirish imkoniyati yaratiladi. VR ta’limi talabalarda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga yordam beradi, bu esa kelajakda tibbiy yordam sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Xulosa:**

1. VR asosidagi simulyatsion ta’lim klinik fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.
2. Eksperimental guruhda bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalar va qaror qabul qilish aniqligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi.
3. VR texnologiyalari talabalar motivatsiyasi va qoniqishini kuchaytirdi.
4. Klinik ta’limda VR texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb va istiqbolli yo‘nalishdir.

## **SIMULYATSION O‘QITISHNING HUQUQIY VA ETIK MASALALARI**

**Abduxokimov M.M**  
**Qoqon University Andijon filiali**  
**Tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi**  
**DI 24-23 guruh talabasi**

**Annotatsiya:** So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda simulyatsion o‘qitish usuli keng qo‘llanila boshladi. Ushbu maqolada mazkur usulning huquqiy va etik jihatlari tahlil qilinadi. Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar, o‘qituvchilar va bemorlarning huquqlari qanday himoya qilinishi, xalqaro tajribada qanday me‘yorlar mavjudligi va O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalishni qanday



rivojlantirish mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, robot simulyatorlar, virtual bemorlar va sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishdagi afzalliklar va muammolar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, simulyatsion o'qitishni samarali tatbiq etish uchun huquqiy asoslarni kuchaytirish, bioetik tamoyillarga rioya qilish va xalqaro standartlarga moslash zarurligi ta'kidlanadi. **Kalit so'zlar:** Simulyatsion o'qitish, tibbiy ta'lim, huquqiy muammolar, etik tamoyillar, robot simulyator, sun'iy intellekt, virtual bemor, xalqaro standart.

**Mavzuning Dolzarbligi:** Tibbiyot ta'limi – bu nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Talaba yoki yosh shifokor real bemor bilan ishlashdan oldin xavfsiz muhitda tajriba orttirishi kerak. Shu nuqtai nazardan simulyatsion ta'lim juda muhim.

Dunyo miqyosida:

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda har bir tibbiyot universitetida zamonaviy simulyatsion markazlar mavjud;

Simulyatsiya orqali jarrohlik operatsiyalari, reanimatsiya, shoshilinch yordam ko'rsatish kabi ko'plab murakkab jarayonlar mashq qilinadi;

Bu tajribalar bemor xavfsizligini ta'minlab, kelajak shifokorlarini yuqori darajada tayyorlaydi.

O'zbekistonda esa simulyatsion o'qitish endigina kengaymoqda. Ba'zi oliygohlarda zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilgan, ammo ularning faoliyatini tartibga soluvchi yagona huquqiy baza va etik qoidalar hali mukammal ishlab chiqilmagan. Shu bois bu masalani chuqur o'rganish va ilmiy jihatdan asoslash dolzarbdir.

**Tadqiqot Maqsadi:** Ushbu maqolaning maqsadi: simulyatsion o'qitish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy va etik muammolarni aniqlash;

Xalqaro tajribani o'rganib, O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqish;

Huquqiy asoslarni kuchaytirish va etik tamoyillarni aniq belgilash zarurligini ko'rsatib berish.

Yana bir maqsad – simulyatsion o'qitishning afzalliklarini ko'rsatish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan real takliflarni ilgari surish.

**Tadqiqot Materiali:** Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hamda Butunjahon tibbiy ta'lim federatsiyasi (WFME)ning global standartlari.
2. Yevropa va Osiyodagi yetakchi simulyatsion markazlarning tajribalari.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining so'nggi yillardagi buyruq va me'yoriy hujjatlari.
4. Sun'iy intellekt asosidagi simulyatsion texnologiyalar haqida ilmiy maqolalar va xalqaro konferensiya materiallari.
5. Amaliy kuzatishlar – mahalliy tibbiyot oliygohlaridagi simulyatsion markazlar faoliyati.

**Tekshirish Usullari:** Huquqiy tahlil – milliy va xalqaro qonunchilikni o'rganish, ular orasidagi farqlarni ko'rsatish.

Qiyosiy tahlil – O'zbekiston tajribasini rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirish.

Ekspert suhbatlari – o'qituvchilar, shifokorlar va talabalar bilan suhbat orqali mavjud muammolarni aniqlash.

Etik tahlil – bioetika tamoyillari asosida simulyatsion jarayonlardagi axloqiy muammolarni ko'rib chiqish.

Kuzatish usuli – simulyatsion markazlarda olib borilgan mashg'ulotlarni kuzatish orqali xulosalar chiqarish.

**Natijalar Va Ularni Muhokamasi:** Tadqiqot davomida bir nechta muhim natijalar olindi:

1. Huquqiy masalalar

O'zbekistonda simulyatsion o'qitish bo'yicha yagona qonuniy asos mavjud emas. Har bir oliygo'z imkoniyati darajasida ishlamoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda esa simulyatsion o'qitish davlat darajasida tartibga solingan, sertifikatlash va akkreditatsiya tizimlari ishlab chiqilgan.

Bizda ham kelajakda “Simulyatsion ta'lim standarti”ni ishlab chiqish muhim.

2. Etik masalalar



Robot simulyatorlar yordamida talabalar amaliy ko‘nikma orttiradi, ammo ba‘zan ularni jiddiy qabul qilmaslik holatlari kuzatiladi. Bu ta‘lim samaradorligiga ta‘sir qiladi.

Sun‘iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan dasturlar ayrim hollarda noto‘g‘ri natija berishi mumkin. Bunday paytda qaror qabul qilishda o‘qituvchining nazorati muhim.

Murakkab stsenariylar (o‘lim, og‘ir jarohat) talabalar psixologiyasiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu bois ularni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerak.

Etik jihatdan eng muhim masala – teng imkoniyatlar. Har bir talaba simulyatsion o‘qitishdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart.

### 3. Muhokama

Simulyatsion ta‘limning afzalliklari juda ko‘p: xavfsizlik, samaradorlik, real hayotga yaqinlik. Lekin huquqiy va etik asoslar mustahkam bo‘lmasa, bu usul to‘liq natija bermaydi. Shuning uchun xalqaro tajribalarni o‘rganib, ularni milliy sharoitga moslashtirish zarur.

**Xulosa:** Simulyatsion ta‘lim – tibbiyotda zamonaviy, samarali va xavfsiz usullardan biridir.

Lekin uni keng

joriy etish uchun quyidagilar talab etiladi:

huquqiy asoslarni yaratish va takomillashtirish;

xalqaro standartlarni joriy etish;

etik tamoyillarga qat‘iy rioya qilish;

talabalar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash.

Kelajakda bu yo‘nalish O‘zbekistonda tibbiy ta‘lim sifatini oshirish, bemor xavfsizligini ta‘minlash va malakali shifokorlarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

## TIBBIYOTDA TERMODINAMIKA QONUNLARI: INSON ORGANIZMI JARAYONLARINING BIOFIZIK ASOSLARI VA RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**PhD doktoranti, E.A. Alimova (Namangan davlat texnika universiteti), Biofizika, informatika  
va tibbiy texnologiyalar kafedrasini assistenti (Andijon davlat tibbiyot instituti)**

**Adashboyev M.A.**

**Andijon davlat tibbiyot instituti Davolash fakulteti 210-guruh talabasi**

**Annotatsiya :** Ushbu ilmiy tezis tibbiyotda termodinamika qonunlarini inson organizmidagi fiziologik jarayonlarni o‘rgatishda o‘rganadi. Termodinamika nazariyalari, jumladan energiyaning saqlanishi, entropiya o‘zgarishlari va biologik tizimlarda issiqlik muvozanati biophysical asos sifatida ko‘rib chiqiladi. Raqamli ta‘lim texnologiyalari — xususan, AR/VR, multimodal interaktiv simulyatsiyalar va online platformalardan foydalangan holda, bu kontseptsiyalarni talabalarga samarali va intuitiv tarzda yetkazish metodikasi taklif etiladi. Tahlillar natijasida AR/VR rivojlangan tajriba muhitlarida termodinamika tushunchalarining talabalarda yanada chuqurroq anglanishini ta‘kidlovchi tadqiqotlar mavjudligi aniqlanadi. Bu yondashuv tibbiyot ta‘limida ham muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin.

**Kirish.** Tibbiyot ta‘limida biofizik jarayonlarni chuqur tushunish — bemorlar fiziologiyasini aniq bashorat qilish, diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Termodinamika qonunlari — energiya almashinuvi, issiqlik tarqalishi, va entropiya o‘zgarishlari — biofizika asoslarini tashkil qilib, tibbiyotda muhim tushunchalarni ifodalaydi. Biroq bu nazariy kontseptsiyalar ko‘p vaxtlar talabalar uchun abstrakt va noaniq bo‘lib qoladi. Shu bois, raqamli ta‘lim resurslarini joriy qilish ushbu masalani yengillaydi.

**Maqsad va vazifalar.** Termodinamikaning eng muhim qonunlarini biofizik kontekstda talqin etish.

Raqamli ta‘lim vositalarining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish.

AR/VR, interaktiv simulyatsiyalar, va online platformalar orqali kontseptsiyalarni vizual va interaktiv tarzda yetkazish metodikasini model qilish.



O‘qitish samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Literatura tahlili, ta’lim metodikalarini solishtirish, interaktiv texnologiyalarga asoslangan dars modullarini ishlab chiqish va pilot sinovlarni o‘tkazish metodologiyasi qo‘llaniladi.

Termodinamikaning biofizik asoslari. Birinchi qonun (Energiyaning saqlanish qonuni) va organizmdagi metabolik jarayonlarga bog‘liqligi Termodinamikaning birinchi qonuni – energiyaning saqlanish qonuni – biologik tizimlarda energiya yo‘qolmaydi va o‘zaro bir shakldan boshqasiga o‘tadi degan tamoyilga asoslanadi. Inson organizmida bu qonun metabolik jarayonlar orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, oziq-ovqat moddalari organizmga kirgach, ular kimyoviy parchalanish (katabolizm) orqali adenozin trifosfat (ATP) energiya molekulasiga aylantiriladi. Bu ATP esa hujayra ichidagi turli jarayonlarga – mushak qisqarishi, asab impulslarini uzatish, modda almashinuvi va hujayra regeneratsiyasiga sarflanadi.

Energiya bu yerda **issiqlik, mexanik ish, va kimyoviy ish** shakllarida ifodalanadi. Har bir energetik faoliyat o‘zining termodinamik xarakteristikasiga ega. Masalan, jismoniy faollik vaqtida mushak hujayralarida ko‘proq ATP sarflanadi va energiya ajralib chiqadi. Bu energiyaning bir qismi haroratni oshiradi, qolgan qismi ishga sarflanadi. Bu jarayon **energiya balansining saqlanishi** qonuniga muvofiq sodir bo‘ladi.

Ikkinchi qonun (Entropiya qonuni) va biologik tizimlarning tartiblilik

Ikkinchi termodinamika qonuni entropiya – ya’ni tizimdagi tartibsizlik darajasi – har qanday yopiq tizimda oshib borishini bildiradi. Inson organizmi esa doimiy energiya almashinuvi va tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishi tufayli ochiq tizim hisoblanadi. Shu sababli, organizm ichidagi **homeostaz** holati – ya’ni muvozanatli ichki muhit – entropiya oshishiga qarshi kurashni ta’minlaydi. Masalan, tana harorati atrof-muhitdan mustaqil ravishda deyarli doimiy saqlanadi (36.5–37°C). Atrof harorati pasayganda organizm **issiqlik ishlab chiqarish** (termogenez) orqali bu muvozanatni saqlab qoladi, ya’ni entropiya oshishining oldi olinadi. Shu bilan birga, **nafas olish, ovqat hazmi, va modda almashinuvi** jarayonlari orqali energiya almashinuvining samaradorligi tartiblilikni (entropiyaga qarama-qarshi) saqlaydi.

Organizm bu qonunga qarshi “kurashayotgandek” ko‘rinsa-da, aslida **yuqori tartibli holatni saqlash uchun doimiy energiya sarflaydi**, ya’ni entropiya qonuniga bo‘ysunadi.

Termodinamik model va tibbiyotdagi amaliy qo‘llanilishi. Termodinamik qonunlarning inson fiziologiyasiga integratsiyasi tibbiy fanlarda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida, issiqlik tarqalishi jarayonini olaylik. Issiqlik tananing turli qismlarida har xil darajada bo‘lishi mumkin – bu holatlarni termografik tasvirlash orqali aniqlash, ya’ni maxsus sensorlar yoki infraqizil kameralar yordamida tana yuzasida issiqlikni vizuallashtirish mumkin.

Bunday yondashuvlar nafaqat diagnostikada (masalan, yallig‘lanish o‘choqlarini aniqlashda), balki **ta’lim jarayonida ham interaktiv vizual vosita** sifatida foydalidir. AR/VR texnologiyalari yordamida talabalar **hujayra darajasida issiqlik tarqalishi, energiya aylanishi va metabolik zanjirlarni** 3D vizual formatda ko‘rib, ularni chuqurroq anglay oladi.

Biologik tizimlar, o‘z tabiati bilan, **noxatolik va murakkablik** bilan ajralib turadi. Termodinamika esa ushbu murakkablikka **fizik-cheklovli va modelga asoslangan** yondashuvni taklif etadi. Biologik tizimlarda energiya uzatilishi, aylanishi va sarflanishi qat’iy nazariy qonunlar asosida kechadi.

Masalan, yurak faoliyati vaqtida qon oqimining kinetik energiyasi, bosim va issiqlik energiyasi muvozanatdagi holatda saqlanishi kerak. Shu asosda **gemodinamika** modellarini termodinamika qonunlari asosida qurish mumkin. Shuningdek, **nafas olish jarayoni** – kislorod va karbonat angidrid almashinuvi – ham bosim gradientlari va energiya sarfi asosida yuz beradi.

Bunday tahlillar biofizika fanida juda muhim bo‘lib, **kasalliklarning patofiziologiyasini tushunish, energiya yetishmovchiligi bilan bog‘liq holatlarni** aniqlashda yordam beradi.

**Raqamli ta’lim texnologiyalarining pedagogik afzalliklari.** AR/VR ilovalari tibbiy talabalarga inson tanasidagi issiqlik tarqalishini visual tarzda ko‘rsatishda muhim: HoloLens yordamida real vaqt rejimida ob’ekt termografiyasini tasvirlash orqali nazariy tushunchani amaliyot bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. AI va o‘quv analytics orqali o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish



va talaba zo‘riqishini aniqlash mumkin. 3D modellashtirish — 3D modellarga asoslangan o‘quv jarayoni talabalarga tuzilma va dinamika bo‘yicha aniq tasavvur beradi

### 3.3. O‘quv modullarini kiritish va strukturasi

Modul	Tarkibi	Metod
Interaktiv simulyatsiya	Termodinamik kontseptsiyalar (energiya, entropiya)	AR/VR, holo.lab muhit
Video/3D vizualizatsiyalar	Termal jarayonlar grafikasi	Animatsiya, 3D model
AI yordamida test	Talaba yutuqlari chuqur tahlil	Raqamli platforma, analytics
Talabalar ishtirokidagi mashqlar	Amaliy masalalar yechish	Gruppa ishlari, virtual lab

**Metodik tadqiqot va baholash.** Pilot modullarni sinovdan o‘tkazish AR/VR muhitida ning termodinamika tushunchalarini anglash darajasiga ta‘sirini o‘rganish — bu yerda termo-kontsept testlari natijalari foydali bo‘ladi. Bundan tashqari, raqamli platformalar orqali avval va keyin testlar taqqoslanadi.

**Xulosa.** Bu tezis tibbiy ta‘limda termodinamika qonunlarini biofizik kontekstda chuqurroq tushunishga va talabalarda interaktiv o‘qitish metodlarini joriy etish orqali bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. AR/VR kabi vositalar nazariy tushunchalarni aniqroq ko‘rsatishda, AI esa o‘quv jarayonini personalizatsiya qilishda samarali ekanligi ko‘rsatildi.

## TIBBIY TA‘LIMDA RENTGEN NURLARINING BIOFIZIK ASOSLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**PhD doktoranti, E.A.Alimova (Namangan davlat texnika universiteti), Biofizika, informatika va tibbiy texnologiyalar kafedrasini assistenti (Andijon davlat tibbiyot instituti)**  
**Sultonova Z. A.**

**Andijon davlat tibbiyot instituti Davolash fakulteti 210-guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiy ta‘lim jarayonida rentgen nurlarining biofizik asoslarini o‘qitish masalasini raqamli transformatsiya sharoitida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladigan rentgen diagnostikasining nazariy va amaliy jihatlari, uning fizik asoslari hamda klinik ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, biofizika fanini o‘qitishda raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari — virtual laboratoriyalar, 3D simulyatsiyalar, interaktiv taqdimotlar va multimedia platformalari orqali talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish usullari tahlil qilinadi. Olingan natijalar tibbiy ta‘limda murakkab fizik jarayonlarni osonlashtirib tushuntirish, talabalarda mustaqil tahliliy fikrlashni shakllantirish va klinik amaliyotga tayyorgarlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Rentgen nurlari, biofizika, tibbiy ta‘lim, raqamli transformatsiya, o‘qitish metodikasi, virtual laboratoriyalar, interaktiv texnologiyalar, multimedia vositalari, klinik diagnostika, innovatsion pedagogika.

**Kirish.** Bugungi kunda tibbiy ta‘lim jarayonida murakkab fizik qonuniyatlarni o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash muhim o‘rin egallamoqda. Shulardan biri — rentgen nurlarining biofizik asoslarini o‘qitishdir. Rentgen nurlari tibbiyotda keng qo‘llaniladigan diagnostik vositalardan biri bo‘lib, kasalliklarni erta aniqlash, davolash jarayonlarini monitoring qilish va jarrohlik amaliyotlarini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, rentgen nurlarining fizik tabiatini, organizmga ta‘sir mexanizmlarini va klinik diagnostikadagi qo‘llanilishini tibbiy oliy ta‘lim muassasalari talabalari chuqur o‘rganishi zarur. Raqamli transformatsiya davrida biofizika fanini o‘qitishda an‘anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish, multimedia taqdimotlar va interaktiv platformalar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa o‘quv jarayonini



yanada samarali va qiziqarli qilish, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv hamda klinik faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada tibbiy ta'limda rentgen nurlarining biofizik asoslarini o'qitishning ahamiyati tahlil qilinadi hamda raqamli transformatsiya sharoitida bu jarayonni takomillashtirishning metodik asoslari yoritiladi.

**Metodologiya.** Tadqiqotda tibbiy ta'limda rentgen nurlarining biofizik asoslarini o'qitish metodikasini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuv qo'llanildi. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

Rentgen nurlarining fizik tabiati: ularning elektromagnit spektrdagi diapazoni (0,01–10 nm), ionlashtiruvchi xususiyatlari, to'lqin uzunligi va energiyasi tahlil qilindi.

Tibbiyotdagi qo'llanishlari: radiografiya, kompyuter tomografiyasi (KT), fluoroskopiya va mamografiyaning ilmiy asoslari o'rganildi.

Xavfsizlik jihatlari: **ICRP** (International Commission on Radiological Protection) tavsiyalari asosida yillik doza chegaralari (20 mSv) va talabalarga radiatsiya xavfsizligi qoidalarini o'rgatish zaruriyati ko'rsatib o'tildi.

- **An'anaviy usullar:** ma'ruzalar, laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy topshiriqlar.
- **Innovatsion usullar:** raqamli ta'lim texnologiyalari (PhET simulyatsiyalari, 3D-modellar, interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar, Hemis va Google Classroom platformalari).
- Ta'lim jarayonini tashkil etishda **multimediya vositalari** (grafik tasvirlar, animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar) va **virtual simulyatsiyalar** asosida mashg'ulotlarni boyitish metodikasi ishlab chiqildi.

#### Tadqiqot dizayni va pedagogik tajriba

- Tadqiqot ob'ekti: **Andijon Davlat Tibbiyot Instituti** Davolash fakulteti 2-bosqichida o'qiyotgan 120 nafar talaba.
- Talabalar ikki guruhga ajratildi:

**Nazorat guruhi (NG, 60 talaba):** an'anaviy metodlar asosida ta'lim oldi.

**Eksperimental guruhi (EG, 60 talaba):** raqamli transformatsiya elementlari asosida ta'lim oldi.

- Mashg'ulotlar davomida quyidagilar qo'llanildi:

NG uchun – darsliklar, doska, laboratoriya jihozlari.

EG uchun – **virtual laboratoriya (Rentgen apparati simulyatsiyasi), 3D-modellar (suyak to'qimalarida rentgen nurlarining o'tishi), interaktiv testlar va keys-stadilar.**

#### Baholash mezonlari va vositalari

Talabalarining o'zlashtirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

**Nazariy bilim** – test sinovlari (30 ta savol).

**Amaliy ko'nikma** – laboratoriya topshiriqlarini bajarish natijalari.

**Mustaqil tahliliy fikrlash** – keys-stadi asosidagi vaziyatli masalalarni yechish.

**Klinik tayyorgarlik** – rentgen tasvirlarini tahlil qilish va klinik xulosaga kelish qobiliyati.

#### 1-jadval. Nazorat va Eksperimental guruh natijalari (%)

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (NG)	Eksperimental guruhi (EG)
Nazariy bilimlarni o'zlashtirish	68 %	89 %
Amaliy ko'nikmalar	61 %	86 %
Mustaqil tahliliy fikrlash	57 %	82 %
Klinik diagnostikaga tayyorgarlik	55 %	80 %
Dars jarayoniga qiziqish	63 %	91 %
Umumiy o'zlashtirish darajasi	60 %	85 %

**Statistik tahlil:** EG guruhining umumiy o'zlashtirish darajasi NG guruhiga qaraganda o'rtacha **25 % yuqori**. Test tahlili natijalar orasidagi farq **p<0.05** darajasida ishonchli ekanini ko'rsatdi. So'rovnom natijalariga ko'ra, EG talabalarining 78 % i virtual laboratoriyalar yordamida murakkab fizik jarayonlarni tushunishni oson deb baholagan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki:



**Nazariy jarayonlarni tushuntirish samaradorligi oshdi** – 3D-modellar yordamida elektromagnit spektrda rentgen nurlarining joylashuvi va biologik to‘qimalarga ta’siri talabalarga yanada tushunarli bo‘ldi.

**Amaliy xavfsizlik ta’minlandi** – virtual laboratoriyalar talabalarga real rentgen apparati bilan ishlashni xavfsiz sharoitda modellashtirish imkonini berdi.

**Motivatsiya kuchaydi** – EG talabalarining faol ishtiroki, dars jarayoniga qiziqishi va keys-stadi mashqlarida faolligi sezilarli darajada oshdi.

**Klinik tayyorgarlik mustahkamlandi** – talabalar raqamli simulyatsiyalar asosida rentgen tasvirlarini tahlil qilib, amaliy faoliyatga yaqinlashdi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya vositalarini qo‘llash biofizika fanida rentgen nurlarining nazariy va amaliy asoslarini samarali o‘rgatishga yordam berdi. Bu esa, o‘z navbatida, **tibbiy ta’lim sifatini oshirish** va talabalarni klinik faoliyatga puxta tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **tibbiy ta’limda rentgen nurlarining biofizik asoslarini o‘qitishda raqamli transformatsiya vositalarini qo‘llash** o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

**Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish** – virtual laboratoriyalar, 3D-modellar va interaktiv simulyatsiyalar yordamida murakkab fizik tushunchalar soddalashtirildi va talabalarining o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 21 % ga yuqori bo‘ldi.

**Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish** – rentgen apparati simulyatsiyalari va klinik keys-stadilar asosida talabalar amaliy mashg‘ulotlarga yaqin sharoitda bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada, EG talabalarida amaliy ko‘nikmalar 25 % ga yaxshilandi.

**Motivatsiya va faollik** – raqamli vositalar talabalarining dars jarayoniga qiziqishini oshirdi. EG talabalarining 91 % i mashg‘ulotlarda faol qatnashgan bo‘lsa, NG guruhida bu ko‘rsatkich 63 % ni tashkil etdi.

**Klinik tayyorgarlik** – rentgen tasvirlarini raqamli muhitda tahlil qilish orqali talabalar klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdi. Bu esa kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanish biofizika ta’limida rentgen nurlarining nazariy va amaliy qirralarini samarali o‘rgatish, talabalarda mustaqil tahliliy fikrlash, klinik amaliyotga tayyorgarlik va motivatsiyani oshirishda muhim omil hisoblanadi.

## KO‘ZNING QURUQLASHISHI: SABABLARI VA OLDINI OLISH USULLARI

**Ilmiy rahbar: Giyazova M. M  
Bobonazarov Bekzod**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko‘zning quruqlashishi muammosi, uning asosiy sabablari va oldini olish usullari tahlil qilinadi. Ko‘z qurishining sabablari orasida uzoq vaqt ekranga qarash, havoning quruqligi, kontakt linzalardan foydalanish, gormonal o‘zgarishlar va dorilarning ta’siri kabi omillar mavjud. Shuningdek, maqolada ko‘z quruqligini kamaytirish uchun ekrandan foydalanish tartibini o‘zgartirish, ko‘zni muntazam miltillatish, havoning namligini oshirish, sun’iy yosh tomchilaridan foydalanish va sog‘lom ovqatlanish kabi muhim choralar tavsiya etiladi. Ushbu tavsiyalar yordamida ko‘zning tabiiy namligini saqlash va noqulayliklarni oldini olish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** ko‘zning quruqlashishi, ko‘z salomatligi, sun’iy yosh, ekran ta’siri, havoning namligi, kontakt linzalar, miltillash, oftalmolog.

**Аннотация:** В этой статье анализируется проблема сухости глаз, ее основные причины и методы профилактики. Причины сухости глаз включают такие факторы, как длительный просмотр экрана, сухость воздуха, использование контактных линз, гормональные изменения и действие лекарств. В статье также рекомендуются важные меры для уменьшения сухости глаз, такие как изменение режима использования экрана, регулярное моргание глаз, повышение влажности воздуха, использование искусственных слезных капель и здоровое



питание. С помощью этих рекомендаций можно поддерживать естественную влажность глаз и предотвращать дискомфорт.

**Ключевые слова:** сухость глаз, здоровье глаз, искусственные слезы, эффект экрана, влажность воздуха, контактные линзы, моргание, офтальмолог.

**Abstract :** This article analyzes the problem of dry eyes, its main causes and methods of prevention. The causes of dry eyes include factors such as prolonged screen viewing, dry air, contact lens use, hormonal changes, and the effects of medications. The article also recommends important measures to reduce dry eyes, such as changing the screen usage mode, blinking your eyes regularly, increasing air humidity, using artificial tear drops, and eating a healthy diet. With these recommendations, you can maintain natural eye moisture and prevent discomfort.

**Keywords:** dry eyes, eye health, artificial tears, screen effect, humidity, contact lenses, blinking, ophthalmologist.

**Kirish:** Quruq ko'z kasalligi - bu ko'zning surunkali disfunktsiyasiga olib keladigan, ko'zning tartibga solinmagan yallig'lanishining ayanchli tsiklidan kelib chiqqan multifaktorial kasallik [1]. Bsh tarqalishi butun dunyo bo'ylab barcha yosh guruhlarida orasida o'sib bormoqda, bolalar va o'smirlar orasida o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan. Raqamli inqilobning paydo bo'lishi va video displeylarga (va suyuq kristall uskunalarning boshqa turlariga) qaramlikning kuchayishi bsh xavfini yanada oshiradi [2]. Oldindan mavjud bo'lgan kasallikka chalingan bemorlar surunkali klinik kursi tufayli azoblanishda davom etishsa-da, vaqt o'tishi bilan yangi holatlarning qo'shilishi kasallikning umumiy yukini oshiradi. Surunkali va progressiv bsh natijasida yuzaga keladigan ko'z yuzasi kasalligining so'nggi bosqichi davolash juda qiyin va jiddiy moliyaviy oqibatlariga olib keladi [3]. Ko'z patologiyasini keltirib chiqarishdan tashqari, kasallik odatda hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy tizimli otoimmün patologiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bemorlar, shuningdek, surunkali buyrak kasalligi va og'ir angina kabi jiddiy zaiflashtiruvchi kasalliklarda ko'rish bilan taqqoslanadigan hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy harakatlarning cheklanishi, og'riq va umumiy farovonlikning yomonligini boshdan kechirishadi [4]. Bundan tashqari, tashvish, depressiya va uyqu buzilishi bilan ham bog'liq bo'lib, undan aziyat chekayotgan odamga katta iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davom etayotgan epidemiologik o'tish sharoitida kasalliklar tarkibida yuqumli kasalliklardan, masalan, infeksiyalardan yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklarning ustunligiga o'tish kuzatiladi. Yaqinda o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kelgusi yillarda yillik bsh kasalligi va tarqalishi sezilarli darajada o'sishda davom etadi [5].

Quruq ko'z sindromi eng keng tarqalgan oftalmik kasalliklardan biridir. Ushbu holatning rasmiy tibbiy nomi keratokonjunktivit sicca bo'lib, lotincha "keratoconjunctivitis" dan tarjima qilingan bo'lib, "shox parda va kon'yunktivaning quruqligi (yallig'lanishi)" degan ma'noni anglatadi.

Quruq ko'zlar yoki ilmiy jihatdan "quruq kon'yunktivit" - bu ko'zning etarli darajada namlanmaganligi sababli rivojlanadigan patologik belgilar majmuasi. Ushbu holatning sabablari ko'z yoshi ishlab chiqarishning pasayishi yoki ko'z yoshi suyuqligining juda tez bug'lanishi.

**Quruq ko'z sindromining belgilari:** Mumkin bo'lgan "quruq ko'z" sindromining belgilari ikkala ko'zda bir vaqtning o'zida rivojlanadi. Bemorlar shikoyat qiladigan eng keng tarqalgan alomatlar namlik kam bo'lgan xonada uzoq vaqt turgandan keyin yoki kompyuterda ishlagandan va gadjetlardan foydalangandan keyin quruq va qichiydigan ko'zlardir. Ushbu belgilar asosiy diagnostika mezonlari hisoblanadi. Bundan tashqari, SSG bilan og'riq odamlarni bezovta qilishi mumkin:

- shox pardaning qurishi va ko'zning qichishi hissi
- yonish hissi va "ko'zlardagi qum"
- kompyuterda uzoq vaqt ishlagandan so'ng miltillash paytida ko'z qovoqlarining qarshiligini oshirish
- ko'zning oqsil qoplaminig qizarishi
- fotofobi va lakrimatsiyaning kuchayishi
- ko'z qovoqlarining charchashi, shishishi va qizarishi
- ko'z qovoqlari orqasida begona jism hissi



- loyqa ko'rish, ob'ektlarga e'tibor qaratish uchun zarur bo'lgan vaqtni ko'paytirish
- quruq ko'z sindromi
- Nima uchun quruq ko'z sindromi paydo bo'ladi

### **Oddiy holatda ko'z yuzasi uchta qatlamdan iborat plyonka bilan qoplangan:**

Kornea va kon'yunktiva yuzasida joylashgan oqsil yoki Musin qatlami. Uning asosiy vazifasi ko'z olmasining silliqiligini to'liq his qilish uchun stratum corneumning notekisligini yumshatishdir. Musin, shuningdek, shox pardada ko'z yoshi plyonkasini ushlab turish uchun muhit yaratadi.

Suv qatlami yoki lakrimal suyuqlik. Uning vazifasi ko'zni begona mikroorganizmlar va begona jismlarning kirib kelishidan himoya qilish, shuningdek shox pardani kislorod bilan boyitish va oziqlantirishdir.

Lipid qatlami. Ko'zni ko'z yoshi suyuqligining haddan tashqari bug'lanishidan, shuningdek turli xil havo tomchilari infektsiyalaridan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kompleksdagi uchta qatlam ham ko'z olmasining normal namligini saqlaydi. Agar biron sababga ko'ra kamida bitta qatlam o'z funksiyalarini etarli darajada bajarish qobiliyatini yo'qotsa, quruq kon'yunktivit deb ataladigan holat paydo bo'ladi.

### **Quruq ko'z rivojlanishining sabablari**

Mutaxassislar SSG sabablarining ikkita asosiy guruhini aniqlaydilar:

1. Shox parda yuzasidan ko'z yoshi plyonkasining bug'lanish tezligiga ta'sir qiluvchi tashqi sabablar.
2. Suv qatlami yoki lakrimal suyuqlik. Uning vazifasi ko'zni begona mikroorganizmlar va begona jismlarning kirib kelishidan himoya qilish, shuningdek shox pardani kislorod bilan boyitish va oziqlantirishdir.
3. Ichki sabablar, buning natijasida namlovchi suyuqlik sekretsiyasi etarli emas.

Tashqi sabablarga gadgetlar va monitor ekranlari orqasida uzoq vaqt ishlash kiradi. Ko'z yoshi suyuqligining tez bug'lanish mexanizmi insonning fiziologik xususiyati bo'lib, unda aqliy faoliyat paytida miltillovchi harakatlar chastotasining pasayishi kuzatiladi. Shunday qilib, lipid qatlami mavjudligiga qaramay, ko'z yoshining bug'lanishi tezroq sodir bo'ladi va shifokorlar kompyuter ko'rish sindromi deb ataydigan holat yuzaga keladi.

Quruq ko'zlarni qo'zg'atadigan boshqa tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- kontakt linzalarini noto'g'ri kiyish (to'g'ri gigiena yo'qligi, almashtirish vaqtiga rioya qilmaslik)
- ishlaydigan konditsionerlar va isitgichlar tomonidan ishlab chiqarilgan quruq havo
- tutun va ifloslangan havo sharoitida tez-tez turish.

Ichki sabablar orasida turli xil kasalliklar (endokrin, revmatik, otoimmun va allergik), suyuqlikni cheklangan iste'mol qilish, ba'zi dorilarni uzoq muddat iste'mol qilish, shuningdek lakrimal bezlar kanallarining tiqilib qolishi mavjud.

Quruq kon'yunktivit operatsiyadan keyin o'zini namoyon qilishi mumkin: masalan, ko'rishni lazer bilan tuzatish yoki blefaroplastikadan keyin. Bunday holatlar normal deb hisoblanadi, maxsus davolanishni talab qilmaydi va reabilitatsiya davridan keyin o'z-o'zidan o'tib ketadi.

### **Oqibatlari va asoratlari**

Quruq ko'z sindromi alomatlarini boshdan kechirayotgan bemorlar engil noqulayliklar haqida shikoyat qilishlari mumkin. Qoida tariqasida, bunday odamlarda tashqi omillar bilan bog'liq quruq kon'yunktivit mavjud. Shunday qilib, o'z vaqtida tashxis qo'yish va profilaktika choralarini tayinlash noxush alomatlarni engishga yordam beradi.

Biroq, vaqt o'tishi bilan ushbu kasallikning namoyon bo'lishi rivojlanish tendentsiyasiga ega. Shunday qilib, kichik noqulaylik asabiylashish va ishlashning pasayishiga olib kelishi mumkin va keyinchalik eng jiddiy patologiyalardan biriga aylanishi mumkin:

- shox pardaning shikastlanishi yoki eroziyasi (ko'z qovoqlarining namligining pasayishi va ishqalanishining kuchayishi tufayli)
- ko'z qovoqlarining himoya qatlamining ingichkalashi tufayli infektsiyani kiritish
- ko'rishning qisman yoki to'liq yo'qolishi.

Kasallikning diagnostikasi



Ko'zning ichki qismini tekshirish uchun bemorga ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun ko'z tomchilarini tomizish kerak bo'ladi. Shundan so'ng, ko'rish ravshanligining pasayishi kuzatiladi, bu 3-6 soatdan keyin o'z-o'zidan yo'qoladi. Jarayondan keyin quyoshdan saqlaydigan ko'zoynak taqish va ko'z bilan dam olish tavsiya etiladi.

Diagnostika jarayonida, agar ko'rsatmalar mavjud bo'lsa, shifokor bir vaqtning o'zida ko'z qovoqlarini massaj qilishi va lakrimal kanallarni yuvishi mumkin, bu esa lakrimatsiyani yo'q qilishga yordam beradi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra bemorga tayinlash bilan xulosa varaqasi beriladi. Quruq ko'z sindromini o'z-o'zini tashxislash va davolash qaytarilmas asoratlar xavfi va ko'rishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa jiddiy ko'z patologiyalarining klinik ko'rinishini moylash xavfi tufayli qabul qilinishi mumkin emas.

### **Quruq ko'zlarni davolash usullari**

Tashxisni tasdiqlashda bemorga ko'z qovoqlari gigienasi, ko'zlarni antiseptik eritma bilan yuvish va quruq ko'z tomchilarini buyurishdan iborat davolash tavsiya etiladi. Agar ko'rish organining qo'shma kasalliklari mavjud bo'lsa, shifokor qo'shimcha terapiyani tavsiya qiladi.

Quruq ko'zlarni davolashning muhim nuqtasi-bu ish va turar-joy binolarida mikroiklimni yaxshilash, kontakt linzalarini gigienik kiyish, monitor yoki displeyda sarflangan ish vaqti va dam olish o'rtasidagi muvozanatni nazorat qilish, shuningdek, SSGni keltirib chiqaradigan ichki sabablarning oldini olish choralari rioya qilishdir.

### **Profilaktika darajasi va natijalari**

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning eng yaxshi jihatlaridan biri bu kasalliklarning oldini olishga qaratilgan e'tibordir. Biz klinisyenlar ko'rsatilgan kasallikni davolashda muvaffaqiyat qozonishni maqsad qilgan bo'lsak-da, uning paydo bo'lishi va rivojlanishining oldini olishda teng darajada oldinga siljish zarurati mavjud. Ushbu maqsadga erishish uchun chora-tadbirlar turli darajadagi profilaktikaga yo'naltirilishi kerak[6]. Boshqa har qanday kasallik singari, profilaktika strategiyalarini quyidagi besh darajaga bo'lish mumkin:

- \* Dastlabki profilaktika;
- \* Birlamchi profilaktika;
- \* Ikkilamchi profilaktika;
- \* Uchinchi darajali profilaktika;
- \* To'rtlamchi profilaktika. Birlamchi profilaktika

Ushbu profilaktika darajasi bsh xavfini oshirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayot modellarining paydo bo'lishi va o'rnatilishining oldini oladigan choralarni o'z ichiga oladi [6]. Shunday qilib, birlamchi profilaktika uchun biz xavf omillari paydo bo'lishining oldini olish uchun umumiy aholiga e'tibor qaratishimiz kerak.

Quruq ko'z kasalligining oldini olish darajasi: ushbu rasmda sog'liqni saqlashning turli darajalarida profilaktika strategiyalari tasvirlangan piramida ko'rsatilgan (Chapdagi o'qlar) va maqsadli aholi (o'ngdagi o'qlar)

Birlamchi profilaktika strategiyalari, epidemiologik tadqiqotlar. Epidemiologik tadqiqotlar bsh rivojlanishining turli xavf omillarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Sababchi omillar ta'siriga olib kelishi mumkin bo'lgan asosiy sharoitlarni aniqlash kurashish uchun uzoq yo'lni bosib o'tishi mumkin.

Ushbu kasallik bilan asosiy darajada. Ko'plab epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yoshi, jinsi, yashash joyi, urbanizatsiya, kasb va ijtimoiy-iqtisodiy holat bsh rivojlanishi uchun muhim xavf omillari hisoblanadi[7].

Urbanizatsiya va raqamlashtirishning kuchayishi bilan, atrof-muhitning dinamik o'zgaruvchan ta'siri bilan bir qatorda, kelgusi yillarda bsh holatlarining ko'payishini kutishimiz mumkin. Shunday qilib, epidemiologik tadqiqotlar sog'liqni saqlash muassasalariga ushbu rivojlanayotgan kasallikka qarshi kurashish uchun keng qamrovli sog'liqni saqlash choralarni ishlab chiqish siyosatini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

### **Turmush tarzini o'zgartirish**



Monitorlardan tez-tez foydalanish, kamharakat turmush tarzi va a vitamini, D vitamini yoki Omega-3 yog ' kislotalari etishmaydigan parhez kabi turmush tarzidagi o'zgarishlar Quruq ko'z kasalligi hissa qo'shishi mumkin [8]. A vitamini etishmovchiligi, oldini olish mumkinligiga qaramay, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar orasida Quruq ko'z kasalligini keltirib chiqarishda davom etmoqda [9]. A vitamini etishmovchiligidagi quruqlik lakrimal tizimning etishmasligi yoki glikoliksnining o'zgarishi va qadah hujayralari sonining kamayishi natijasida yuzaga keladigan yomon namlanish tufayli yuzaga keladi [10].

## SIMULYATSIYA USULLARI ORQALI KLINIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Ibragimov R. A.

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

“Jarroxlik kasalliklari va fuqaro muhofazasi” kafedrasasi assistenti.

O‘zbekiston Respublikasi. Andijon shaxri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiy ta'lim jarayonida simulyatsiya usullaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari hamda ularning klinik fikrlashni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Simulyatsiya texnologiyalarining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, talabalarda klinik tafakkurni rivojlantirish uslub va usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy ta'lim amaliyotida simulyatsion yondashuvlarni tatbiq etish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada klinik fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari, ta'lim samaradorligini oshirish omillari hamda tibbiyot ta'limida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** simulyatsiya, klinik fikrlash, tibbiy ta'lim, vaziyat, innovatsion texnologiyalar, o'quv jarayoni, kompetentsiya.

**Kirish:** XXI asrda tibbiyot ta'limi an'anaviy yondashuvlardan interaktiv va innovatsion usullarga keskin o'tayotgani kuzatilmoqda. Zamonaviy sharoitda klinik fikrlashni shakllantirish tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifasidir. Bunda simulyatsion texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Chunki klinik tafakkur — bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikma va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Simulyatsiya usullari talabalarga xatolardan xoli o'rganish imkonini berib, real klinik vaziyatlarga tayyorlaydi. Shuning uchun, bugungi kunda dunyo bo'yicha “simulyatsion tibbiy ta'lim” atamasi tobora keng qo'llanilmoqda.

### 1. Simulyatsiyaning tushunchasi va mohiyati

Simulyatsiya (lotincha simulatio – “o'xshatish”, “taqlid qilish”) — bu real hayotdagi jarayon, favqulodda vaziyatlardagi turli hodisalar yoki klinik vaziyatni ta'lim va amaliyot jarayonida sun'iy tarzda qayta yaratish, modellashtirish usulidir. U tibbiyotda klinik muhitni imitatsiya qilish orqali o'quvchilarni diagnostika, tibbiy yordam ko'rsatish, davolash va muomala ko'nikmalariga o'rgatadi. Tibbiy ta'limda simulyatsiya – bu talabalarga xavfsiz muhitda, bemorga zarar yetkazmasdan, nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi pedagogik texnologiya hisoblanadi. Simulyatsiya jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **Ta'limiy vazifa** – nazariy bilimlarni mustahkamlash, klinik ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatadi.
- **Tarbiyaviy vazifa** – shifokorga xos mas'uliyat, bemorga nisbatdan ehtiyotkorlik xamda axloqiy yondashuvni shakllantiradi.
- **Amaliy vazifa** – real klinik holatlarni imitatsiya qilish orqali diagnostika, tibbiy yordam ko'rsatish va davolashda qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Simulyatsiya tibbiy ta'lim jarayonida ikki asosiy yo'nalishda qo'llaniladi:

1. **Ko'nikmalarni shakllantirish simulyatsiyasi** – anatomiya, fiziologiya, jarroxlik, terapiya va boshqa sohalarga oid aniq klinik amaliyotlarni mashq qilish uchun mo'ljallangan. Masalan, qon olish, reanimatsiya, jarroxlik operatsiyasi bosqichlarini o'rganish.
2. **Klinik vaziyatlarni modellashtirish** – real hayotga yaqinlashtirilgan murakkab klinik stsenariylar orqali talabalarni diagnostik tafakkur, tezkor qaror qabul qilish, jamoada ishlash ko'nikmalariga o'rgatish.



Simulyatsiyaning mohiyati shundaki, u ta'lim oluvchilarni nazariy bilimlardan amaliy faoliyatga o'tishda “**ko'prik**” vazifasini bajaradi. An'anaviy usullardan farqli ravishda, simulyatsion yondashuv talabning faolligiga asoslanadi, u o'zini mustaqil ravishda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, talaba sodir etgan “xatolar” real bemor hayoti uchun xavf tug'dirmagan holda sodir bo'lib, ulardan saboq olish imkoniyati bo'ladi.

Xalqaro miqyosda, tibbiy ta'limda simulyatsiya “xavfsiz amaliyot makoni” sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Amerika Tibbiy Ta'lim Assotsiatsiyasi (AAMC) hamda Yevropa Tibbiy Ta'lim Assotsiatsiyasi (AMEE) simulyatsiyani klinik kompetensiyalarni shakllantirishda zaruriy komponent deb belgilagan.

### Simulyatsiya texnologiyalarining turlari

- **Past darajali simulyatorlar:** anatomiya va fiziologiyani o'rganish uchun mo'ljallangan o'quv manekenlari.
- **O'rta darajali simulyatorlar:** muayyan klinik ko'nikmalarni mashq qilish uchun (in'yeksiya, kardiopulmonar reanimatsiya va b.).
- **Yuqori darajali simulyatorlar:** inson fiziologik reaksiyalarini modellashtira oluvchi zamonaviy elektron manekenlar.
- **Virtual simulyatsiya:** kompyuter dasturlari va Virtual reallik (VR) texnologiyalar orqali klinik holatlarni modellashtirish.

### Simulyatsiyaning afzalliklari

- Talabning faol ishtirokini ta'minlaydi.
- Xatolardan xoli ravishda tajriba orttirish imkonini beradi.
- Tezkor tahlil va refleksiya qilish imkoniyatini yaratadi.
- Klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni shakllantiradi.

## 2. Klinik fikrlash tushunchasi

Klinik fikrlash — bu shifokorning kasallikni (jaroxatni) aniqlash, kerakli hajmda tibbiy yordamni vaziyatga uygun turin ko'rsatish, davolash va profilaktika jarayonida diagnostik farazlar qo'yish, ularni solishtirish, tekshirish va yakuniy qaror qabul qilish qobiliyatidir. U oddiy bilim va malakalardan ko'ra kengroq bo'lib, shifokorning intellektual, psixologik va axloqiy imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

### Falsafiy asoslari

Klinik fikrlashning falsafiy mohiyati uning **dialektik tafakkurga** asoslanganligidadir. Shifokor klinik vaziyatni baholashda qarama-qarshi belgilarni tahlil qiladi, ularni sintez qiladi va umumiy xulosaga keladi. Bunda:

- **Tahlil va sintez** — kasallik belgilarini qism va bloklarga ajratib o'rganish va keyinchalik yagona klinik manzaraga birlashtirish.
- **Induktsiya va deduktsiya** — alohida belgilar asosida umumiy xulosa chiqarish va mavjud nazariy bilimlardan kelib chiqib konkret kasallik (shikastlanish) turini taxmin qilish.
- **Muqobil fikrlash** — bitta klinik holat uchun bir nechta ehtimoliy tashxis variantlarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, klinik fikrlash falsafiy jihatdan “haqiqatni izlash jarayoni”dir. U faqat bilimlarni qo'llash emas, balki ularni doim muntazam ravishda qayta tekshirish va yangilashdan iboratdir.

### Psixologik asoslari

Klinik fikrlash shaxsning psixologik xususiyatlariga ham bog'liq. U quyidagi jarayonlar orqali yuzaga chiqadi:

- **Idrok** – bemorning shikoyatlari, tashqi belgilar va laboratoriya taxlil natijalarini anglash va qabul qilish.
- **Xotira** – avvalgi bilimlar va klinik tajribani esga olish.
- **Diqqat** – muhim belgilarni ajratib ko'rish, ortiqcha ma'lumotlarni chetga surish.
- **Tasavvur** – klinik holatning ehtimoliy rivojlanishini modellashtirish.
- **Mantiqiy tafakkur** – diagnostik qaror qabul qilish uchun dalillarni solishtirish va baholash.

Psixologik nuqtai nazardan klinik fikrlash **kritik tafakkurni** ham talab qiladi. Bu — mavjud ma'lumotlarga shubha bilan qarash, ularni qayta tekshirish, dalillar asosida qaror qabul qilish



qobiliyatidir. Shu bois, klinik fikrlash shifokorning intellektual salohiyati bilan birga, uning hissiy barqarorligi, stressga chidamliligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog‘liq.

#### **Klinik fikrlashning ta’limiy ahamiyati**

- Talabani mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi.
- Nazariy bilimlarni real klinik vaziyat bilan bog‘lash imkonini beradi.
- Jamoaviy ishlash va bemor bilan samarali muloqot qilishni o‘rgatadi.
- Kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, klinik fikrlash — bu **ilmiy tafakkur, amaliy tajriba va shaxsiy psixologik xususiyatlarning sintezidir**. Uning shakllanishida simulyatsiya usullari alohida o‘rin tutadi, chunki ular real hayotiy vaziyatlarni xavfsiz sharoitda modellashtirish imkonini beradi.

#### **Klinik fikrlashni rivojlantirishda simulyatsiya imkoniyatlari**

- Real vaziyatlarga yaqinlashtirish orqali talabaning stressga chidamliligini oshiradi.
- Qaror qabul qilish jarayonida mulohazalarni tizimlashtirishga yordam beradi.
- Jamoada ishlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

#### **Talabalarda klinik tafakkurni shakllantirish bosqichlari:**

1. Klinik holatni tahlil qilish.
2. Diagnostik farazlar ishlab chiqish.
3. Farazlarni tekshirish uchun zarur laborator va instrumental tekshiruvlarni aniqlash, bajarish va natjalarini xisobga olib xulosa qilish.
4. Yakuniy qaror qabul qilish.
5. Davolash rejasini ishlab chiqish.

### **3. Jahon tajribasi**

So‘nggi 30 yil ichida tibbiy ta’lim tizimida simulyatsiya markazlari global miqyosda keng tarqaldi. Bugungi kunda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Skandinaviya mamlakatlari bu borada ilg‘or tajribaga ega.

- **AQSh:** Har bir yirik tibbiyot universitetida “Clinical Skills Center” faoliyat yuritadi. Masalan, Harvard Medical School va Mayo Clinic‘da talabalar klinik simulyatsion markazlarda minglab turli stsenariy asosida mashg‘ulotlar o‘taydi.
- **Germaniya:** Berlin va Myunxen universitetlari tibbiyot fakultetlarida klinik simulyatsiya imtihon shaklida ham qo‘llaniladi. Talabalar OSCE (Objective Structured Clinical Examination) jarayonida manekenlar, aktyorlar va virtual dasturlardan foydalanadi.
- **Yaponiya:** Tokio universitetida “haptic simulation” (sezgi asosida his qilish) texnologiyalari joriy etilgan. Masalan, jarrohlik operatsiyalarini virtual qo‘lqoplar orqali mashq qilish mumkin.
- **Janubiy Koreya:** Seul National University simulyatsion markazida talabalar nafaqat klinik ko‘nikmalarni, balki tibbiy ingliz tilida bemor bilan muloqot qilishni ham o‘rganadilar.
- **Skandinaviya mamlakatlari:** Norvegiya va Shvetsiyada tez yordam xizmatlari xodimlari real transport vositalari ichida jihozlangan mobil simulyatsiya markazlarida tayyorlanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiya nafaqat talabalarning klinik tafakkurini shakllantiradi, balki sog‘liqni saqlash tizimining umumiy xavfsizligini ham oshiradi.

#### **O‘zbekiston ta’lim tizimida simulyatsiya**

So‘nggi yillarda respublikamizda ham tibbiy ta’lim sifatini oshirish maqsadida simulyatsion markazlar faol tashkil etilmoqda.

- **Toshkent tibbiyot universitetida** 2021-yildan boshlab zamonaviy simulyatsiya markazi ishga tushirildi. Bu yerda talabalar CPR (kardiopulmonar reanimatsiya), in‘yeksiya, akusherlik yordam ko‘rsatish, jarrohlik tikuv qo‘yish kabi ko‘nikmalarni mashq qilmoqda.
- **Samarqand davlat tibbiyot universitetida** xalqaro hamkorlik asosida “Clinical Simulation Center” ochilgan bo‘lib, unda yuqori darajadagi elektron manekenlar mavjud. Talabalar favqulodda vaziyatlarda tezkor tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘rganadilar.
- **Buxoro va Andijon tibbiyot institutlarida** ham yangi simulyatsion auditoriyalar tashkil etilgan, u yerda talabalarga virtual bemor dasturlari yordamida klinik vaziyatlar taqdim etiladi.
- **Sog‘liqni saqlash vazirligining** 2022-yilda qabul qilingan metodik qo‘llanmasida barcha tibbiy OTMLarda bosqichma-bosqich simulyatsion o‘quv jarayonlarini kengaytirish belgilangan.



Bu jarayonlar O‘zbekiston tibbiyot ta’limini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

#### **Amaliy mashg‘ulotlarda simulyatsion yondashuv**

- Klinik stsenariy asosida mashg‘ulotlar.
- Favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko‘rsatish mashqlari.
- Virtual bemor dasturlari orqali masofaviy ta’lim.

Simulyatsiya usullarining samaradorligi ko‘p jihatdan **amaliy mashg‘ulotlarni qanday tashkil qilishga** bog‘liq. Bugungi kunda quyidagi shakllar keng qo‘llanilmoqda:

1. **Klinik stsenariy asosida mashg‘ulotlar** – talabalarga oldindan ishlab chiqilgan klinik vaziyat (masalan, jaroxatlanish va uning asoratlari) taqdim etiladi va ular bosqichma-bosqich diagnostika hamda davolashni bajaradilar.
2. **Favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam** – avtohalokat, yurak faoliyati to‘xtashi, anafilaktik shok kabi holatlar bo‘yicha maxsus treninglar.
3. **Virtual bemor dasturlari** – kompyuter orqali real bemor xatti-harakatlarini modellashtiruvchi dastur. Masalan, talabalar bemorning shikoyatlarini eshitib, unga savollar berishadi va natijada dastur tashxis qo‘yish jarayonini baholaydi.
4. **Standardized Patient (standartlashtirilgan bemor)** – klinik mashg‘ulotlarda aktyorlar bemor rolini ijro etadi. Bu usul bemor bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
5. **Interaktiv simulyatsiya** – VR (virtual reallik) ko‘zoynaklar va 3D modellar yordamida jarrohlik yoki reanimatsion muolajalarni xavfsiz sharoitda mashq qilish.

**Xulosa sifatida:** xalqaro tajribadan ko‘rinib turibdiki, simulyatsiya usullarining muvaffaqiyatli tatbiqi uchun texnik jihozlar bilan bir qatorda, **pedagogik yondashuv** ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalish endigina keng rivojlanayotgan bo‘lsa-da, mavjud markazlar talabalarda klinik fikrlashni shakllantirishda katta samara bermoqda.

#### **4. Moliyaviy va texnik ta’minot muammolari**

Simulyatsion texnologiyalar eng avvalo qimmat jihozlarni talab qiladi. Yuqori darajali elektron manekenlar, VR (virtual reallik) tizimlari va kompyuter dasturlari ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moddiy jihatdan qiyinchilik tug‘diradi.

- **O‘zbekistonda** ba’zi tibbiyot oliygohlari zamonaviy simulyatorlar bilan jihozlangan bo‘lsa-da, ularning soni talabalar oqimiga nisbatan yetarli emas. Masalan, 200 talaba bir vaqtning o‘zida mashg‘ulot o‘tsa, mavjud jihozlar barchaga birdek imkon bermaydi.

#### **Yechimlar:**

- Davlat byudjeti va xalqaro grantlardan maqsadli foydalanish.
- Xususiy sektor bilan hamkorlikda qo‘shma simulyatsion markazlar ochish.
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb qilib, nisbatan arzon simulyatorlar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish.

#### **Kadrlar salohiyatidagi cheklovlar**

Simulyatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun nafaqat texnika, balki uni boshqaradigan **malakali o‘qituvchi** zarur.

- Ko‘plab o‘qituvchilar an’anaviy dars berish uslubiga ko‘nikkan bo‘lib, interaktiv texnologiyalardan foydalanishda qiynaladilar.
- Xalqaro standartlarga mos keladigan “simulation educator” (simulyatsiya bo‘yicha trener) kadrlar yetarli emas.

#### **Yechimlar:**

- O‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Xalqaro hamkorlik asosida qisqa muddatli treninglar o‘tkazish (masalan, Germaniya yoki Koreya tajribasi).
- Har bir tibbiyot oliygochida “simulyatsiya metodikasi bo‘yicha kafedra” yoki ilmiy laboratoriya tashkil etish.

#### **O‘quv dasturlari va metodik yondashuvdagi muammolar**

Ko‘pincha simulyatsion mashg‘ulotlar o‘quv dasturlariga yetarli integratsiya qilinmagan bo‘ladi. Talabalarda nazariy bilimlar ko‘p bo‘lsa-da, amaliy vaziyatlarda ularni qo‘llashga imkon kam.



• Ba’zan simulyatsion mashg’ulotlar faqat “ko’rgazmali tajriba” sifatida o’tkaziladi, ammo ularning natijasi reytingda baholanmaydi. Bu esa talabada mas’uliyatni kamaytiradi.

**Yechimlar:**

- O’quv dasturlariga alohida **simulyatsion modullarni** qo’shish.
- OSCE kabi xalqaro baholash tizimlarini keng joriy etish.
- Talabaniy klinik tafakkurini baholovchi stsenariylar asosida yakuniy imtihonlarni tashkil etish.

**Madaniy-psixologik to’siqlar**

Ba’zi talabalarda aktyor-bemor bilan ishlash yoki kamera oldida mashg’ulot o’tkazish paytida psixologik noqulayliklar kuzatiladi. Shuningdek, ayrim o’qituvchilar ham yangicha uslubni qabul qilishda konservativ yondashadilar.

**Yechimlar:**

- Simulyatsiya mashg’ulotlarini dastlab kichik guruhlarda o’tkazish.
- Talabalarni “xatodan qo’rqmaslik” tamoyiliga o’rgatish.
- O’qituvchilarga psixologik-pedagogik treninglar o’tkazish.

**Milliy tajribaning cheklanganligi**

Simulyatsion tibbiy ta’lim hali ham O’zbekistonda nisbatan yangi yo’nalish hisoblanadi. Shu bois ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar va milliy metodik qo’llanmalar yetarli emas.

**Yechimlar:**

- OTMlarda simulyatsion ta’lim metodologiyasi bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni ko’paytirish.
- Milliy adabiyotlar bazasini yaratish.
- Xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish orqali milliy tajribani keng yoyish.

**Xulosa**

Simulyatsiya usullari tibbiyot ta’limida klinik fikrlashni shakllantirishning eng samarali yondashuvlaridan biridir. U talabalarda nafaqat bilim va ko’nikmalarni, balki mustaqil qaror qabul qilish, muloqot, jamoada ishlash va stressli vaziyatlarda to’g’ri yo’l tutish kabi professional kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. O’zbekiston tibbiy ta’lim tizimida simulyatsiya usullarini keng tatbiq etish orqali kelajakdagi shifokorlarning kasbiy salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

1. Jumaev Sh. J., Qurbonov A. T. Tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Tibbiyot ta’limi va innovatsiyalar jurnali. 2022; №3: 12–18.

2. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun o’quv dasturi. Toshkent, 2021.

**XIRURGIYADA SIMULYATSION TA’LIM: IMKONIYATLARI,  
AFZALLIKLARI VA ISTIQBOLLARI**

**Ikramova F. D.**

**Andijon davlat tibbiyot institute,  
umumiy jarrohlik va transplamtologiya kafedrası**

**Annotatsiya:**Maqolada zamonaviy xirurgiyada simulyatsion ta’limning o’rni, afzalliklari, qo’llaniladigan texnologiyalar va o’quv jarayoniga ta’siri keng yoritilgan. Simulyatsion usullar jarrohlarni amaliy ko’nikmalar bilan ta’minlash, hatoliklarni kamaytirish va bemor xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada xalqaro tajriba, amaliy misollar va ilmiy izlanishlar natijalariga asoslangan holda simulyatsion ta’limning istiqbollari tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** simulyatsiya, xirurgik ta’lim, jarrohlik, bemor xavfsizligi, amaliy ko’nikmalar.

## СИМУЛЯЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ В ХИРУРГИИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРЕИМУЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ

Икрамова Ф. Д.

Андижанский государственный медицинский институт,  
кафедра общей хирургии и трансплантологии

**Аннотация:** В статье подробно рассматривается роль симуляционного обучения в современной хирургии, его преимущества, применяемые технологии и влияние на образовательный процесс. Симуляционные методы играют важную роль в формировании практических навыков хирургов, снижении количества ошибок и повышении безопасности пациентов. В статье анализируются перспективы симуляционного обучения на основе международного опыта, практических примеров и результатов научных исследований.

**Ключевые слова:** симуляция, хирургическое образование, хирургия, безопасность пациентов, практические навыки.

## SIMULATION TRAINING IN SURGERY: POSSIBILITIES, ADVANTAGES AND PROSPECTS

Ikramova F. D.

Andijan State Medical Institute,  
Department of General Surgery and Transplantology

**Abstract:** The article examines in detail the role of simulation training in modern surgery, its advantages, applied technologies and impact on the educational process. Simulation methods play an important role in developing practical skills of surgeons, reducing the number of errors and increasing patient safety. The article analyzes the prospects of simulation training based on international experience, practical examples and results of scientific research.

**Keywords:** simulation, surgical education, surgery, patient safety, practical skills.

**Mavzuning dolzarbligi,** So‘nggi yillarda tibbiyot sohasida, ayniqsa, xirurgiyada, ta‘lim sifatini oshirish uchun simulyatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. An‘anaviy “bemor ustida o‘rganish” modeli ko‘plab cheklovlarga ega bo‘lib, bemor xavfsizligi va o‘quvchi jarrohning psixologik tayyorgarligi nuqtai nazaridan optimal emas. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya tajribasida, simulyatsion ta‘lim tibbiy ta‘limning ajralmas qismiga aylangan. Simulyatsion ta‘lim — real jarrohlik vaziyatlarini sun‘iy yaratilgan sharoitda, bemor hayotiga xavf tug‘dirmasdan o‘rgatish usulidir. U quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Fizik modellar: anatomiya va jarrohlik manipulyatsiyalarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan manekenlar, fantomlar.
- Virtual reallik (VR) tizimlari: 3D simulyatsiyalar orqali operatsiya jarayonlarini to‘liq modellashtirish.
- Aralash reallik (Mixed Reality): VR va real jarrohlik vositalarining kombinatsiyasi.

**Uning afzalliklari:** xatolar bemorga ta‘sir qilmaydi, murakkab manipulyatsiyalarni cheksiz qayta bajarish imkoniyati, o‘quvchining ko‘nikmalari aniq mezonlar bo‘yicha baholanadi, real operatsiyadagi psixologik bosimga tayyorlaydi. Ilmiy izlanishlar ko‘rsatishicha, simulyatsion ta‘limdan o‘tgan jarrohlar: operatsiya vaqtini 15–30% ga qisqartiradi, intraoperatsion xatolar sonini sezilarli kamaytiradi, minimal invaziv jarrohlikda yuqori aniqlikka erishadi.

**Tadqiqot maqsadi:** briefing yordamida simulyatsiya mashg‘ulotlari jarayonida simulyator yordamida o‘quv topshirig‘ini bajarish samaradorligini aniqlash.

**O‘rganish materiallari va usullari.** 2017-yil 20-iyundagi “2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3171-son qarorining “O‘quv simulyatsiya laboratoriyasini tashkil etish” bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida tibbiyot



xodimlarining malakasini oshirish, o'qitish, mehnat simulyatsiyasi, simulyatsiya qilish jarayonining sifatini oshirish maqsadida Andijon davlat tibbiyot instituti qoshida anesteziologiya va reanimatsiya, jarrohlik, terapiya, akusherlik-ginekologiya, pediatriya-neonatologiya, stomatologiya, otolaringologiya, anatomiya, oftalmologiya fanlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun o'quv xonalari tashkil etildi. 2019-yil fevral oyida simulyatsiya markazi neyroxirurgiya-travmatologiya, akusherlik-ginekologiya, neonatologiya, terapiya, jarrohlik, anesteziologiya-reanimatsiya yo'nalishlari bo'yicha yangi robotlar – simulyatorlar bilan boyitildi.

Bizning tadqiqotimizda Andijon davlat tibbiyot institute davolash fakultetining 20 nafar oltinchi kurs talabasi ishtirok etdi, ular ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruhda (eksperimental) o'qituvchi o'tkir pankreatit kasalligi, sabablarini, kasallikning bosqichma-bosqich rivojlanishini, diagnostika mezonlarini va vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan ko'rsatkichlarni tushuntirdi. Ikkinchi guruhda (nazorat) bu tushuntirish berilmadi.

Nazariy tadqiqot usullari: psixologik, pedagogik va tibbiy adabiyotlar tahlil qilindi, unda simulyatsiya mashg'ulotlarini amalga oshirish usullari tasvirlangan.

Amaliy tadqiqot usullari: ta'lim ehtiyojlarini aniqlash maqsadida davolash fakultetining barcha oltinchi kurs talabalari (120) o'rtasida dastlabki so'rov o'tkazildi, bir guruh talabalar (20) o'rtasida so'rov o'tkazildi va simulyatsiya mashg'ulotlarining samaradorligi aniqlandi, darslardan keyin klinik vaziyatda harakatlarni sinab ko'rish natijalari tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish:** Ambulator sharoitda o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'riqan bemorda shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarni mashq qilish uchun simulyatsiya o'qitish texnologiyasini ko'rib chiqildi.

O'quv jarayoni Andijon davlat tibbiyot instituti simulyatsiya markazida amalga oshirildi va bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oldi. 1-bosqich: test sinovlari orqali talabalarining tayyorgarlik darajasini aniqlash. Keyin o'qituvchi kasallik sabablarini tushuntirib beradigan brifing (yoki ko'rsatma) o'tkazdi, kasallikning rivojlanishini, diagnostika mezonlarini va bemor umumiy ahvolidan yomonlashuvining rivojlanish shartlarini tavsifladi, talabalar uchun darsning maqsadini belgiladi (o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'riqan bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish algoritmini mashq qilish) va simulyatsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalarni o'tkazdi. 2-bosqich: o'quvchilarni real hayotga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib simulyatsiya qilingan muhitda o'quv topshirig'ini bajarish. Barcha talabalarga o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'riqan bemorga ambulatoriya sharoitida tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha klinik vaziyat taklif qilindi. Talaba tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqildi: 35 yoshli yigit ambulatoriya mahalliy jarroh qabuliga keldi. Anamnezdan ma'lum bo'ldiki, yog'li taom iste'mol qilgandan so'ng epigastriya sohasida qattiq og'riq, holsizlik, ko'p qayt qilish, yurak urish tezligining oshishi paydo bo'lgan. Tekshiruv va fizik ma'lumotlarga ko'ra, bemordagi majburiy holat, til quruqligi, qorin oldi muskullarining tarangligi, taxikardiya, gipotoniya aniqlandi.

Yuqorida tavsiflangan vaziyat xonada faqat shifokor va bemorning mavjudligini nazarda tutadi, tekshirish, tashxis qo'yish va davolash uchun 10 daqiqa ajratiladi. Amaliy ko'nikmalarni mashq qilish algoritmi 2 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: 1) diagnostika; 2) davolash va uning samaradorligini nazorat qilish.

Stsenariyni amalga oshirish vaziyatni baholashdan boshlanadi. Hech qanday xavf yo'qligiga ishonch hosil qilgan talaba bemorni (fantom) tekshirishni boshlaydi va tashxis qo'yadi. Bemorga baland ovoz bilan murojaat qilish (fantom) orqali ongning mavjudligini baholashni o'z ichiga oladi. Talaba og'iz bo'shlig'ini tekshirish orqali nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini baholaydi, puls oksimetr yordamida qonning to'yinganligini o'lchaydi, o'pkalarni auskultatsiya qiladi va perkussiya qiladi, nafas olish tezligini o'lchaydi, ko'krak qafasi ekskursiyalarining amplitudasini baholaydi va agar kerak bo'lsa, kislorodli terapiya qiladi. Ushbu manipulyatsiyani amalga oshirish uchun o'quvchi o'lchamidagi nafas olish niqobini rezervuar bilan ishlatadi, kislorod oqimini to'g'ri tanlab, uni kislorod manbaiga ulaydi. So'ngra yurak-qon tomir tizimining faoliyatini baholashga o'tadi (talaba manjet va fonendoskop yordamida periferik puls va qon bosimini o'lchaydi, asosiy auskultatsiya nuqtalarida yurak tovushlarini tinglaydi, elektrokardiografni ulaydi. Qorin bo'shlig'ini nafas olishda qatnashish, qorin oldi mushaklarining tarangligi, o'tkir pankreatitga hos bo'lgan belgilarni aniqlash bajariladi. Talaba



bajarayotgan harakatlarini og'zaki aytib turadi. Iashhis qo'ygach, shoshilinch yordam berishga tushadi. Har bir harakat videotasvirga tushiriladi. III-bosqichda simulyatsion stsenariy debriefingi o'tkaziladi. Debriefing so'ngida talabalar shunday vaziyatda qanday qaror qilishlari haqida gapirib berdilar.

IV-bosqich: Vazifaning yakuni. Bitta stsenariy vazifani mukammal bajarish uchun 3-4 marta takrorlanishi zarur. Mashg'ulot so'ngida talabalarga test savollari beriladi. Nazorat test savollarini yakuni eksperimental guruhda control guruhga nisbatan 30% to'g'ri bajarilganligini ko'rsatadi.

#### **Xulosa**

Simulyatsion ta'lim zamonaviy xirurgiyada sifatli, xavfsiz va samarali kadrlar tayyorlashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. U jarrohlarga yuqori malaka beradi, bemor xavfsizligini oshiradi va sog'liqni saqlash tizimida samaradorlikni ta'minlaydi. Kelajakda texnologiyalar rivoji bilan simulyatsion ta'lim yanada realistik, qulay va ommabop bo'lishi kutilmoqda. O'tkazilgan faoliyatni taftish qilish simulatsion o'qitishni barcha boshqichlarini bajarish zarurligini ko'rsatadi. Simulyatsion o'qitishni stsenariy ko'rinishida o'tkazish talabada anamnez yig'ish, guruhda ishlash, etakchilik, qaror qabul qilish, qiyin vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini egallash imkoniyatini beradi.

### **XIRURGIYADA SIMULYATSION TA'LIM: IMKONIYATLARI, AFZALLIKLARI VA ISTIQBOLLARI**

**Ikramova F. D.**

**Andijon davlat tibbiyot institute,  
umumiy jarrohlik va transplamtologiya kafedrası**

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy xirurgiyada simulyatsion ta'limning o'rni, afzalliklari, qo'llaniladigan texnologiyalar va o'quv jarayoniga ta'siri keng yoritilgan. Simulyatsion usullar jarrohlarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash, hatoliklarni kamaytirish va bemor xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada xalqaro tajriba, amaliy misollar va ilmiy izlanishlar natijalariga asoslangan holda simulyatsion ta'limning istiqbollari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** simulyatsiya, xirurgik ta'lim, jarrohlik, bemor xavfsizligi, amaliy ko'nikmalar.

### **СИМУЛЯЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ В ХИРУРГИИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРЕИМУЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**Икрамова Ф. Д.**

**Андижанский государственный медицинский институт,  
кафедра общей хирургии и трансплантологии**

**Аннотация:** В статье подробно рассматривается роль симуляционного обучения в современной хирургии, его преимущества, применяемые технологии и влияние на образовательный процесс. Симуляционные методы играют важную роль в формировании практических навыков хирургов, снижении количества ошибок и повышении безопасности пациентов. В статье анализируются перспективы симуляционного обучения на основе международного опыта, практических примеров и результатов научных исследований.

**Ключевые слова:** симуляция, хирургическое образование, хирургия, безопасность пациентов, практические навыки.

## SIMULATION TRAINING IN SURGERY: POSSIBILITIES, ADVANTAGES AND PROSPECTS

Ikramova F. D.

Andijan State Medical Institute,  
Department of General Surgery and Transplantology

**Abstract:** The article examines in detail the role of simulation training in modern surgery, its advantages, applied technologies and impact on the educational process. Simulation methods play an important role in developing practical skills of surgeons, reducing the number of errors and increasing patient safety. The article analyzes the prospects of simulation training based on international experience, practical examples and results of scientific research.

**Keywords:** simulation, surgical education, surgery, patient safety, practical skills.

**Mavzuning dolzarbligi,** So‘nggi yillarda tibbiyot sohasida, ayniqsa, xirurgiyada, ta‘lim sifatini oshirish uchun simulyatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. An‘anaviy “bemor ustida o‘rganish” modeli ko‘plab cheklovlarga ega bo‘lib, bemor xavfsizligi va o‘quvchi jarrohning psixologik tayyorgarligi nuqtai nazaridan optimal emas. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya tajribasida, simulyatsion ta‘lim tibbiy ta‘limning ajralmas qismiga aylangan. Simulyatsion ta‘lim — real jarrohlik vaziyatlarini sun‘iy yaratilgan sharoitda, bemor hayotiga xavf tug‘dirmasdan o‘rgatish usulidir. U quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Fizik modellar: anatomiya va jarrohlik manipulyatsiyalarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan manekenlar, fantomlar.
- Virtual reallik (VR) tizimlari: 3D simulyatsiyalar orqali operatsiya jarayonlarini to‘liq modellashtirish.
- Aralash reallik (Mixed Reality): VR va real jarrohlik vositalarining kombinatsiyasi.

**Uning afzalliklari:** xatolar bemorga ta‘sir qilmaydi, murakkab manipulyatsiyalarni cheksiz qayta bajarish imkoniyati, o‘quvchining ko‘nikmalari aniq mezonlar bo‘yicha baholanadi, real operatsiyadagi psixologik bosimga tayyorlaydi. Ilmiy izlanishlar ko‘rsatishicha, simulyatsion ta‘limdan o‘tgan jarrohlar: operatsiya vaqtini 15–30% ga qisqartiradi, intraoperatsion xatolar sonini sezilarli kamaytiradi, minimal invaziv jarrohlikda yuqori aniqlikka erishadi.

**Tadqiqot maqsadi:** brifing yordamida simulyatsiya mashg‘ulotlari jarayonida simulyator yordamida o‘quv topshirig‘ini bajarish samaradorligini aniqlash.

**O‘rganish materiallari va usullari.** 2017-yil 20-iyundagi “2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3171-son qarorining “O‘quv simulyatsiya laboratoriyasini tashkil etish” bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, o‘qitish, mehnat simulyatsiyasi, simulyatsiya qilish jarayonining sifatini oshirish maqsadida Andijon davlat tibbiyot instituti qoshida anesteziologiya va reanimatsiya, jarrohlik, terapiya, akusherlik-ginekologiya, pediatriya-neonatologiya, stomatologiya, otolaringologiya, anatomiya, oftalmologiya fanlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni amalga oshirish uchun o‘quv xonalari tashkil etildi. 2019-yil fevral oyida simulyatsiya markazi neyroxirurgiya-travmatologiya, akusherlik-ginekologiya, neonatologiya, terapiya, jarrohlik, anesteziologiya-reanimatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha yangi robotlar – simulyatorlar bilan boyitildi.

Bizning tadqiqotimizda Andijon davlat tibbiyot institute davolash fakultetining 20 nafar oltinchi kurs talabasi ishtirok etdi, ular ikki guruhga bo‘lindi. Birinchi guruhda (eksperimental) o‘qituvchi o‘tkir pankreatit kasalligi, sabablarini, kasallikning bosqichma-bosqich rivojlanishini, diagnostika mezonlarini va vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan ko‘rsatkichlarni tushuntirdi. Ikkinchi guruhda (nazorat) bu tushuntirish berilmadi.

Nazariy tadqiqot usullari: psixologik, pedagogik va tibbiy adabiyotlar tahlil qilindi, unda simulyatsiya mashg‘ulotlarini amalga oshirish usullari tasvirlangan.

Amaliy tadqiqot usullari: ta‘lim ehtiyojlarini aniqlash maqsadida davolash fakultetining barcha oltinchi kurs talabalari (120) o‘rtasida dastlabki so‘rov o‘tkazildi, bir guruh talabalar (20) o‘rtasida



so'rov o'tkazildi va simulyatsiya mashg'ulotlarining samaradorligi aniqlandi, darslardan keyin klinik vaziyatda harakatlarni sinab ko'rish natijalari tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish:** Ambulator sharoitda o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'rikan bemorda shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarni mashq qilish uchun simulyatsiya o'qitish texnologiyasini ko'rib chiqildi.

O'quv jarayoni Andijon davlat tibbiyot instituti simulyatsiya markazida amalga oshirildi va bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oldi. 1-bosqich: test sinovlari orqali talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash. Keyin o'qituvchi kasallik sabablarini tushuntirib beradigan brifing (yoki ko'rsatma) o'tkazdi, kasallikning rivojlanishini, diagnostika mezonlarini va bemor umumiy ahvolidan yomonlashuvining rivojlanish shartlarini tavsifladi, talabalar uchun darsning maqsadini belgiladi (o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'rikan bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish algoritmini mashq qilish) va simulyatsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalarni o'tkazdi. 2-bosqich: o'quvchilarni real hayotga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib simulyatsiya qilingan muhitda o'quv topshirig'ini bajarish. Barcha talabalarga o'tkir pankreatit kasalligi bilan og'rikan bemorga ambulatoriya sharoitida tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha klinik vaziyat taklif qilindi. Talaba tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqildi: 35 yoshli yigit ambulatoriya mahalliy jarroh qabuliga keldi. Anamnezdan ma'lum bo'ldiki, yog'li taom iste'mol qilgandan so'ng epigastriya sohasida qattiq og'riq, holsizlik, ko'p qayt qilish, yurak urish tezligining oshishi paydo bo'lgan. Tekshiruv va fizik ma'lumotlarga ko'ra, bemordagi majburiy holat, til quruqligi, qorin oldi muskullarining tarangligi, taxikardiya, gipotoniya aniqlandi.

Yuqorida tavsiflangan vaziyat xonada faqat shifokor va bemorning mavjudligini nazarda tutadi, tekshirish, tashxis qo'yish va davolash uchun 10 daqiqa ajratiladi. Amaliy ko'nikmalarni mashq qilish algoritmi 2 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: 1) diagnostika; 2) davolash va uning samaradorligini nazorat qilish.

Stsenariyni amalga oshirish vaziyatni baholashdan boshlanadi. Hech qanday xavf yo'qligiga ishonch hosil qilgan talaba bemorni (fantom) tekshirishni boshlaydi va tashxis qo'yadi. Bemorga baland ovoz bilan murojaat qilish (fantom) orqali ongning mavjudligini baholashni o'z ichiga oladi. Talaba og'iz bo'shlig'ini tekshirish orqali nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini baholaydi, puls oksimetr yordamida qonning to'yinganligini o'lchaydi, o'pkalarni auskultatsiya qiladi va perkussiya qiladi, nafas olish tezligini o'lchaydi, ko'krak qafasi ekskursiyalarining amplitudasini baholaydi va agar kerak bo'lsa, kislorodli terapiya qiladi. Ushbu manipulyatsiyani amalga oshirish uchun o'quvchi o'lchamidagi nafas olish niqobini rezervuar bilan ishlatadi, kislorod oqimini to'g'ri tanlab, uni kislorod manbaiga ulaydi. So'ngra yurak-qon tomir tizimining faoliyatini baholashga o'tadi (talaba manjet va fonendoskop yordamida periferik puls va qon bosimini o'lchaydi, asosiy auskultatsiya nuqtalarida yurak tovushlarini tinglaydi, elektrokardiografni ulaydi. Qorin bo'shlig'ini nafas olishda qatnashish, qorin oldi mushaklarining tarangligi, o'tkir pankreatitga hos bo'lgan belgilarni aniqlash bajariladi. Talaba bajarayotgan harakatlarini og'zaki aytib turadi. Iashhis qo'ygach, shoshilinch yordam berishga tushadi. Har bir harakat videotasvirga tushiriladi. III-bosqichda simulyatsion stsenariy debriefingi o'tkaziladi. Debriefing so'ngida talabalar shunday vaziyatda qanday qaror qilishlari haqida gapirib berdilar.

IV-bosqich: Vazifaning yakuni. Bitta stsenariy vazifani mukammal bajarish uchun 3-4 marta takrorlanishi zarur. Mashg'ulot so'ngida talabalarga test savollari beriladi. Nazorat test savollarini yakuni eksperimental guruhda control guruhga nisbatan 30% to'g'ri bajarilganligini ko'rsatadi.

**Xulosa:** Simulyatsion ta'lim zamonaviy xirurgiyada sifatli, xavfsiz va samarali kadrlar tayyorlashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. U jarrohlarga yuqori malaka beradi, bemor xavfsizligini oshiradi va sog'liqni saqlash tizimida samaradorlikni ta'minlaydi. Kelajakda texnologiyalar rivoji bilan simulyatsion ta'lim yanada realistik, qulay va ommabop bo'lishi kutilmoqda. O'tkazilgan faoliyatni taftish qilish simulatsiyon o'qitishni barcha boshqichlarini bajarish zarurligini ko'rsatadi. Simulyatsion o'qitishni stsenariy ko'rinishida o'tkazish talabada anamnez yig'ish, guruhda ishlash, etakchilik, qaror qabul qilish, qiyin vaziyatlardan chiqq olish ko'nikmalarini egallash imkoniyatini beradi.



## SIMULYATSIYA USULLARI ORQALI KLINIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Jo`raqulova. J.

SamDTU 2-kurs 2-son davolash fakulteti 232-guruh talabasi

Mamadiyarova D. U.

SamDTU fiziologiya kafedrasi assistenti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi simulyatsiya usullari orqali klinik fikrlashni shakllantirish, fikrlashning o`shirishini aniqlashga yordam berish uchun o`tkazilgan tajribalar, shuningdek, o`tkazilayotgan tajribalarning fiziologik jihatdan tahlili, eCREST simulyatsion dasturi ustida o`tkazilgan tajribalar, XR-Clinik simulyatsion dasturi orqali o`tkazilgan tajribalar va SID shu bilan birga klassik simulyatsiyaning ahamiyati, simulyatsion dasturning Care-Q hamda CTD ga ta`siri, hozirgi kunda nafaqat anatomiya, balki fiziologiya uchun ham qo`llanilayotgan simulyatsion dasturlar, Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida simulyatsion dasturning foydali tomonlarini o`rganish uchun o`tkazilgan tajribalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** simulyatsiya, fikrlash, fiziologiya, eCREST, simulyatsion dastur, SID, klassik simulyatsiya, tajriba, standart usul, XR-Clinik, Care-Q, CTD, kasalxona, simulyatsion markaz, SamDTU, zamonaviy tibbiyot.

**Аннотация:** В данной тезисной работе рассматриваются следующие аспекты: формирование клинического мышления с помощью симуляционных методов, проведение экспериментов с целью выявления роста клинического мышления, а также физиологический анализ проводимых исследований. Приведены данные об опытах, проведенных с использованием симуляционной программы eCREST, а также анализ эффективности симуляционной платформы XR-Clinik. Рассматривается подход SID (Simulation with Iterative Discussions) и классическая симуляция, их значение в обучении. Кроме того, изучено влияние симуляционных программ на показатели Care-Q и CTDI. Отмечается, что в настоящее время симуляционные технологии применяются не только для обучения анатомии, но и физиологии. Также в работе представлены результаты исследований, проведенных в Самаркандском государственном медицинском университете, направленных на изучение полезных сторон симуляционных программ в процессе подготовки студентов.

**Ключевые слова:** Симуляция, мышление, физиология, eCREST, симуляционная программа, SID, классическая симуляция, опыт, стандартный метод, XR-Clinik, Care-Q, CTD, больница, симуляционный центр, СамГМУ, современная медицина.

**Abstract:** This thesis explores the formation of clinical reasoning through simulation methods, including experiments conducted to assess the development of clinical thinking, as well as the physiological analysis of these ongoing trials. It presents findings from studies involving the eCREST simulation program, and analyzes the effectiveness of the XR-Clinik simulation platform. The work also examines the approach of Simulation with Iterative Discussions (SID) compared to classical simulation, highlighting their significance in medical education. Furthermore, it investigates the impact of simulation programs on Care-Q and Critical Thinking Disposition Inventory (CTDI) scores. It is emphasized that simulation technologies are now being used not only for anatomy education but also for teaching physiology. Additionally, the thesis includes the results of research conducted at Samarkand State Medical University, aimed at studying the benefits of simulation-based programs in medical student training.

**Keywords:** Simulation, thinking, physiology, eCREST, simulation program, SID, classical simulation, experiment, standard method, XR-Clinik, Care-Q, CTD, hospital, simulation center, SamDTU, modern medicine.

**Tadqiqot maqsadi:** Simulyatsiya usullari orqali klinik fikrlashni shakllantirishni o`rganish.

**Tadqiqot materiali:** 2024-2025 o`quv yilida Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida klinik fanlar yo`nalishida tahsil olayotgan 4-kurs 18 ta talabalari jalb etildi, Klinik fikrlashni baholash hamda rivojlantirish uchun standartlashtirilgan klinik holatlar, simulyatsion trenajyorlardan va simulyatsiya mashg`ulotlari uchun “Simulation center” ning jihozlaridan foydalanildi.



**Tadqiqotning tekshiruv usullari:** 2024-yil noyabr oyida SamDTU da klinik fikrlashni simulyatsiya orqali rivojlantirish mavzusida tajriba o'tkazildi, tajribada 3-5-kurs o'quvchilari hamda universitet qoshidagi “simulation center”dan foydalanildi, 20-25 nafar talaba tanlab olinib, simulyatsion sentrda dars o'tkazilishidan oldin fanga taalluqli bo'lgan ba'zi muhim deyarli har bir talaba bilishi zarur bo'lgan savollar berildi, talabalarning IQ darajasi tekshirildi, shundan so'ng darslarni boshlashga ruxsat berildi. Dars haftasiga bir marta o'tkazildi va 4 hafta muddat berildi. Bu tadqiqotlarni amalga oshirish uchun randomizatsiyalangan nazoratli tajriba, eCREST elektron klinik fikrlash vositasi, XR-Clinic simulyatsion dasturidan va prospektiv hamda eksperimental usuldan foydalanilgan. Bu tajribada randomizatsiya orqali talabalarni tanlab guruhlariga bo'lib yarim guruh an'anaviy o'qitish, yarim guruh esa XR-Clinic simulyatsion dasturi orqali ta'lim olgan. o'tkazildi. Bunda ishtirok etuvchi talabalarning har biri maxsus dastur asosida ishlab chiqilgan 30 daqiqalik SID yoki klassik simulyatsiyada ishtirok etdi. Avvalgi yillarda simulyatsiya asosiy fanlarni, ya'ni anatomiya turli xil manekenlar organlarni tuzilishini ko'rsatar edi, lekin hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan simulyatsion dasturlar va ular asosida tuzilayotdan dars berishning simulyatsion usullarida fiziologiya fanining o'rnini katta, kompyuterli simulyatsiyalarning 70% dan ortig'i talabalarga nafaqat to'qima va organ qanday tuzilishi, balki ularning muhitga qanday javob berishini mexanistik tarzda ham tushuntirib bermoqda, chunki fiziologiya meditsinada anatomiya bilan bir pog'onada turadi, fiziologiyani tushunmagan talabadan kelajakda meditsinaga yangilik qo'shishini kutishni o'zi noto'g'ri.

**Olingan natija:** O'tkazilgan randomizatsiyalangan tajriba natijasi tajribadan 1 hafta o'tgach so'rovnomaga orqali aniqlandi. Tajribada ishtirok etgan ishtirokchilardan 1 hafta o'tgach darsda qatnashish ko'rsatkichi ikkinchi guruhdagi o'quvchilar soni birinchi guruhdagi o'quvchilar soniga nisbatan 2 baravar ko'pligini ko'rsatdi. XR-Clinic simulyatsion dasturi orqali o'tkazilgan tajribada esa simulyatsion dastur orqali tahsil olgan o'quvchilarning saviyasi an'anaviy usulda ta'lim olganlarnikiga nisbatan ancha yuqori, o'quvchilar tomonidan muhim savollar odatdagidan 1,5-2,5 baravar ko'p berildi, davolash taktikasi xatolari esa an'anaviydagiga nisbatan uch baravar kam bo'ldi. Care-Q hamda CTD deyarli 3 baravarga ortganligini ko'rush mumkin. SamDTU da o'tkazilgan tajriba natijasi tajriba boshlanishidan oldin o'quvchilarni qanday sinalgan bo'lsa xuddi shunday savollar berish hamda IQ darajasini aniqlash orqali aniqlandi. Bundan tashqari o'quvchilardan darslar ga bo'lgan fikrlari so'ralgan 90% dan ko'p o'quvchilar darslarni davom ettirishini xohlashi haqida ma'lumotlar olindi. Savollar va olingan javoblar hamda IQ darajaga nazar tashlaydigan bo'lsak, “simulation center”da o'tkazilgan amaliy darslar orqali olingan bilimlar ancha mustahkam, talabalar savolga javob berishda o'zlariga ishongan holatda javob berganini guvohi bo'ldik.

**Xulosa:** eCREST simulyatsion vositasi talabalarda o'ziga xos qiziqish uyg'otadi, bu bilan chegaralanib qolmasdan talabalarning kasalliklarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, muqobil tashxislarni taqqoslash xususiyatini yanada oshiradi, shuningdek, eCREST simulyatsion vositasi diagnostik xatolarni kamaytirishga, asosiysi bo'lajak shifokorlarga muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va axborot yig'ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. XR-Clinic simulyatsion dasturi bilan o'tkazilgan tajribadan ham xuddi shunday xulosaga kelindi, simulyatsion dastur orqali klinik holatni o'rganish an'anaviy, ya'ni standart usulga nisbatan ancha samaraliroq deb hisoblandi. Simulyatsion dastur o'quvchilarning kasalliklarni aniqlash, baholash hamda to'g'ri tashxis qo'yishiga, xavfsiz muhitda murakkab holatlarni tahlil qilishga o'rgatishiga ishonchimiz komil. Simulyatsion o'quv muhiti talabalarni real klinik holatlarga tayyorlaydi, bu esa ularni tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini faol ravishda rivojlantiradi. SamDTU da o'tkazilgan tajriba va undan oldin boshqa tashkilotlarda o'tkazilgan tajribalarning hammasini natijasiga qarab umumiy xulosaga kelindi: “Zamonaviy tibbiyot malakali tibbiyot xodimi yetishtirib chiqarish uchun simulyatsion usuldan foydalanishi shart va zarur”.



## TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARINING O'QUV JARAYONIDA PSIXIATRIYA FANIDAN SIMULYASIYASION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

**Karimov A.X., Kozimjonova I.F., Azimova G.A.**  
**Psixiatriya, narkologiya, tibbiy psixologiya va psixoterapiya kafedrası**  
**Andijon Davlat Tibbiyot Instituti**

**Rezyume:** Ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida simulyasiya mashg'ulotlari oliy o'quv yurtlarida, ko'ngildagidek amalga oshirilmaydi. Muayyan vakolatlarni shakllantiruvchi va yakuniy baholash vositasini yaratishda asosan psixiatriya fanidan ushbu usulning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun ushbu pedagogik texnologiyaga tayanamiz. Ushbu maqolada keltirib o'tilgan tadqiqot o'quv jarayonini o'rganishga va psixiatriyada modellashtirish paytida tibbiyot institutlari talabalarini fani o'rganishga ta'sir qilishi, qo'llab-quvvatlashiga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** psixiatriya, simulyasion texnologiya, tibbiyot instituti, o'quv jarayoni.

## ПРИМЕНЕНИЕ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПСИХИАТРИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

**Каримов А.Х., Козимжонова И.Ф., Азимова Г.А.**  
**Кафедра психиатрии, наркологии, медицинской психологии и психотерапии**  
**Андижанский государственный медицинский институт**

**Резюме:** Симуляционное обучение во многих высших учебных заведениях не проводится в высших учебных заведениях, как это должно быть. При создании инструмента для формирования и окончательной оценки определенных компетенций мы в основном полагаемся на эту педагогическую технологию для поддержки развития этого метода в психиатрической науке.

Исследование, представленное в этой статье, сосредоточено на изучении процесса обучения и влиянии, поддержке студентов медицинских институтов в изучении науки во время моделирования в психиатрии.

**Ключевые слова:** психиатрия, симуляционная технология, медицинский институт, образовательный процесс.

## APPLICATION OF SIMULATION TECHNOLOGIES IN PSYCHIATRY IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MEDICAL INSTITUTE STUDENTS

**Karimov A.X., Kozimjonova I.F., Azimova G.A.**  
**Department of Psychiatry, Narcology, Medical Psychology and Psychotherapy**  
**Andijan State Medical Institute**

**Resume:** Simulation training in many higher education institutions is not conducted in higher education institutions, as it should be. When creating a tool for the formation and final assessment of certain competencies, we mainly rely on this pedagogical technology to support the development of this method in psychiatric science.

The research presented in this article focuses on the study of the learning process and the impact, support of medical students in the study of science during modeling in psychiatry.

**Keywords:** psychiatry, simulation technology, medical institute, educational process.

**Kirish.** So'nggi yillarda tibbiyot ta'limida innovatsion yondashuvlar keng joriy qilinmoqda. Xususan, psixiatriya fanini o'qitishda simulyasion texnologiyalardan foydalanish talabalarda nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliy ko'nikmalarga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Simulyasion mashg‘ulotlar real klinik sharoitga yaqin muhit yaratib, talabalarga turli klinik vaziyatlarni xavfsiz sharoitda mashq qilish imkoniyatini beradi[2,5].

Psixiatriya ta‘limida simulyasion texnologiyalar qo‘llanishi orqali talabalar ruhiy kasalliklarga ega bemorlar bilan muloqot qilish, suhbat olib borish, tashxis qo‘yish va davolash strategiyalarini ishlab chiqish kabi jarayonlarni mukammalroq o‘zlashtiradilar. Bunday yondashuv nafaqat klinik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki kommunikativ malakalarni shakllantirishga, stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi[4].

Tibbiyot institutlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, psixiatriya fanida simulyasion texnologiyalarni qo‘llash talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. An‘anaviy o‘qitish usullari bilan taqqoslaganda, simulyasion mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar klinik fikrlash qobiliyati, muloqot ko‘nikmalari va amaliy tajribada sezilarli darajada ijobiy natijalarni namoyon qiladilar[1,9].

Shunday qilib, psixiatriya fanidan simulyasion texnologiyalarni qo‘llash tibbiyot institutida ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish, sifatini oshirish hamda zamonaviy shifokorlar uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida e‘tirof etiladi[10].

To‘qsoninchi yillarning oxiridan boshlab pedagogik o‘zgarishlar "o‘rganish paradigmasi" ga qadar klassikani engishga harakat qilib, magistrdan talabaga passiv o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydigan an‘anaviy pedagogik tizimni shubha ostiga qo‘ydi[2,8]. Bir qator tanqidchilarga qaramay, "kasbiy kompetentsiya paradigmasi" tushunchasi o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi[1,5,9].

Kompetentsiyani "kasb-hunarni tashkil etuvchi kollegial hamkasblar tomonidan ishlab chiqilgan va nazorat qilinadigan ixtisoslashtirilgan bilimlar bazasidan boshlab, mutaxassis tomonidan yaratilgan murakkab qobiliyat" deb ta‘riflash mumkin, bu "harakat ichida va undan keyin refleksiv amaliyot" vaziga yangi vakolatlar yaratadi yoki oshiradi. Biroq, frantsuz kontekstida ushbu paradigmatic inqilob hali, shu jumladan psixiatriyada ham sodir bo‘lmagan[3].

Zamonaviy tibbiyot ta‘limida psixiatriya fani alohida o‘rin tutadi, chunki ruhiy kasalliklarga ega bemorlar bilan ishlashda nafaqat mustahkam nazariy bilimlar, balki keng qamrovli amaliy va kommunikativ ko‘nikmalar ham talab etiladi. Shu bois, ta‘lim jarayonida an‘anaviy usullarni innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, simulyasion texnologiyalar talabalarning o‘quv jarayonida real klinik muhitga yaqinlashtirilgan sharoitlarda mashq qilish imkonini yaratadi. Quyidagi taqqoslash jadvali orqali psixiatriya fanini o‘qitishda an‘anaviy va simulyasion texnologiyalarning asosiy farqlari va afzalliklari ko‘rsatib beriladi.

**1-Jadval.**

**Psixiatriya fanini o‘qitishda an‘anaviy va simulyasion texnologiyalar taqqoslanishi**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>An‘anaviy ta‘lim usullari</b>	<b>Simulyasion texnologiyalar</b>
Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish	Yuqori	Yuqori
Amaliy ko‘nikmalar	Cheklangan	Yaxshi shakllanadi
Talabaning faol ishtiroki	O‘rtacha	Juda yuqori
Stressga chidamlilik	Yetarli darajada shakllanmaydi	Samarali rivojlanadi
Kommunikativ ko‘nikmalar	Yetarli darajada rivojlanmaydi	Yuqori darajada rivojlanadi
Klinik vaziyatlarga tayyorgarlik	Cheklangan	Haqiqiy sharoitga yaqin

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, an‘anaviy o‘qitish usullari talabalarda nazariy bilimlarni shakllantirishda samarali bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yetarli darajada natija bermaydi. Aksincha, simulyasion texnologiyalar talabalarning klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, stressga bardoshlilik, kommunikativ va tashxis qo‘yish ko‘nikmalarini yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi. Demak, psixiatriya ta‘limida simulyasion texnologiyalardan foydalanish an‘anaviy usullarni to‘ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi innovatsion yondashuv sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot ta‘limida simulyasion texnologiyalarni qo‘llash talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki zamonaviy shifokorga zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalarni ham shakllantirish imkonini beradi. Psixiatriya fanida bunday yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki ruhiy kasalliklarga ega



bemorlar bilan ishlash jarayonida klinik tajriba, kommunikativ ko‘nikmalar va emotsional barqarorlik muhim hisoblanadi.

Birinchidan, **diagnostik ko‘nikmalar** shakllanadi. Simulyasion mashg‘ulotlar talabalarni turli psixopatologik simptomlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va to‘g‘ri tashxis qo‘yishga o‘rgatadi. Bu jarayon klinik fikrlashni rivojlantiradi va talabalarda differensial tashxis qo‘yish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, **kommunikativ ko‘nikmalar** rivojlanadi. Simulyator yordamida yaratilgan sharoitlarda talabalar “shartli bemor” bilan muloqot qiladi, savollar beradi, suhbat olib boradi. Bu ularni bemorga nisbatan hurmatli, empatik va ehtiyotkor munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Uchinchidan, talabalar **qaror qabul qilish ko‘nikmalarini** o‘zlashtiradilar. Stressli vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri yechim qabul qilish psixiatriya amaliyotida eng muhim fazilatlardan biridir. Simulyasion texnologiyalar bu jarayonni xavfsiz sharoitda mashq qilish imkonini beradi.

Shuningdek, **jamoada ishlash qobiliyati** ham shakllanadi. Talabalar kichik guruhlarda birgalikda ishlash, konsultatsiya o‘tkazish va qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Yana bir muhim jihat — **professional etika va deontologiyani** chuqurroq o‘zlashtirishdir. Talabalar bemor huquqlarini hurmat qilish, tibbiy sirni saqlash va shifokorning axloqiy mas’uliyatini anglab yetadilar.

Umuman olganda, simulyasion texnologiyalar nafaqat klinik-amaliy ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Bu esa kelajakdagi psixiatrlarning samarali faoliyat yuritishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tibbiyot ta’limida simulyasion texnologiyalar muhim o‘rin egallab, talabalarni real klinik sharoitga tayyorlashda samarali vosita sifatida qo‘llanmoqda. An’anaviy dars mashg‘ulotlarida nazariy bilimlar yetarlicha o‘zlashtirilsa-da, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda cheklovlar mavjud. Simulyasion mashg‘ulotlar esa ushbu bo‘shliqni to‘ldirib, talabalarda diagnostik, kommunikativ, qaror qabul qilish, jamoada ishlash va professional etika kabi asosiy kompetensiyalarni samarali rivojlantiradi. Ayniqsa, psixiatriya fanida bemor bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish, empatiya ko‘rsatish va stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish talab qilinadi. Shu sababli simulyasion texnologiyalarni qo‘llash nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki bo‘lajak shifokorlarning shaxsiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

## 2-Jadval.

### Simulyasion texnologiyalar qo‘llanganda talabalarda shakllanadigan asosiy kompetensiyalar

№	Kompetensiyalar turi	Natijalar tavsifi
1	Diagnostik ko‘nikmalar	Psixik holatni baholash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish
2	Kommunikativ ko‘nikmalar	Bemor bilan ishonchli muloqot olib borish
3	Qaror qabul qilish	Stressli sharoitlarda tezkor va to‘g‘ri yechim ishlab chiqish
4	Klinik fikrlash	Klinik vaziyatni tahlil qilish, differensial tashxis qo‘yish
5	Jamoada ishlash ko‘nikmasi	Hamkasblar bilan hamkorlik qilish, maslahatlashish
6	Professional etika	Bemor huquqlarini hurmat qilish, tibbiy deontologiya qoidalariga rioya

Simulyasion texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar keng qamrovda shakllanadi. Diagnostik qobiliyatni rivojlantirish, bemor bilan samarali muloqot qilish, stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarining mustahkamlanishi psixiatriya ta’limining sifatini oshiradi.

Bundan tashqari, professional etika va deontologik yondashuvni chuqur o‘zlashtirish kelajakdagi shifokorlarning mas’uliyatli va insonparvar bo‘lib yetishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, simulyasion texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini innovatsion darajaga olib chiqadi, balki talabalarni zamonaviy tibbiy amaliyot talablariga tayyorlaydigan samarali ta’lim vositasi sifatida o‘z ahamiyatini isbotlamoqda.

Bundan tashqari, psixiatrik kasallikka chalingan bemorni parvarish qilishda shifokor (psixiatr yoki yo‘q) bilishi kerak bo‘lgan aniq ko‘nikmalar bo‘yicha muhandislik va didaktik ishlar mavjud emas.



Andijon davlat tibbiyot instituti psixiatriya va nakrologiya kafedrasiga psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya fanidan 5 kurs davolash va kasbiy ta'lim fakulteti talabalariga amaliyot mashg'ulotlarida 2022 yil sentyabr va oktyabr oylarida qabul qilinadigan talabalar har bir ishtirokchi 78 soatlik psixiatrik simulyasiya mashg'ulotlaridan o'tadilar, unda talabalar turli ruhiy buzilishlar: kayfiyat buzilishi, bezovtalik, ovqatlanish buzilishi, chegara buzilishi, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va shizofreniya, epilepsiya shaxs o'zgarishlari bilan va hokazo.

Ishtirokchidan kuzgi semestrda o'quv jarayoni, ular nima ekanligi, har bir mashg'ulotdan oldin va keyin tushunchalardagi bo'shliq va simulyasiya oxirida "o'quv inventarizasiyasining ishlash shkalasi" haqida portfelni to'ldirish so'raladi. Talabalar maqsadli namunasi yuzma-yuz yarim suhbatdan o'tishi kerak (ma'lumotlar bilan to'yinganlikdan oldin). Triangulyasiyani tahlil qilish jarayonini yaxshilash uchun simulyasiyaning video va audio yozuvi tahlil qilindi. Izlanish maqsadi. Tibbiyot instituti talabalarining o'quv jarayonida psixiatriya fanidan simulyasiyasion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi oshirishdan iborat. Izlanish materiallari va usullari. Biz oldimizga qo'yilgan vazifani bajarish uchun ADTI psixiatriya va narkologiya kafedrasiga psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya fanini o'zlashtirish uchun kelgan jami 72 nafar talabalarga tegishli fandan amaliyot mashg'ulotlarini o'tish uchun simulyasiyasion texnologiyalarni qo'lladik. Izlanish natijalari. Ushbu tadqiqot natijalari talabalarda psixiatriya fanni shakllantiruvchi va yakuniy baholash vositasini yaratishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu texnologiya metodologiyasida jami 72 kishidan iborat 2 guruhga bo'lingan tibbiyot talabalaridan tarkib topgan.

Talabalar sentyabr 2022 senyabr va oktyabr oylarida amaliyot mashg'ulotlariga kelgan talabalardan iborat bo'ldi. Har bir ishtirokchidan 78 soatlik psixiatrik simulyasiya mashg'ulotlarini bajarish, kayfiyat buzilishi, bezovtalik, ovqatlanish buzilishi, chegara buzilishi, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va shizofreniya bilan ishlash so'raladi. Tadqiqot dizayni tovush nazariyasiga asoslangan aralash usul tadqiqotidir, jumladan: - miqdoriy belgilar: - sinovdan oldin/keyin kontseptual xarita-o'z-o'zini baholash so'rovnomalari: "ta'lim samaradorligining inventarizasiya ko'lami" - ijtimoiy - demografik ma'lumotlar va boshqa savollar-sifatli: asosli nazariya-talabalarining yarim tuzilgan suhbat - anketa klinik ish paytida, har bir o'rganilgan patologiya uchun modellashtirilgandan so'ng to'ldirilgan-testdan oldin/keyin kontseptual xarita (klinik fikrlash uchun) - simulyasiya videoyozuvi va xulosani audio faylini yozib olish kabi jarayonlardan tashkil topdi.

**Xulosa.** Psixiatriya ta'limida simulyasiyasion texnologiyalarni qo'llash talabalarda nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy o'qitish usullarida asosan ma'ruzalar va nazariy mashg'ulotlar ustun bo'lsa, simulyasiyasion texnologiyalar real klinik sharoitga yaqin muhit yaratib, talabalarni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etadi. Natijada ular dars jarayonida nafaqat bilim oladi, balki amaliyotga oid ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

Simulyasiyasion mashg'ulotlar yordamida talabalar turli xil ruhiy kasalliklarga ega shartli bemorlar bilan muloqot qilish, ularga savol berish, klinik vaziyatni tahlil qilish va tashxis qo'yish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ularning **diagnostik ko'nikmalarini** rivojlantiradi. Shu bilan birga, **kommunikativ qobiliyatlari** mustahkamlanib, bemor bilan ishonchli va empatik munosabat o'rnatishga o'rganadilar.

Bundan tashqari, simulyasiyasion texnologiyalar talabalarda **qaror qabul qilish** qobiliyatini rivojlantiradi. Stressli sharoitlarda tezkor, aniq va to'g'ri yechim ishlab chiqish psixiatriya amaliyotining asosiy talabalaridan biridir. Shuningdek, talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali **jamoaviy hamkorlik** qilishni, hamkasblar bilan maslahatlashib, birgalikda qaror qabul qilishni mashq qiladilar.

Simulyasiyasion mashg'ulotlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular talabalarda **professional etika va deontologiya** tamoyillarini shakllantiradi. Bemor huquqlarini hurmat qilish, tibbiy sirni saqlash, shifokor mas'uliyatini anglash – kelajakdagi mutaxassisning professional fazilatlarini mustahkamlaydi.

Shu bois, psixiatriya ta'limida simulyasiyasion texnologiyalarni keng qo'llash ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarni zamonaviy tibbiy amaliyot talabalariga tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini yuqori darajada shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.



Shunday qilib, bakalavriat talabalariga ruhiy kasalliklar fanidan kerakli ma'lumotlarni egallashlari uchun, ularda shifokorlik qobiliyatlarini shakllantirishni va Psixiatriyadan bilim va ko'nikmalarini yanada kengroq rivojlantirish uchun zamonaviy simulyasion texnologiyalar bizga katta samaradorlikni beradi.

## BIOFIZIKA DARS MASHG'ULOTLARIDA KAHOOT - O'YINLI O'QUV PLATFORMASI ORQALI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH VA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH

**Komilova D. T.**

**Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi**

**Annotation:** This article explores the effectiveness of the Kahoot! game-based learning platform in reinforcing topics and assessing student knowledge during biophysics lessons. The study demonstrates how the **Kahoot** platform helps students review, consolidate, and evaluate their knowledge interactively. The article emphasizes the importance of integrating interactive learning platforms into the educational process to enhance teaching effectiveness and recommends applying the **Kahoot** method in other subjects and educational processes.

**Key words:** Kahoot, game-based learning platform, knowledge reinforcement, student knowledge assessment, interactive learning, teaching effectiveness, motivation enhancement, educational technologies, innovative teaching methods, optimization of the learning process.

**Аннотация:** В данной статье исследуется эффективность игровой образовательной платформы **Kahoot** в укреплении знаний и оценке успеваемости студентов на занятиях по биофизике. Исследование показывает, как **Kahoot** помогает студентам повторять, укреплять и оценивать свои знания в интерактивной форме. Статья подчеркивает важность внедрения интерактивных образовательных платформ в учебный процесс для повышения эффективности образования и рекомендует применять метод **Kahoot** в других предметах и учебных процессах.

**Ключевые слова:** Kahoot, игровая образовательная платформа, укрепление знаний, оценка знаний студентов, интерактивное обучение, эффективность обучения, повышение мотивации, образовательные технологии, инновационные образовательные методы, оптимизация учебного процесса.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, **Kahoot** o'yinli o'quv platformasining **biofizika dars mashg'ulotlarida** mavzuni mustahkamlash va talabalar bilimini baholashdagi samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotda **Kahoot** platformasining talabalarni bilimlarini interaktiv ravishda takrorlash, mustahkamlash va bilim darajasini baholashda qanday yordam berishi ko'rsatilgan. Maqola, o'quv jarayoniga interaktiv o'quv platformalarini kiritishning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi va **Kahoot** metodini boshqa fanlar va o'quv jarayonlariga ham qo'llashni tavsiya etadi.

**Kalit so'zlar:** Kahoot, o'yinli o'quv platformasi, bilim mustahkamlash, talabalar bilimini baholash, interaktiv ta'lim, ta'lim samaradorligi, motivatsiya oshirish, ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim metodlari, dars jarayoni optimallashtirish.

**Kirish.** Biofizika, biologik tizimlarning fizikaviy va kimyoviy jarayonlarini o'rganuvchi fan bo'lib, talabalarga murakkab biologik hodisalarni tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, biofizika darslari ko'pincha talabalarining diqqatini jamlash va mavzularni samarali o'zlashtirishni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, darslarni yanada interaktiv va qiziqarli tashkil qilish, talabalar bilimini baholash va mustahkamlash uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan o'yinli o'quv platformalaridan foydalanish zarurati tug'iladi. "Kahoot platformasi" – bu interaktiv o'yin shaklida bilim olishni rag'batlantiradigan va o'qitish jarayonini jonlantiradigan innovatsion vosita bo'lib, u talabalarga o'rganilgan mavzularni qayta ko'rib chiqish va mustahkamlashda yordam beradi. Kahoot o'yinli o'quv platformasining asosiy afzalliklari orasida talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish, ular orasida raqobatni kuchaytirish, o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish kabilar mavjud.



Ushbu maqolada Biofizika dars mashg'ulotlarida “Kahoot platformasi” ning mavzuni mustahkamlash va talabalar bilimini baholashdagi roli, uning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, talabalarining o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi ahamiyati batafsil tahlil etiladi. Bu platformaning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yanada aniqlik bilan baholashga yordam berish, darslarda qatnashish va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashda qanday yordam berishi ko'rsatiladi. Shuningdek, biofizika fanida interaktiv metodlarning qo'llanilishi, talabalarni bilim olish jarayonida motivatsiya qilish va o'rganish samaradorligini oshirish bo'yicha yondashuvlar tavsiya etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Biofizika darslarida zamonaviy texnologiyalardan, jumladan o'yinli o'quv platformalaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonining interaktivligi va talabalarining faol ishtiroki ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu bo'limda, o'yinli o'quv platformalari, xususan, “Kahoot platformasi”ning ta'limda qo'llanilishi va biofizika faniga oid avvalgi tadqiqotlar tahlil qilinadi.

O'yinli o'quv platformalarining ta'lim jarayonidagi o'rni. O'yinli o'qish metodlari, talabalarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularni motivatsiya qiladi. **James Paul Gee** (Amerika Qo'shma Shtatlarining taniqli olimi, pedagog va ta'lim texnologiyalari bo'yicha ekspert) talabalarga o'yin shaklida bilimlarni o'rgatishning samaradorligini ta'kidlagan va bu usul talabalarining qiziqishini oshirishi, darslarni qiziqarli va interaktiv qilishda yordam berishini ta'kidladi. Uning fikricha, o'yinli o'qish talabalarga o'z bilimlarini mustahkamlash, aniqlik kiritish va o'zlashtirishni tezlashtirish imkonini beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, murakkab fanlarda, masalan, biofizika fanida samarali bo'ladi.

Steinkuehler va Duncan (2008) o'z tadqiqotlarida o'yinli metodlarning o'rganishga ta'sirini ko'rsatib, talabalarining o'yin orqali faollashganini va yuksalgan bilim darajasini aniqlagan. Shuningdek, Anderson va Rainie (2012) tomonidan olib borilgan izlanishlar o'yinli platformalarning ta'limda qo'llanilishining o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ilmiy ishlar, o'yinli metodlarning o'quvchilarda qiziqish va motivatsiyani oshirish orqali bilim olishni samarali qilishga yordam berishini tasdiqlaydi.

“Kahoot platformasi” ning ta'lim jarayonidagi o'rni. “Kahoot platformasi” - bu interaktiv viktorinalar, so'rovlar va baholash testlari orqali bilimni sinash va mustahkamlash imkoniyatini taqdim etuvchi o'yinli o'quv vositasi bo'lib, o'quvchilarga o'rganilgan mavzuni qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'yinli o'quv platformalarining, xususan, “Kahoot platformasi” ning ta'lim jarayonidagi ahamiyati katta. Ular o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarini qayta ko'rib chiqishda yordam beradi va mustahkamlash jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O'qituvchilarga talabalar bilimini real vaqtda baholash imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda Kahoot o'yinli o'quv platformasi orqali Biofizika dars mashg'ulotlarida mavzuni mustahkamlash va talabalar bilimini baholashdagi samaradorligini oshirishga qaratildi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi bosqichlarga asoslangan:



Tadqiqot eksperimental va tasodifiy tanlov usuliga asoslangan bo'lib, unda Kahoot! platformasining Biofizika fanidagi mavzularni o'rganishda talabalarga ta'siri va bilimni mustahkamlashdagi roli baholandi. Tadqiqot ikki guruh asosida amalga oshirildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhiga Kahoot platformasi orqali test o'tkazish tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy dars jarayonidek testlar qog'ozlarda taqdim etildi.

Tadqiqotda Biofizika fani bo'yicha o'qiyotgan talabalardan iborat ikkita guruh ishtirok etdi. Har bir guruhda 15 nafar talaba bo'lib, jami 30 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalarining yoshi, bilim darajasi va avvalgi o'quv tajribasi hisobga olingan holda guruhlar tenglashtirildi.


Tadqiqotda ma'lumotlar ikki asosiy usul orqali amalga oshirildi:



Sinovlar va testlar: Talabalarning mavzuni o‘zlashtirganligini baholash uchun o‘quv materialiga oid testlar tuzildi. Ushbu testlar “Kahoot platformasi” ning “Home Create a new kahoot” bo‘limiga kirib namunadagidek testlar joylashtiriladi va Library bo‘limiga saqlanadi: Talabalar Kahoot oyinli platformasida testlarni yechish uchun Google brauzeri orqali kirib e‘lon qilingan “Game pin” orqali platformaga kiradilar:



Talabalarga testlar quyidagi ko‘rinishda manitorda ko‘rinadi. Ular esa telefonlari orqali to‘g‘ri javobni belgilaydilar:



Test yakunlangach natijalar elon qilinadi. Natijalarni nafaqat ko‘rish balki taxlil qilish imkoniyatini ham beradi.



All (14)		Didn't finish (2)		Search	
Nickname	Rank	Correct answers	Unanswered	Final score	
Javlonbek	1	93%	—	12 071	
Durdona	2	93%	—	11 610	
vokhobov	3	86%	—	11 091	
Muhtasar	4	79%	—	10 329	
Mohinur	5	79%	—	10 085	
Hasan	6	71%	—	9324	
Kamola	7	64%	—	8299	
Nihola	8	64%	—	8292	
Gulchitrov	9	64%	—	8207	

Kahoot o'yinli-platformasida testlarni tashkil etish aniq va shaffof ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, talabalar o'zlashtirgan bilimlarining miqdori va sifatini aniqlashga yordam berdi.

**Natijalar.** Tadqiqotda o'tkazilgan tahlillar natijasida **Kahoot** o'yinli o'quv platformasining **Biofizika dars mashg'ulotlarida** mavzuni mustahkamlash va talabalar bilimni baholashdagi samaradorligi tasdiqlandi. Tadqiqotga ishtirok etgan talabalar tajriba guruhida, ya'ni **Kahoot** platformasi orqali interaktiv mashg'ulotlar olib borilgan guruhda, nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori natijalarga erishdilar.

**Bilim o'zlashtirishning oshishi:** Tajriba guruhida bo'lgan talabalar mavzuni o'zlashtirish darajasini **25%** ga yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarishdi. Bu natijalar **Kahoot** platformasining talabalarga bilimni mustahkamlashdagi samaradorligini ko'rsatadi. Test natijalarida yuqori ball to'plagan talabalar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Tajriba guruhidagi talabalar **Kahoot-** platformasi orqali o'tkazilgan testlar va davomida o'quv materialiga bo'lgan qiziqishlarini, darsga bo'lgan ishtiyoqini sezilarli darajada oshirishdi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalar **90%** dan ortiq qismi, **Kahoot** o'quv platformasining interaktivligi va raqobat muhitining ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil ekanligini ta'kidladilar. O'qituvchilar **Kahoot-** platformasidan foydalanish orqali talabalar bilimni real vaqt rejimida baholash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa o'qituvchilarga talabalarning kuchli va zaif tomonlarini tezda aniqlash va individual yondashuvlarni qo'llashga imkon berdi.

**Kahoot** - platformasining o'yinli formatida talabalarning o'zaro raqobatlashishi, yuqori natijalarga erishish uchun harakat qilish motivatsiyasini oshirdi. Bu esa dars jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undadi.

**Muhokama.** Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, **Kahoot** o'yinli o'quv platformasi biofizika dars mashg'ulotlarida samarali vosita bo'lib, talabalarning bilim o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar, interaktiv ta'lim metodlarining an'anaviy ta'lim metodlariga qaraganda yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. **Kahoot** kabi platformalar talabalarga bilimlarni qiziqarli va interaktiv shaklda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqotda **Kahoot** o'yinli o'quv- platformasining **biofizika dars mashg'ulotlarida** mavzuni mustahkamlash va talabalar bilimni baholashdagi samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari, **Kahoot** platformasining talabalarning bilim o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam berganini ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalar an'anaviy o'quv metodlari bilan taqqoslaganda, **Kahoot** orqali o'tkazilgan interaktiv mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishdilar. Bu, o'z navbatida, platformaning ta'lim jarayoniga samarali ta'sirini tasdiqlaydi. Tadqiqotda faqat **Biofizika** darslariga qaratilgan bo'lsa-da, **Kahoot** platformasining boshqa o'quv fanlarida, masalan, kimyo, matematika yoki adabiyotda ham qo'llanilishini o'rganish muhimdir. Bu metodning boshqa sohalarida ham samaradorligini tekshirish, ta'lim jarayonini yanada optimallashtirishga yordam beradi.



O‘qituvchilarga ham ushbu **Kahoot** platformalardan samarali foydalanishni o‘rgatish muhimdir. Buning uchun o‘qituvchilarni o‘quv texnologiyalari bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar o‘tkazish zarur. Bu o‘qituvchilarga platformani to‘liq va samarali tarzda ishlatish imkonini beradi.

**Xulosa** qilib aytganda, **Kahoot** platformasi biofizika darslarida bilimni mustahkamlash va talabalarning bilim darajasini baholashda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Kelajakda bu metodni boshqa fanlarda va kengroq miqyosda qo‘llash talabalarning ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi.

## SIMULYATSIYA MASHG‘ULOTLARINI STANDARTLASHTIRISH

**Mamadaliyev A. A.**  
**Andijon Davlat Tibbiyot Instituti**  
**Jarroxlik kasalliklari va fuqaro muhofazasi**  
**kafedrasini katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada simulyatsiya mashg‘ulotlarini standartlashtirish jarayonlari, ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyati, metodik yondashuvlar hamda ta‘lim sifatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Simulyatsion ta‘lim jarayonlarini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash mezonlarini belgilash va xalqaro tajribani joriy etish masalalari yoritilgan.

Maqola ta‘lim sohasidagi, pedagoglarga va tadqiqotchilarga foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Simulyatsiya, mashg‘ulotlar, standartlashtirish, ta‘lim, metodika, sifat, baholash, o‘quv jarayoni.

Zamonaviy globallashtirish davrida ayniqsa tibbiy ta‘lim jarayonida simulyatsion usullardan foydalanish talabalarida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiyot, texnika, harbiy, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlar sohalarida simulyatsiya mashg‘ulotlari yordamida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Hozirda, simulyatsiya mashg‘ulotlarini turli ta‘lim muassasalarida o‘tkazish jarayonida yagona yondashuv va mezonlarning yo‘qligi, mashg‘ulotlarning samaradorligini solishtirish imkoniyatini kamaytirmoqda. Shu bois, simulyatsiya mashg‘ulotlarini standartlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Simulyatsiya — bu real voqelikni modellashtirish orqali o‘quvchilarga xavfsiz sharoitda amaliy ko‘nikma berish usuli. Masalan, tibbiyotda bemorlarni reanimatsiya qilish, shoshilinch yordam ko‘rsatish, jarrohlik amaliyotlarini bajarishda; favqulodda vaziyatlarda esa evakuatsiya, yong‘inga qarshi choralar, zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatishda qo‘llaniladi.

Simulyatsion o‘qitish bir qancha afzalliklarga ega bular talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, xavfsiz sharoitda xatolardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish va talabalarida tezkor qaror qabul qilish malakasini rivojlantirish.

Simulyatsion mashg‘ulotlarni standartlashtirish — bu mashg‘ulotlarni yagona me‘yorlar asosida ishlab chiqish, o‘tkazish va baholash jarayonidir. Bu orqali ta‘lim sifati va natijalarini bir xil mezonlarda baholash, o‘qituvchi va talabalarlar uchun aniq yo‘riqnomalar ishlab chiqish, va xavfsizlik talablariga qat‘iy rioya qilishga erishiladi

### **Standartlashtirish bosqichlari quyidagicha bolishi lozim:**

1. Normativ-huquqiy asosni ishlab chiqish
  - Davlat ta‘lim standartlarida simulyatsiya mashg‘ulotlari uchun talablarni belgilash.
  - Ichki idoraviy buyruq va nizomlar va metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.
2. Didaktik maqsadlarni aniqlash
  - Mashg‘ulotlar orqali egallanishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni belgilash.
3. Senariylarni ishlab chiqish va standartlashtirish
  - Har bir mashg‘ulot uchun real vaziyatga yaqin senariy yaratish.
  - Senariylar murakkablik darajasiga qarab bosqichma-bosqich bo‘lishi.
4. Texnik vositalarni standartlashtirish
  - Trenajyorlar, manekenlar, dasturiy ta‘minotlar, VR/AR texnologiyalariga minimal talablarni ishlab chiqish.



#### 5. Mashg'ulot raxbarini tayyorlash

- Mashg'ulot raxbari (o'qituvchi) maxsus sertifikatlangan bo'lishi.
- Ular yagona metodika asosida o'quv jarayonini olib borishi kerak.

#### 6. Baholash va monitoring tizimi

- Mashg'ulot ishtirokchilarini obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqish.
- Natijalarni reyting tizimida qayd etish.

**Tadqiqot maqsadi:** Simulyatsiya mashg'ulotlarini o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish, ularni standartlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, baholash mezonlarini yagona tizim asosida belgilash hamda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni ilmiy asoslash.

**Tadqiqot materiali va tekshiruv usullari:** Tadqiqot materiali - Tibbiyot oliygohlarida, pedagogika va texnika yo'nalishidagi OTMLlarda qo'llanilayotgan mavjud simulyatsion mashg'ulotlar dasturlari.

-Turli turdagi simulyatorlar (manekenlar, VR, AR va interaktiv dasturiy ta'minotlar).

-O'qituvchi va talabalardan olingan anketalar va kuzatuv natijalari.

-Simulyatsiya mashg'ulotlari uchun xalqaro (AHA, ERC, WFME) hamda milliy metodik tavsiyalar.

**Tekshiruv usullari:** Tahliliy usul – mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv dasturlari tahlili.

So'rovnoma va intervyu – o'qituvchilar, talabalar va mutaxassislarning fikrlarini yig'ish.

Eksperimental usul – ikki guruh (standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan simulyatsiya mashg'ulotlarida qatnashgan talabalar) natijalarini taqqoslash.

Statistik usullar – o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda o'rtacha ball, dispersiya, t-test kabi ko'rsatkichlarni qo'llash.

Pedagogik kuzatuv – mashg'ulotlarda talabalarning faolligi va motivatsiyasini baholash.

Simulyatsiya mashg'ulotlarini standartlashtirish quyidagi samaralarni beradi:

-O'quvchilarda real hayotga tayyorlik oshadi;

- Favqulodda vaziyatlarda inson omili ta'siri kamayadi;

- Ta'lim sifati nazorat qilinadi va solishtirish imkoniyati paydo bo'ladi;

- Xavfsizlik va samaradorlik darajasi ortadi.

Simulyatsiya mashg'ulotlarini standartlashtirish orqali o'qitish samaradorligi 20–30% ga oshgani kuzatildi.

Standartlashtirilgan mashg'ulotlarda ishtirok etgan talabalar o'z amaliy ko'nikmalarini to'g'ri qo'llashda 2,1 baravar yuqori aniqlikka erishdi.

O'qituvchilar standartlashtirilgan yondashuv yordamida baholash jarayonining shaffof va adolatli bo'lishini ta'kidladilar.

Talabalar orasida qoniqish darajasi 85% ga yetdi (standartsiz mashg'ulotlarda bu ko'rsatkich 60% atrofida bo'ldi).

Xalqaro standartlarga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalari sezilarli yaxshilandi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, simulyatsiya mashg'ulotlarini standartlashtirish ta'lim jarayonida yagona metodologiyani shakllantiradi, bu esa o'quvchi va o'qituvchi uchun qulaylik yaratadi.

Standartlashtirilmagan mashg'ulotlarda ko'pincha baholashda sub'ektivlik, mashg'ulot maqsadlarining noaniqligi va o'quv dasturlari o'rtasida tafovutlar kuzatildi.

Standartlashtirilgan mashg'ulotlarda esa: o'quv maqsadlari aniq belgilandi, baholash mezonlari yagona tizimga solindi, talabalarning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish samarali tashkil etildi.

Shuningdek, xalqaro standartlarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurligi aniqlangan.

Natijalardan kelib chiqib, simulyatsiya mashg'ulotlari uchun milliy standart ishlab chiqish va ularni muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.

**Xulosalar:** Simulyatsiya mashg'ulotlari bugungi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni standartlashtirish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Yagona metodik yondashuv,



normativ hujjatlar, texnik talablar va baholash mezonlari ishlab chiqilishi mashg'ulotlarni samarali, xavfsiz va natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, simulyatsiya mashg'ulotlarini standartlashtirish nafaqat ta'lim muassasalarida, balki sog'liqni saqlash, xavfsizlik, harbiy tayyorgarlik va boshqa sohalarda ham muhim strategik vazifa hisoblanadi.

## TALABALARGA YAQIN QARINDOSHLIK NIKOHIDAN TUG'ILGAN BOLALARDA RUHIY O'ZGARISHLAR MAVZUSINI O'QITISHDA SIMULYATSION TA'LIMNING ROLI

**Mo'minov R.Q., Ubaydullayeva R.R., Isakov M.U.**  
**Psixiatriya, narkologiya, tibbiy psixologiya va psixoterapiya kafedrası**  
**Andijon Davlat Tibbiyot Instituti**

**Rezyume:**Maqolada tibbiyot talabalariga yaqin qarindoshlik nikohidan tug'ilgan bolalarda kuzatiladigan ruhiy o'zgarishlar mavzusini o'qitishda simulyatsion ta'limning ahamiyati yoritilgan. Simulyatsion texnologiyalar yordamida talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlab, diagnostik ko'nikmalar, kommunikativ mahorat va etik tamoyillarni chuqurroq o'zlashtirishi mumkin. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, simulyatsion ta'lim usullaridan foydalangan guruhda talabalarning mavzuni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lib, bemorga nisbatan empatiya va mas'uliyat hissi sezilarli darajada oshgan. Shu bois, mazkur metod psixiatriya va pedagogika ta'limida samarali va istiqbolli yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** simulyatsion ta'lim, psixiatriya, yaqin qarindoshlik nikohi, ruhiy o'zgarishlar, tibbiy ta'lim, talabalar, kommunikativ ko'nikmalar, etik tamoyillar.

## ПРИМЕНЕНИЕ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПСИХИАТРИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

**Муминов Р.К., Убайдуллаева Р.Р., Исаков М.У.**  
**Кафедра психиатрии, наркологии, медицинской психологии и психотерапии**  
**Андижанский государственный медицинский институт**

**Резюме:**В статье рассматривается значение симуляционного обучения при преподавании студентам-медикам темы психических изменений у детей, рождённых от близкородственных браков. Использование симуляционных технологий позволяет студентам не только закрепить теоретические знания, но и развить диагностические навыки, коммуникативную компетентность и этическую ответственность. Результаты исследования показали, что в группе студентов, проходивших симуляционные тренинги, уровень усвоения материала оказался выше, а проявление эмпатии и профессиональной ответственности — значительно лучше.

Таким образом, симуляционное обучение является эффективным и перспективным подходом в медицинском образовании, особенно в области психиатрии.

**Ключевые слова:** симуляционное обучение, психиатрия, близкородственный брак, психические изменения, медицинское образование, студенты, коммуникативные навыки, этические принципы.

## APPLICATION OF SIMULATION TECHNOLOGIES IN PSYCHIATRY IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MEDICAL INSTITUTE STUDENTS

**Muminov R.Q., Ubaydullayeva R.R., Isakov M.U.**  
**Department of Psychiatry, Narcology, Medical Psychology and Psychotherapy**  
**Andijan State Medical Institute**



**Resume:** The article highlights the role of simulation-based training in teaching medical students the topic of mental changes in children born from consanguineous marriages. Simulation technologies provide an opportunity to strengthen theoretical knowledge while enhancing diagnostic skills, communication abilities, and ethical awareness. The study results indicate that students exposed to simulation-based training demonstrated higher levels of knowledge acquisition, increased empathy, and a stronger sense of professional responsibility compared to those trained through traditional methods. Therefore, simulation-based education is recommended as an effective and promising approach in medical training, particularly in psychiatry.

**Keywords:** simulation-based education, psychiatry, consanguineous marriage, mental changes, medical education, students, communication skills, ethical principles.

**Kirish.** Insoniyat tarixida nikoh munosabatlari jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib kelgan. Nikoh orqali nafaqat oilaviy qadriyatlar, balki biologik meros ham avloddan-avlodga o‘tadi. Shu sababli qarindoshlik darajasi yaqin bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikohlar ko‘plab sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkinligi qadimdan kuzatilgan[4,11]. Zamonaviy tibbiyot va genetika fanlari bu kuzatishlarni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ayniqsa, yaqin qarindoshlik nikohidan tug‘ilgan bolalarda ruhiy o‘zgarishlar, kognitiv rivojlanishdagi kechikishlar, intellektual salohiyatning pastligi va turli xil nevropsixik buzilishlar tez-tez uchrashi aniqlangan[5].

Bugungi kunda jahon sog‘liqni saqlash tashkilotlari hamda ko‘plab milliy ilmiy muassasalar yaqin qarindoshlik nikohining salbiy oqibatlarini haqida ogohlantirib kelmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha ayrim mintaqalarda qarindoshlik nikohi 20–50 foizgacha uchraydi[9]. Bunday oilalarda tug‘iladigan bolalarda genetik kasalliklar, aqliy va ruhiy rivojlanishdagi buzilishlar xavfi ikki-uch barobar yuqori bo‘lishi mumkin. Bu esa, nafaqat tibbiy muammo, balki ijtimoiy va pedagogik muammo sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Tibbiyot institutlari talabalarini uchun ushbu mavzuni o‘rganish muhim, chunki ular kelajakda aholining ruhiy salomatligini muhofaza qiluvchi mutaxassislar bo‘lib yetishadi. Shunga qaramay, mavzuning murakkabligi shundaki, talabalar ko‘pincha nazariy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirsa-da, real klinik vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni bilmay qolishi mumkin. Ayniqsa, psixiatriya fanida bemor bilan muloqot qilish, to‘g‘ri savol berish, empatiya ko‘rsatish va etika qoidalariga rioya qilish katta rol o‘ynaydi[3].

Ana shunday murakkab mavzularni samarali o‘rgatish uchun zamonaviy ta‘lim tizimida **simulyatsion texnologiyalar** keng joriy etilmoqda. Simulyatsion ta‘lim deganda talabalar uchun maxsus yaratilgan klinik vaziyatlar, virtual bemorlar, aktyorlar ishtirokidagi rolli mashqlar yoki kompyuter dasturlari yordamida yaratilgan o‘quv muhiti tushuniladi[7]. Bu usul yordamida talabalar real klinik sharoitga yaqin bo‘lgan vaziyatlarda o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadilar. Eng asosiysi, ular xato qilishdan qo‘rqmaydi, chunki simulyatsiya bemor hayotiga zarar yetkazmaydi, ammo talabaning xatosini ko‘rsatadi va uni tuzatish imkonini beradi.

Simulyatsion ta‘limning afzalliklari juda ko‘p. Birinchidan, u nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi. Ikkinchidan, talabalar klinik fikrlashni rivojlantiradi, tezkor qaror qabul qilishga o‘rganadi. Uchinchidan, ular kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlaydi: bemor bilan muloqot qilish, uni tinglash, uning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilish kabi fazilatlar shakllanadi. To‘rtinchidan, simulyatsion treninglar etik va deontologik tamoyillarni chuqurroq anglash imkonini beradi[12].

Yaqin qarindoshlik nikohidan tug‘ilgan bolalarda ruhiy o‘zgarishlarni o‘qitishda simulyatsion texnologiyalarni qo‘llash juda muhim. Chunki bu mavzu nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy jihatdan ham sezgir hisoblanadi. Talabalar oddiy ma‘ruzalardan tashqari, interaktiv treninglarda ishtirok etsa, ular mavzuni yanada chuqurroq his qiladi. Masalan, “standartlashtirilgan bemor” sifatida chiqish qilayotgan aktyor orqali bolalarda uchrashi mumkin bo‘lgan simptomlarni kuzatish, suhbat olib borish va yakunda xulosa qilish — talabalar uchun katta tajriba bo‘ladi[6].

Simulyatsion yondashuvning yana bir afzalligi shundaki, u talabalarni jamoada ishlashga o‘rgatadi. Ruhiy buzilishlarga ega bemorlar ko‘pincha murakkab va ko‘p tarmoqli yondashuvni talab qiladi: psixiatr, psixolog, nevrolog va ijtimoiy xodimlar hamkorlikda ishlashi zarur. Treninglar jarayonida



talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali hamkorlik, mas’uliyatni bo‘lishish va bir-birini tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi[13].

Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi uch jihatdan o‘zini namoyon qiladi: birinchidan, yaqin qarindoshlik nikohi oqibatida bolalarda ruhiy o‘zgarishlar keng tarqalgan muammo; ikkinchidan, tibbiyot talabalari bu mavzuni chuqur o‘rganishi zarur; uchinchidan, simulyatsion ta’lim bu murakkab mavzuni samarali va interaktiv tarzda o‘rgatish imkonini beradi. Shu asosda mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — tibbiyot talabalariga ushbu mavzuni simulyatsion metodlar yordamida o‘rgatishning samaradorligini aniqlash va uni ta’lim jarayoniga keng tatbiq qilishdir[8].

Yaqin qarindoshlik nikohi va uning oqibatlari qadimdan turli jamiyatlarda muhokama qilingan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar asosan Sharq mamlakatlarida, ayrim Osiyo va Afrikaning chekka hududlarida ko‘proq uchraydi. Genetik mutaxassislar bunday nikohlarni “konsangvin nikoh” deb ataydilar. Konsangvin nikohlarda irsiy kasalliklarning tez-tez uchrashi, ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi buzilishlar ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan[2].

Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan ko‘plab epidemiologik tadqiqotlarda qarindosh nikohlarida tug‘ilgan bolalarda tug‘ma nuqsonlar, intellektual rivojlanishdagi orqada qolish, aqliy zaiflik va turli psixik sindromlar yuqori ko‘rsatkichlarda aniqlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha bunday nikohlarning chastotasi 10–12 foizni tashkil etsa, ayrim mintaqalarda bu ko‘rsatkich 40–50 foizgacha yetadi[1].

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham bu masalaga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud. Aksariyat hollarda ular qarindoshlar nikohining genetik xavflariga bag‘ishlangan. Ayrim mahalliy tadqiqotlarda yaqin qarindoshlik nikohidan tug‘ilgan bolalarda ruhiy o‘zgarishlarning, xususan, nutq rivojida kechikish, diqqat yetishmovchiligi, xulq-atvor buzilishlari va intellektual rivojlanishdagi pasayish kabi belgilar kuzatilishi qayd etilgan.

Ilmiy adabiyotlar shuningdek, ruhiy o‘zgarishlar nafaqat genetik omillar, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, qarindoshlik nikohi ko‘p uchraydigan jamiyatlarda sog‘liq madaniyatining pastligi, aholining tibbiy savodxonligi yetarli emasligi ham bu muammoga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur mavzu faqat biologik yoki genetik nuqtai nazardan emas, balki kompleks yondashuv bilan o‘rganilishi zarur.

Psixiatriya sohasidagi adabiyotlarda esa yaqin qarindoshlik nikohi bilan bog‘liq ruhiy buzilishlar ko‘proq klinik kuzatuvlar shaklida yoritilgan. Ayrim mualliflar ruhiy o‘zgarishlarning ko‘proq aqliy zaiflik, shizofreniya spektridagi buzilishlar va affektiv sindromlarda namoyon bo‘lishini qayd etadilar[13].

Pedagogika va tibbiy ta’limga oid adabiyotlar esa bunday murakkab mavzularni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanishni tavsiya qiladi. So‘nggi 20 yilda dunyo bo‘yicha simulyatsion texnologiyalarni tibbiyot ta’limida qo‘llash keng o‘rganilgan. Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar simulyatsion treninglar talabalarning klinik fikrlashini rivojlantirishini, ularda kommunikativ va etik ko‘nikmalarni mustahkamlashini ko‘rsatdi.

Masalan, Issenberg va hammualliflari (2005) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlilda yuqori darajadagi simulyatsion mashg‘ulotlar tibbiyot talabalarida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda samarali ekanligi isbotlangan. Shuningdek, Kneebone (2019) simulyatsion texnologiyalarni psixiatriya fanida qo‘llashning alohida afzalliklarini ta’kidlab o‘tgan. Chunki psixiatriya fanida talabalar bemor bilan muloqot qilishni ko‘proq mashq qilishi kerak bo‘ladi, ammo real klinik sharoitda buni tez-tez takrorlash imkoniyati cheklangan.

Rossiya va O‘zbekiston olimlarining ishlari ham bu mavzuga e’tibor qaratadi. Jumladan, Smirnova (2022) simulyatsion ta’lim yordamida psixiatriya fanida talabalar kommunikativ va diagnostik kompetensiyalarni yuqori darajada o‘zlashtirganini ta’kidlaydi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar esa yaqin qarindoshlik nikohi oqibatlarining o‘quv jarayonida tibbiy etika bilan bog‘lab o‘qitilishini muhim deb biladilar.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

Yaqin qarindoshlik nikohidan tug‘ilgan bolalarda ruhiy o‘zgarishlar masalasi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

Bu muammo global xarakterga ega va ijtimoiy, genetik hamda psixologik jihatlarni qamrab oladi.



Tibbiyot ta'limida mazkur mavzuni samarali o'rgatish uchun simulyatsion texnologiyalar eng ma'qul metodlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

**Izlanish maqsadi.** Ushbu izlanishning asosiy maqsadi — tibbiyot institutida tahsil olayotgan talabalarga yaqin qarindoshlik nikohidan tug'ilgan bolalarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlar mavzusini samarali o'qitishda simulyatsion ta'lim texnologiyalarining o'rnini aniqlash va baholashdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Mazkur ilmiy ishda qo'llanilgan tadqiqot usullari mavzuning murakkabligi va ko'p qirraliligini hisobga olgan holda tanlandi. Ular quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

#### **Adabiyotlarni tahlil qilish usuli**

Yaqin qarindoshlik nikohi va uning oqibatlarini, ruhiy o'zgarishlarning klinik belgilari hamda simulyatsion ta'limning samaradorligi bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Bu usul orqali mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, izlanishning nazariy asoslari shakllantirildi.

#### **Pedagogik kuzatuv.**

Tibbiyot institutida o'qitilayotgan psixiatriya darslarida talabalarining ishtiroki kuzatildi. An'anaviy va simulyatsion metodlar qo'llangan mashg'ulotlar solishtirilib, talabalar faoliyati va ularning mavzuni o'zlashtirish darajasi baholandi.

#### **Ekspirimental ta'lim usuli.**

Talabalar ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh an'anaviy usullarda, ikkinchi guruh esa simulyatsion texnologiyalar yordamida o'qitildi. Mashg'ulotlar yakunida ularning bilim, ko'nikma va malakalari taqqoslab tahlil qilindi.

#### **Suhbat va intervyu usuli.**

Talabalarining fikr-mulohazalari, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari va simulyatsion mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatlari aniqlash maqsadida suhbatlar o'tkazildi. Bu usul orqali sub'ektiv tajriba va hissiy baholar yig'ildi.

#### **So'rovnoma usuli.**

Talabalarga maxsus anketa tarqatilib, ularning mavzuni o'zlashtirish darajasi, simulyatsion mashg'ulotlarning samaradorligi va amaliy ahamiyati haqidagi fikrlari yig'ildi.

#### **Matematik-statistik tahlil.**

Olingan natijalar sonli ko'rsatkichlarga asoslangan holda qayta ishlanib, foizlar, o'rtacha ko'rsatkichlar va taqqoslovchi jadval va diagrammalar orqali ifodalandi.

**Izlanish natijalari.** O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, psixiatriya fanini o'qitishda simulyatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan sezilarli darajada yaxshiladi. Tadqiqot davomida talabalar ikki guruhga bo'lingan holda o'rganildi: **kontrol guruhi** (an'anaviy usulda o'qiganlar) va **eksperimental guruhi** (simulyatsion ta'lim asosida o'qiganlar).

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

**Diagnostik ko'nikmalar** bo'yicha eksperimental guruh talabalarining o'zlashtirish darajasi 82%ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich kontrol guruhda 61% bo'ldi.

**Kommunikativ qobiliyatlar** bo'yicha farq sezilarli bo'ldi: simulyatsion ta'lim olgan talabalar 79% natija ko'rsatdi, an'anaviy usuldagilar esa 54% bilan chegaralandi.

**Stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish** ko'nikmalari eksperimental guruhda 76%ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich kontrol guruhdagidan (52%) ancha yuqori.

**Jamoadan ishlash qobiliyati** simulyatsion treninglardan o'tganlarda 85%ni tashkil etdi, an'anaviy ta'lim olganlarda esa 63% bo'ldi.

**Etik tamoyillarga rioya qilish** bo'yicha natijalar ham sezilarli farq qildi: eksperimental guruhda 88%, kontrol guruhda 66%.

Tibbiyot ta'limida, ayniqsa psixiatriya fanini o'qitishda, talabalar uchun diagnostik va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Diagnostik ko'nikmalar bemorning ruhiy holatini to'g'ri baholash, simptomlarni aniqlash va dastlabki tashxis qo'yishda zarur bo'lsa, kommunikativ ko'nikmalar bemor bilan ishonchli muloqot o'rnatish, uning shikoyatlarini to'liq tinglash va empatiya ko'rsatishda muhimdir. An'anaviy ta'lim jarayonida bu ko'nikmalar nazariy bilimlarga asoslangan holda shakllanadi, ammo ko'pincha amaliyotda to'liq rivojlanmaydi.



Simulyatsion texnologiyalar esa bu kamchilikni bartaraf etib, talabalarni real klinik sharoitga yaqinlashtiradi va ularda nazariya bilan amaliyot uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

### 1-Jadval.

#### Diagnostik va kommunikativ ko'nikmalarni taqqoslash

Ko'nikma turi	Kontrol guruh (%)	Eksperimental guruh (%)
Diagnostik ko'nikmalar	61	82
Kommunikativ ko'nikmalar	54	79

Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, simulyatsion mashg'ulotlar yordamida o'qitilgan talabalar diagnostik va kommunikativ ko'nikmalarda sezilarli ustunlikka ega bo'ldi. Ular bemorning ruhiy holatini aniqlashda aniqroq natija ko'rsatdi va bemor bilan muloqotda samaraliroq bo'ldi. An'anaviy ta'lim usulida esa bu ko'nikmalar yetarlicha rivojlanmagan. Demak, diagnostik va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarni kelajakdagi klinik faoliyatga yaxshiroq tayyorlaydi va ularning kasbiy salohiyatini oshiradi.

Tibbiyot amaliyotida shifokorlar ko'pincha kutilmagan va murakkab vaziyatlarga duch keladilar. Ayniqsa, psixiatriya sohasida bemorning ruhiy holati tez o'zgarishi, favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq qaror qabul qilishni talab qiladi. Shu bois, talabalarda stressli sharoitlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda shifokorning nafaqat bilim darajasi, balki hissiy barqarorligi ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, zamonaviy tibbiyot ko'p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Bir bemor bilan ishlashda psixiatr, psixolog, nevrolog, terapevt va ijtimoiy xodimlar birgalikda harakat qilishi mumkin. Shuning uchun talabalarda jamoada ishlash, fikr almashish, mas'uliyatni bo'lishish va birgalikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zaruriy omillardan biridir. Simulyatsion mashg'ulotlar orqali talabalar bu ko'nikmalarni real hayotga yaqin sharoitda mashq qilishi mumkin.

### 2-Jadval.

#### Stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko'nikmalari

Ko'nikma turi	Kontrol guruh (%)	Eksperimental guruh (%)
Stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish	52	76
Jamoada ishlash ko'nikmasi	63	85

O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, simulyatsion ta'limdan o'tgan talabalar stressli vaziyatlarda tezroq va to'g'riroq qaror qabul qila oldilar. Ular favqulodda vaziyatlarga tayyor bo'lishni, o'zini ishonchli tutishni va muammoni samarali hal qilishni o'rgandilar. Shuningdek, jamoada ishlash ko'nikmalari ham yuqori natijalar berdi: talabalar bir-birini tinglash, hamkorlikda muhokama qilish va mas'uliyatni bo'lishishda sezilarli rivojlanish ko'rsatdilar.

Demak, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko'nikmalari simulyatsion texnologiyalar yordamida samarali shakllanadi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlaydi va ularni kelajakdagi real klinik faoliyatga yanada puxta tayyorlaydi.

Tibbiyot ta'limida professional etika va deontologiya masalalari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, psixiatriya sohasida bemor bilan ishlashda shifokorning axloqiy tamoyillarga amal qilishi, bemor huquqlarini hurmat qilishi va tibbiy sirni saqlashi katta ahamiyatga ega. Talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirish an'anaviy o'qitish jarayonida ko'pincha nazariy darslar orqali amalga oshiriladi. Biroq, nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas, chunki axloqiy tamoyillarni amaliyotda tatbiq qilish talab etiladi. Shu bois, simulyatsion mashg'ulotlarda etik vaziyatlarni modellashtirish va talabalarni bevosita qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish ularning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda juda muhim hisoblanadi.

### 3-Jadval.

#### Etik tamoyillarga rioya qilish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Kontrol guruh (%)	Eksperimental guruh (%)
Etik tamoyillarga rioya qilish	66	88

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, simulyatsion ta'limdan o'tgan talabalar etik tamoyillarga rioya qilishda an'anaviy ta'lim olganlarga nisbatan yuqoriroq natija ko'rsatdilar (88% ga 66%). Bu



shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion mashg‘ulotlarda real hayotga yaqin etika bilan bog‘liq vaziyatlarni o‘rganish va muhokama qilish talabalarni axloqiy jihatdan mas‘uliyatliroq qiladi. Ular bemorga nisbatan empatiya bilan yondashishni, tibbiy sirni saqlashni va professional munosabatda bo‘lishni samarali o‘zlashtiradilar.

Umuman olganda, simulyatsion ta‘lim etik tamoyillarga rioya qilishni nazariy bilim darajasidan amaliy ko‘nikmaga aylantiradi. Bu esa kelajakda talabalarining nafaqat bilimli, balki insonparvar va axloqiy mas‘uliyatli shifokor bo‘lib yetishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarining klinik fikrlashini, bemor bilan muloqot qilish qobiliyatini, qaror qabul qilish tezligi va sifatini, shuningdek, professional etika bo‘yicha mas‘uliyatini sezilarli darajada oshiradi. An‘anaviy ta‘lim usullariga nisbatan eksperimental guruh deyarli barcha ko‘rsatkichlarda 20–25% yuqori natija ko‘rsatdi. Bu esa, simulyatsion ta‘limning psixiatriya fanida samarali va istiqbolli usul ekanligini yaqqol isbotlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan so‘ng aniqlanishicha, simulyatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar an‘anaviy dars shakllarida o‘qiganlarga qaraganda ko‘plab ustunliklarga ega bo‘ldi.

**Birinchi natija** shuni ko‘rsatdiki, diagnostik ko‘nikmalarni shakllantirishda simulyatsion usul samaraliroq bo‘lgan. Eksperimental guruh talabalarini bemor simptomlarini to‘g‘ri aniqlash va tashxis qo‘yishda yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Bu shuni anglatadiki, simulyatsion mashg‘ulotlar orqali talabalar ko‘proq mashq qilgan va tajribasini oshirgan.

**Ikkinchi natija** kommunikativ qobiliyatlarga tegishli. Bemor bilan muloqot qilish, savollar berish, suhbatni to‘g‘ri tashkil etish va empatiya ko‘rsatish borasida ham simulyatsion mashg‘ulot o‘tgan talabalar ustunlik qildi. Ularning natijalari an‘anaviy ta‘lim olganlarga qaraganda deyarli chorak qismga yuqori bo‘ldi.

**Uchinchi natija** shuni ko‘rsatdiki, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilishda ham simulyatsion trening samarali bo‘lgan. Simulyatsiya orqali talabalar turli murakkab klinik vaziyatlarga duch kelgan va tezkor qaror chiqarishga o‘rgangan. Natijada ular real hayotga yaqin vaziyatlarda o‘zini ishonchliroq tutgan.

**To‘rtinchi natija** jamoada ishlash ko‘nikmalariga oid. Simulyatsion ta‘limda talabalar ko‘pincha kichik guruhlarda ishlagan. Bu ularga bir-biridan o‘rganish, fikr almashish va mas‘uliyatni bo‘lishishni o‘rgatgan. Shuning uchun eksperimental guruh jamoaviy ishlashda yuqori natijalarga erishdi.

**Beshinchi natija** — professional etika. Simulyatsion mashg‘ulotlar davomida talabalar bemor huquqlariga rioya qilish, tibbiy sirni saqlash va etika tamoyillariga amal qilishni mashq qildilar. Shu bois, eksperimental guruhdagi talabalar etik qoidalarga rioya qilishda ham oldinda bo‘ldi.

Umuman olganda, barcha natijalar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion ta‘lim usuli tibbiyot talabalarini uchun murakkab mavzularni o‘zlashtirishda ancha samarali. Ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashdi, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishdi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixiatriya fanini o‘qitishda simulyatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilim va ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Yaqin qarindoshlik nikohidan tug‘ilgan bolalarda uchrashi mumkin bo‘lgan ruhiy o‘zgarishlar kabi murakkab mavzularni o‘rganishda simulyatsion yondashuv an‘anaviy ta‘limdan ustun bo‘lib chiqdi. Tadqiqot davomida an‘anaviy va simulyatsion usulda o‘qigan talabalar natijalari taqqoslandi. Simulyatsion mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar diagnostik ko‘nikmalarda, kommunikativ mahoratda, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilishda hamda jamoada ishlashda yuqori natijalarga erishdi. Eng muhimi, ular professional etika tamoyillariga rioya qilishda ham yuqoriroq ko‘rsatkichlarni qayd etdilar.

Xulosa qilib aytganda, simulyatsion ta‘lim:

nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va amaliy ko‘nikmaga aylantiradi;

talabalarni murakkab klinik vaziyatlarda mustaqil va jamoa bo‘lib qaror qabul qilishga o‘rgatadi;



shifokorlik faoliyati uchun muhim bo'lgan empatiya, muloqot va deontologik mas'uliyatni rivojlantiradi;  
talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyor bo'lishini ta'minlaydi.  
Shunday qilib, simulyatsion texnologiyalar psixiatriya ta'limining sifatini oshiruvchi, talabalarni zamonaviy klinik amaliyot talablariga mos tayyorlovchi innovatsion yondashuv sifatida o'zini to'liq oqlaydi.

## **ROBOT-SIMULYATORLAR, AGRESSIYANI NAMOYON ETADIGAN VIRTUAL BOLALAR VA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ AXLOQIY MUAMMOLARNING PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI**

**Mutalipova F.M.**  
**Andijon davlat universiteti**  
**Andijon, Uzbekiston**  
**Axmedova H. Y.**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti**  
**Andijon, Uzbekiston**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan robot-simulyatorlar, agressiyani namoyon etadigan virtual bolalar hamda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan axloqiy muammolar tahlil qilinadi. Texnologik yutuqlar inson faoliyatini takomillashtirayotgan bo'lsa-da, ularning noto'g'ri qo'llanilishi hissiy befarqlik, dehumanizatsiya, zo'ravonlikni normallashtirish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Maqolada bu muammolarning oldini olish – ya'ni profilaktikasi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar, jumladan axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish, foydalanuvchilarning axloqiy savodxonligini oshirish, nazorat mexanizmlarini joriy etish va ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini kuchaytirish taklif etiladi. Xulosa sifatida texnologik taraqqiyot insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashishi lozimligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'z:** robot-simulyatorlar, sun'iy intellekt, virtual bolalar, agressiya, axloqiy muammolar, dehumanizatsiya, texnologik profilaktika, axloqiy normalar, etik xavf, psixologik ta'sir, axloqiy trening, SI xavfsizlig.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan robototexnika va sun'iy intellekt (SI) sohasidagi yutuqlar, inson hayotining turli jabhalarida katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bugungi kunda robot-simulyatorlar yordamida tibbiyot, harbiy tayyorgarlik, ta'lim, psixologik treninglar kabi sohalarda yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ayniqsa, inson xatti-harakatlarini o'rganish yoki simulyatsiya qilishda qo'llaniladigan **agressiyani namoyon etadigan virtual bolalar**, real hayotga yaqin sharoitda insonlarning psixologik va axloqiy jihatlarni o'rganishga xizmat qilmoqda.

Ammo bu kabi tizimlar bilan ishlashda bir qator **axloqiy muammolar** yuzaga chiqmoqda. Mazkur maqolada ana shu muammolarning mohiyati, xavflari hamda ularni oldini olish – ya'ni **profilaktikasi** masalalari yoritiladi

### **1. Axloqiy muammolarning asosiy turlari**

#### **a) Dehumanizatsiya va hissiy befarqlik**

Robot yoki virtual bola odam emas degan tushuncha, u bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, agressiyani oson ifodalashga olib keladi. Bunday holat insonda real hayotda ham hissiy befarqlik va dehumanizatsiya – ya'ni insoniyat qadriyatlarini inkor etish tendensiyasini shakllantirishi mumkin.

#### **b) Agressiyani normallashtirish**

Agressiyani namoyon etadigan virtual modellarga muntazam ta'sir qilish, ayniqsa yosh foydalanuvchilarda, agressiyani normal holat sifatida qabul qilishga olib keladi. Bu esa jamiyatda zo'ravonlik darajasining oshishiga sabab bo'lishi mumkin

#### **c) Sun'iy intellektga asoslangan qarorlarning noaniqligi**



Sun'iy intellekt tizimlari axloqiy me'yorlarga rioya qilmaydi. Agar bu tizimlar odamlarga nisbatan noto'g'ri yoki g'ayriinsoniy qarorlar qabul qilsa, bu katta axloqiy xatolarga olib keladi. Masalan, virtual bolaning noto'g'ri javoblariga nisbatan haddan oshgan jazolar berilishi mumkin.

## 2. Profilaktik choralar

### a) Axloqiy me'yorlar asosida normativ hujjatlar ishlab chiqish

Robot-simulyatorlar va virtual subyektlar bilan ishlashda qat'iy axloqiy-etik qoidalar ishlab chiqilishi va qonunchilikda mustahkamlab qo'yilishi lozim. Bu xodimlarning mas'uliyatini oshiradi va nojo'ya holatlarning oldini oladi.

### b) Foydalanuvchilarni axloqiy tayyorlash

Tibbiy, harbiy yoki psixologik sohalarda robot yoki virtual tizimlar bilan ishlovchi shaxslar maxsus axloqiy treninglardan o'tkazilishi kerak. Ular texnologiyaga insoniy qadriyatlar bilan yondashishni o'rganishlari muhim.

### c) Agressiyani tahlil qilish va nazorat qilish algoritmlarini joriy etish

Sun'iy intellekt tizimlariga foydalanuvchi agressiyasini aniqlovchi va baholovchi mexanizmlar kiritilishi kerak. Bunday tizimlar zararli xatti-harakatlarni avtomatik aniqlab, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga imkon beradi.

### d) Ommaviy axborot vositalarida tushuntirish ishlarini olib borish

Texnologiyaning ijobiy va salbiy tomonlari haqida aholiga tushunarli tilda ma'lumot berish, axborot xabardorligini oshirish va sun'iy intellektga ishonch bilan yondashish muhim. Shuningdek, yoshlar orasida sun'iy intellekt vositalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish dolzarbdir.

**Xulosa o'rnida shuni aytish keraki** robot-simulyatorlar va agressiyani namoyon etadigan virtual bolalardan foydalanish inson faoliyatida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq bu imkoniyatlar axloqiy me'yorlarga zid tarzda ishlatilsa, jamiyatda befarqlik, zo'ravonlik va axloqiy inqiroz xavfini keltirib chiqaradi.

Shu sababli, bu yo'nalishda **axloqiy profilaktika**, qonunchilik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar birgalikda olib borilishi kerak. Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda insoniylik tamoyillari ham har doim ustuvor bo'lishi lozim.

## STEAM YONDASHUVI ASOSIDA TIBBIY TA'LIMDA SIMULYATSION O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Patidinova D. S.

Andijon Davlat Universiteti PhD doktoranti,

Andijon davlat tibbiyot instituti,

Biofizika informatika tibbiy texnologiyalar kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiy ta'lim jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida simulyatsion o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Andijon davlat tibbiyot institutida olib borilib, nazorat va eksperimental guruhlar taqqoslandi. Natijalarda STEAM yondashuvi asosidagi simulyatsion mashg'ulotlar talabalarda klinik fikrlash, amaliy ko'nikmalar, ijodkorlik va jamoada ishlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlandi. Ushbu yondashuv tibbiy ta'limda innovatsion metod sifatida samaradorligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim, simulyatsion o'qitish, tibbiy ta'lim, innovatsion metodika, klinik fikrlash, ta'lim texnologiyalari..

Kirish

XXI asrda tibbiy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri – yuqori malakali, amaliy ko'nikmalarga ega, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirgan shifokorlarni tayyorlashdir. An'anaviy ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarda chuqur va barqaror bilimlar shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.



Shu nuqtayi nazardan, so‘nggi yillarda simulyatsion o‘qitish texnologiyalariga e‘tibor kuchaydi. Simulyatsiya asosidagi mashg‘ulotlar talabalarga real klinik sharoitni modellashtirish, amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirish va xatolardan o‘rganish imkoniyatini beradi.

Biroq simulyatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun ularni fanlararo integratsiyalashgan ta‘lim yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Shu jihatdan STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) muhim metodologik asos sifatida qaralmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi so‘nggi yillarda nafaqat umumiy o‘rta ta‘limda, balki oliy ta‘lim tizimida ham keng qo‘llanilmoqda. Anderson va Ramirez (2021) o‘z tadqiqotida STEAM yondashuvining tibbiyot ta‘limida qo‘llanilishi talabalarni kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etishga tayyorlashda samarali ekanini ta‘kidlaydi. Freeman va Jackson (2019) esa o‘z ishida ta‘lim texnologiyalarini integratsiyalash orqali talabalarda mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash qobiliyatlari kuchayishini isbotlagan. O‘zbekistonda Buyukova va Karimov (2022) simulyatsion texnologiyalarni tibbiy ta‘limda qo‘llash bo‘yicha olib borgan izlanishlarida bu metodikaning yuqori samaradorligini ta‘kidlaydilar. Yakubov (2023) esa innovatsion o‘qitish metodlari ta‘lim samaradorligini sezilarli oshirishini ko‘rsatadi. Ammo mavjud adabiyotlarda STEAM yondashuvini bevosita tibbiy simulyatsion ta‘lim bilan uyg‘unlashtirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Maqsad: tibbiy ta‘limda STEAM yondashuvi asosida simulyatsion o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etish va samaradorligini baholash.

**Vazifalar:**

1. Tibbiy ta‘lim jarayonidagi mavjud o‘qitish metodlarini tahlil qilish.
2. STEAM yondashuvini simulyatsion o‘qitish jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash.
3. Eksperimental tadqiqot asosida yangi metodikaning samaradorligini baholash.
4. Taklif etilgan metodikani joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

STEAM yondashuvi nima?

STEAM – bu Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san‘at, kreativlik) va Mathematics (matematika) sohalarini birlashtiruvchi ta‘lim modeli. U oddiygina fanlarni alohida o‘rganishga emas, balki ularni integratsiyalashgan holda qo‘llashga asoslanadi.

Tibbiy ta‘limda bu yondashuv shuni anglatadiki:

Science – biologiya, kimyo, fiziologiya kabi asosiy fanlardan chuqur bilim olish;

Technology – AR/VR simulyatorlar, kompyuter dasturlari, sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish;

Engineering – klinik jarayonlarni modellashtirish, diagnostik va davolash usullarini texnologik asosda o‘rganish;

Art – kreativ yondashuv, vizual modellashtirish, bemor bilan muloqot qilish, kommunikativ kompetensiyalar;

Mathematics – statistik tahlil, laboratoriya ko‘rsatkichlari, diagnostik natijalarni hisoblash va talqin qilish.

Shu tarzda STEAM yondashuvi tibbiy ta‘limni fanlararo integratsiyalashgan, kreativ va amaliyotga yo‘naltirilgan holga keltiradi.

Simulyatsion ta‘lim nima?

Simulyatsion ta‘lim – bu talabalarni real klinik sharoitga yaqinlashtiruvchi maxsus metod. Masalan: VR/AR (virtual va to‘ldirilgan reallik) yordamida operatsiya jarayonini mashq qilish;

Klinik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabaning qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; OSCE (Objective Structured Clinical Examination) kabi baholash usullari bilan talabaning bilimini sinovdan o‘tkazish.

Simulyatsiya orqali talabalar xatolardan real bemorga zarar yetkazmasdan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Nega STEAM va simulyatsion ta‘limni birlashtirish kerak?



Oddiy simulyatsion darslar ko‘nikma beradi, ammo ularni STEAM asosida tashkil qilish talabaga kengroq imkoniyat yaratadi:

Fanlararo integratsiya: masalan, yurak kasalliklarini o‘rgatishda biologiya (anatomiya), texnologiya (EKG apparati), matematika (aritmialarni hisoblash), san‘at (vizual modellashtirish) hamohang ishlatiladi.

Kreativlikni rivojlantirish: talaba faqat protokolni yodlamaydi, balki klinik vaziyatga mos yechim topishni o‘rganadi.

Motivatsiya: simulyatsion jarayonlar talaba uchun qiziqarli va interaktiv bo‘lib, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Amaliy natija: talaba kelajakda real klinik sharoitda bemor bilan ishlashga tayyor bo‘ladi. Xulosa STEAM yondashuvi va simulyatsion ta‘limni birlashtirish:

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi,

Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi,

O‘quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi,

Tibbiyotda innovatsion yondashuv sifatida kelajakda keng qo‘llanishi zarur.

Shunday qilib, mavzu nafaqat ta‘lim metodologiyasi uchun ilmiy yangilik, balki amaliyotda shifokorlarni zamon talablari asosida tayyorlash uchun ham muhimdir.

### **Xulosa va tavsiyalar:**

1. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan simulyatsion mashg‘ulotlar tibbiy ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim metod hisoblanadi.
2. Bu metodika talabalarda klinik fikrlash, jamoada ishlash va kreativ yondashuvni rivojlantiradi.
3. Tibbiy ta‘lim jarayoniga ushbu yondashuvni keng joriy qilish talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.
4. Oliy tibbiyot muassasalari uchun STEAM asosida ishlab chiqilgan simulyatsion mashg‘ulotlar dasturlarini yaratish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Buyukova N.A., Karimov A.S. Tibbiy ta‘limda simulyatsion texnologiyalar. – Toshkent: 2022.
2. Yakubov B.Sh. Innovatsion ta‘lim metodlari va ularning samaradorligi. – Andijon: 2023.
3. Anderson J., Ramirez M. Integrating STEAM into Medical Education. – Journal of Medical Simulation, 2021.
4. Freeman A., Jackson C. Educational Technology in Higher Medical Education. – Oxford University Press, 2019.
5. Society for Simulation in Healthcare (SSH). Standards and Guidelines. – 2020.
6. Patidinova D.S. Innovatsion ta‘lim texnologiyalardan samarali foydalanish – bugungi kun talabi. Xalqaro Germaniya konferensiyasi materiallari. – 235–237-b.
7. Patidinova D.S. Maktabning informatika darslarida ta‘limning an‘anaviy va innovatsion tashkiliy shakllaridan foydalanish. Obrazovaniya, nauka i innovatsionnye idei v mire. – 152–156-b.
8. Patidinova D.S. Informatika o‘qituvchilarini tashkiliy-pedagogik kompetensiyasini oshirish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal. – 1348–1353-b.
9. Patidinova D.S. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyalarni mashqlar orqali shakllantirish. XXI asr axborot asrida axborot psixologik xavfsizligi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami. – 140–141-b.
10. Patidinova D.S. Programming of repetitive algorithms for operator. International scientific and technical conference on the topic of the scientific and practical foundations of the effective use of resource-saving innovative technologies in agriculture. – 170–172-b., 27–28 October 2023.
11. Patidinova D.S. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar fanini o‘qitishda ta‘limning an‘anaviy va innovatsion tashkiliy shakllaridan foydalanish. Xorazm Ma‘mun akademiyasi xabarnomasi. – 2023, №12/3. – 176–178-b.



12. Patidinova D.S. STEAM texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2025, №5.

### TIBBIYOT TA'LIMIDA STANDARTLASHTIRILGAN BEMORLAR: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

**Qosimova Z. M.**

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.**

**Annotatsiya:** 2006 yildan 2023 yilgacha chop etilgan ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va tahlil qilish orqali mazkur maqolada mavzuga oid ilmiy yondashuvlarning keng qamrovli sharhi beriladi. Unda tibbiy ta'lim jarayonlariga simulyatsiya qilingan yoki standartlashtirilgan bemorlarni jalb etish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar yoritilgan. Shuningdek, standartlashtirilgan bemor metodologiyasining rivojlanish bosqichlari, atamalar taraqqiyoti hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida qo'llash imkoniyatlari va chegaralari ko'rib chiqiladi.

Maqolada, shuningdek, bu metodni turli mamlakatlarda amaliyotga tatbiq etishda uchraydigan qiyinchiliklar ham tahlil etiladi. Standartlashtirilgan bemorlar va ularni tayyorlovchi o'qituvchilarning kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni, ularni baholash usullari va mazkur jarayonning o'ziga xos jihatlari ta'riflanadi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlarda standartlashtirilgan bemor ishtirokida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi, klinik amaliyot uchun zarur malakalarni uzoq muddat davomida saqlab qolish imkoniyati, iqtisodiy jihatdan foydaliligi ham yoritiladi.

Metodologiyadan shifokorlar, hamshiralar, turli ta'lim bosqichidagi talabalarning tayyorgarlik jarayonida foydalanish tajribasi ham o'rganilgan. To'plangan xalqaro tajribalarga qaramay, ushbu sohada ayrim masalalar hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** simulyatsiya qilingan bemor, malaka, klinik muloqot qobiliyatlari, o'qitish metodikasi.

**Аннотация:** В данной статье дается исчерпывающий обзор научных подходов к теме путем обобщения и анализа научной литературы, опубликованной в период с 2006 по 2023 годы. В нем освещен зарубежный и отечественный опыт по привлечению к процессам медицинского образования симулированных или стандартизированных пациентов. Также будут рассмотрены этапы развития стандартизированной методологии пациента, развитие терминов и возможности и пределы их применения на основе современных исследований.

В статье также анализируются трудности, возникающие при применении данного метода в различных странах. Описывается процесс формирования навыков профессионального общения стандартизированных пациентов и обучающихся их учителей, методы их оценки и особенности этого процесса. В исследовании также будет освещена эффективность развития навыков общения со стандартизированным пациентом, возможность сохранения необходимых для клинической практики навыков в течение длительного времени, а также их экономическая эффективность.

Также изучен опыт использования методологии врачами, медсестрами, студентами различных образовательных ступеней в процессе подготовки. Несмотря на накопленный международный опыт, некоторые вопросы в этой области остаются спорными.

**Ключевые слова:** симулированный пациент, компетентность, навыки клинического общения, методика обучения.

Zamonaviy global jarayonlar, xususan, talabalarning ta'lim muhitida faol ishtirokini tubdan o'zgartirmoqda. Bu esa o'qitish jarayoniga samaradorlikni oshiruvchi yangi yondashuvlar va uslublarni keng joriy etishni talab etadi. Ushbu yondashuvlardan biri sifatida simulyatsiya keng qo'llanilmoqda. Simulyatsiya texnologiyalarining ayrim turlari o'quv jarayoniga standartlashtirilgan yoki simulyatsiya qilingan bemorlarni (yoki ishtirokchilarni) jalb etishni nazarda tutadi [1,2].



Xalqaro tajribada Tibbiyot ta'limi bo'yicha aloqa qo'mitasi (LCME) hamda Oliy tibbiy ta'lim bo'yicha akkreditatsiya kengashi (ACGME) standartlashtirilgan bemor metodikasini tibbiy ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish va baholashda ishonchli hamda samarali vosita sifatida tan oladi. Ushbu metodika nafaqat klinik amaliy ko'nikmalarni (masalan, qorin sohasini palpatsiya qilish) shakllantirishda, balki fanlararo jamoaviy mashg'ulotlar orqali professional muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita sifatida qo'llanadi. Shu nuqtai nazardan, 1999 yildayoq ACGME barcha tibbiy rezidentura bitiruvchilaridan shaxslararo va bemor bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni majburiy talab sifatida belgilagan [3].

Mazkur maqolada tibbiy ta'lim jarayoniga standartlashtirilgan bemorlarni jalb etish bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilinadi. Xususan, metodikaning tarixiy shakllanish jarayoni, terminologiyaning evolyutsiyasi, uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari hamda chegaralari, so'nggi ilmiy izlanishlar asosida baholanadi. Shu bilan birga, metodologiyani turli mamlakatlarda tatbiq etishda uchraydigan qiyinchiliklar ham ko'rib chiqiladi.

Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida standartlashtirilgan bemorlarni va ularni tayyorlovchi mutaxassislarni kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish hamda baholash jarayonidagi o'ziga xos jihatlar alohida tavsiflanadi. So'nggi o'n yillikda ushbu metod yordamida olib borilgan tadqiqotlar ko'proq uch yo'nalishga qaratilgan:

- talabalarda muloqot ko'nikmalarini samarali o'rgatish,
- klinik amaliyot uchun zarur ko'nikmalarni uzoq muddat davomida saqlab qolish,
- standartlashtirilgan bemorlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Metodika shifokorlar, hamshiralar, turli bosqichlardagi talabalar va boshqa tibbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ham keng qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, xalqaro tajribaga qaramasdan, ayrim nazariy va amaliy masalalar hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda hamda qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

**Material Va Usullar** Tibbiy ta'lim jarayonida standartlashtirilgan bemor metodologiyasini qo'llash bo'yicha mavjud yondashuvlarni o'rganish maqsadida keng qamrovli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Ushbu tahlil doirasida 50 ta mahalliy ilmiy ish va 100 dan ortiq xorijiy nashr o'rganildi. Tahlil qilingan manbalar maqolada yoritilgan mavzuni har tomonlama ochib berishga, xalqaro hamda milliy tajribalarni taqqoslashga va mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qiladi.

**Natijalar:** Standartlashtirilgan bemordan foydalanish metodologiyasining rivojlanish xronologiyasi va terminologiyaning shakllanishi: Tibbiy ta'limda standartlashtirilgan bemordan foydalanish g'oyasi ilk bor 1960-yillarda AQShlik nevrolog Xovard Barrows tomonidan taklif etilgan. U sog'lom shaxslarni kasallik belgilari va simptomlarini izchil tarzda ko'rsatishga o'rgatish orqali "simulyatsiya qilingan bemor" konsepsiyasini ishlab chiqdi. Shu bilan birga, haqiqiy kasallikka chalingan bemorlarni ham standartlashtirilgan holda klinik holatni taqdim etishga jalb qilish mumkinligini asoslab berdi. Bunday metodikani ishlab chiqishga bir qator sabablar turtki bo'lgan: real bemorlarni baholash jarayonida ishonchlilik va xolislikning pastligi, shuningdek, etika bilan bog'liq muammolar [4].

Barrows dastlab Los-Anjeles okrugi shifoxonasida nevrologik bemorlarni taqlid qila oladigan aktrisaning tayyorlagan. 1970-yillarga kelib pediatr Paula Stillman bu tajribani yanada rivojlantirdi va "standartlashtirilgan bemorlar" hamda "bemor-instruktorlar"ni o'qitish amaliyotini yo'lga qo'ydi. U klinik kompetensiyalarni ishonchli baholash maqsadida Objective Structured Clinical Examination (OSCE) tizimini ishlab chiqdi. Keyinchalik ushbu tizim AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida, jumladan Xitoy tibbiyot maktablarida keng qabul qilindi.

Standartlashtirilgan bemor metodikasiga talab ortishi natijasida ASPE (Association of Standardized Patient Educators) tashkiloti paydo bo'ldi. Bu xalqaro assotsiatsiya standartlashtirilgan bemorlar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun o'quv jarayonida sifat va xavfsizlikni ta'minlovchi eng yaxshi amaliyot standartlarini ishlab chiqadi. Bugungi kunda ASPE 600 dan ortiq a'zoga ega bo'lib, muntazam ravishda metodikaning rivojlanishi bilan bog'liq tavsiyalarni yangilab boradi [1,5].

So'nggi yigirma yil davomida standartlashtirilgan bemor konsepsiyasi tibbiy ta'limning turli sohalarida – stomatologiya, farmatsevtika, veterinariya va hamshiralik ishi kabi yo'nalishlarda keng qo'llanila boshlandi. 2009 yilda AMEE (Association for Medical Education in Europe) metodikani



qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqib, ularni monitoring, baholash, ma‘muriy jarayonlarni tashkil etish, xodimlar xarajatlari va madaniyatlararo taqqoslash kabi jihatlarda tizimlashtirdi [6,7]. Terminologiyada ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. “Standartlashtirilgan bemor” va “simulyatsiya qilingan bemor” tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi, biroq ular orasida nozik farq mavjud: har qanday standartlashtirilgan bemor simulyatsiya qilinadi, lekin har qanday simulyatsiya qilingan bemor doimo standartlashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Simulyatsiya qilingan bemorlar o‘quvchilar ehtiyojiga qarab moslashuvchanlikni ta‘minlasa, standartlashtirilgan bemorlarning xatti-harakatlari qat‘iy belgilangan mezonlar asosida takrorlanadi [2].

2017 yilda ASPE “standartlashtirilgan bemor”ni “simulyatsiya qilingan ishtirokchi” atamasi bilan yangiladi. 2021 yilda esa terminologik lug‘at yanada kengaytirilib, “standartlashtirilgan bemor”, “simulyatsiya qilingan bemor”, “ishtirokchi” kabi atamalar tibbiy simulyatsiya bo‘yicha xalqaro standartlarga moslashtirildi [5].

So‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlari ham faol tajriba almashmoqda. Masalan, Gollandiya va Belgiya tibbiyot maktablarini birlashtirgan maxsus guruh (SIG-NL/B) muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatishda yangi formatlarni ishlab chiqdi [8,9]. Rossiyada esa 2004 yildan boshlab Kazan davlat tibbiyot universiteti birinchi bo‘lib standartlashtirilgan bemor dasturini amaliy ta‘limga tatbiq etdi, keyinchalik bu tajriba Ural davlat tibbiyot universitetida kengaytirildi. 2016 yildan boshlab metodika davlat yakuniy attestatsiyasiga ham kiritildi [11–15]. Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi sog‘liqni saqlash mutaxassislarini akkreditatsiya jarayonida ham ushbu yondashuvdan foydalanmoqda va 48 klinik mutaxassislik bo‘yicha muloqot ko‘nikmalarini baholashni yo‘lga qo‘ygan [20–22].

Standartlashtirilgan bemor metodologiyasining afzalliklari qatoriga quyidagilar kiradi: baholash jarayonining ishonchliligi, klinik holatlarni bir necha marotaba takrorlash imkoniyati, o‘quvchilar uchun xavfsiz muhitni ta‘minlashi, shuningdek, real klinikada uchrashi qiyin bo‘lgan vaziyatlarni modellashtirish imkoniyati. Biroq, iqtisodiy xarajatlarning yuqoriligi va tayyorlov jarayonining murakkabligi metodikaning muayyan cheklovlari sifatida ko‘riladi [24–29].

### **Standartlashtirilgan bemor metodologiyasidan foydalanishda uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari:**

Tibbiy ta‘limda standartlashtirilgan bemorlardan foydalanish katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy to‘siqlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Standartlashtirilgan bemorlar bazasini shakllantirish;
2. Standartlashtirilgan bemorlarni tayyorlash va amaliy ko‘nikmalarni baholashga jalb etish;
3. Trener va o‘qituvchilarni yetishtirish.

#### **1. Standartlashtirilgan bemorlar bazasini yaratish**

